

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix fakulteti
«O'zbekiston tarixi» kafedrası**

**«Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya mustamlakachiligi davrida»
qo'shimcha fani bo'yicha**

(3 kurs talabalari uchun)

Ma'ruzalar matnlari

Tuzuvchilar:

**katta o'qit. Aminov S.M
ass. Muhiddinov S.I.**

Kafedra mudiri:

dos. Xoliqulov R.Sh.

Samarqand – 2015 y

KIRISH

Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruxiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurallantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Islom Karimov.

O'zbekiston zamonaviy mustaqil davlat sifatida 1991 yilda tarix sahnasida paydo bo'ldi. U Rossiya imperiyasi mustamlakachiligini davom ettirgan, sho'rolar hukmronligini ta'minlagan 1924 yilgi siyosiy va ijtimoiy shartnomadan butunlay voz kechdi. Rossiya imperiyasi ochiq-oydin mustamlakachilik siyosatini yuritgan, tub xalqlar turmushining kamsitilishini qonun-lashtirgan davlat bo'lgan bo'lsa, sovet davriga kelib vaziyat yanada murakkab tus oldi. Sho'rolar davlati mafkurasi baynalmilalchilikka asoslangan bo'lib, bu nazariy jihatdan barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berardi, biroq amalda esa Sovet Ittifoqi avvalgi imperiyaning vorisi sifatida totalitar davlat tizimini yuzaga keltirdi, bunda u davlat tuzilmalarining avvalgi hukmronini rivojlantirdi va mustahkamladi, mintaqqa iqtisodini xom ashyo yetishtirishga yo'naltirdi, milliy madaniyat va qadriyatlarni oyoq osti qildi, rus tilining rasmiy til sifatidagi yetakchi mavqeini mustahkamlab, mahalliy xalqlarga nisbatan ruslashtirish siyosatini va shafqatsiz jazo tadbirlarini amalga oshirdi.

Mustaqillik yillari O'zbekiston uchun milliy davlatchilikni tiklash, jami-yatni demokratiya asosida qayta qurish va hokimiyat funktsiyalarini taqsim-lash tamoyillarini ishlab chiqish, shaxs-ning huquq va erkinliklarini ta'min-lash, erkin bozor munosabatlarini

rivojlantirish uchun asos bo'luvchi poyde-vorni qurish bo'yicha mashaqqatli mehnat qilish davri bo'ldi.

Har qanday jamiyat hayotida bunday tub, olam-shumul o'zgarishlar bosqichma-bosqich, ba'zan bir necha o'n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o'tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mmntaqamizdagi xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, shu jumladan, O'rta Osiyo davlatchiligi tajribalarini o'rganmasdan, bugungi kunda buyuk deb ta'riflash mumkin bo'lgan hozirgi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish va baholash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek: «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi»¹. I.A.Karimovning tarix fani vakillari bilan uchrashuvidagi suhbatlarida ushbu fanning dolzarb muammolari muhokama qilinib, ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlarini chu-qur o'rganish, O'zbekistonda davlatchilikning qaror topishini ta'minlagan tarixiy sharoitlarga aniqlik kiritish, chorizm va sovet tuzumlarining bu jara- yonlarga salbiy ta'siri omillarini aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratildi².

Tarix fani oldiga qo'yilgan bu vazifalar o'zbek xalqi tarixini har tomonlama tadqiq qilish, davlatchilik tarixining turli bosqichlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotni o'rganish, «o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini tadqiq qilishda bir yoqlama yondashuv, o'tmishni soxtalashtirish, mustamlakachilik mafkurasini

tarkib qilish»dan qochish¹; avvalgi tuzumlar mustaqillik haqidagi milliy g'oyaning to-mir yoyishida qanday rol o'ynagani; bu goya qanday siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda qaror topgani; xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash va davlat suverenitetini tiklash yo'llarini izlash zarur-ligini tushunib yetishiga qaysi omillar turtki berganini chuqur anglab yetish zarurligini belgilab beradi.

1-Mavzu: Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya hukmronligi davrida kursining maqsad va vazifalari. Eng asosiy manbalar va adabiyotlar.
2-soat

Reja:

1. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya hukmronligi davrida kursining maqsad va vazifalari
2. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya hukmronligi davrida kursi bo'yicha muhim manbalar va eng asosiy adabiyotlar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «S'Harq», 1998.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. "O'zbekiston" 2008 y.
3. Ahmedov.B.A. Tarixdan saboqlar. T. «O'qituvchi», 1994.
4. Azamat ZiyO O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
5. Gulomov.X. Diplomaticheskiye otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiyei vXVIII- pervoy polovine XIX veka.-T., 2005.
6. Ziyoev X.Z. O'rta Osiyo va Sibir. T., "FAN", 1962.
7. Ziyoev X.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-T., 1998.
8. Ziyoev X.Z. Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi.-T., 2000.
9. G'afforov Sh.S. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar.-T., 2006.
10. Gulomov X.G'. Rossiyaning Buxoro xonligi bilan XVII asrda elchilik munosabatlariga doir. T., "FAN", 1992.
11. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas'ul muharirlar D.A.Alimova., E.V.Rtveladze. T., 2001.

Tayanch so'zlar:

O'zbek davlatchiligi, Amir Temur, Dashti Qipchoq, Muhammad Shohbaxt, Movarounnahr, Xitoy, qipchoq, Kenagas, Mang'it urug'lari Kavkaz, Volgabo'yi, manbalar, ilmiy adabiyotlar.

1-masala

Insoniyatning keyingi **uch ming yillik tarixiga nazar** tashlansa, jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri, **Turon, Movarounnahr, Chig'atoy** ulusi, Turkiston deb turli asrlarda turfa nomlar bilan atalgan diyorimiz osmonini qora bulutlar qoplagan yillar ko'p bo'lgan. Bu o'lkaga hasad va tajovuz ko'zi bilan qaragan, mardona xalqini qul, tabiiy zahiralarini o'ziniki qilishga jon-jahdi bilan intilgan bosqinchilar son-sanoqsiz edi.

Biroq, hamma zamonlarda ham yovga qarshi xalqimizning vatanparvar yo'lboshchilari, millat qahramonlari ozodlik yalovini baland ko'targanlar, or-nomus, o'zlikni saqlash uchun kurashganlar. Pirovard natijada, dushmanlar qoldirgan kultepalar ustida obod kishloklar, shaharlar tiklaganlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Turkiston o'lkasi qadim zamonlardan beri tabiiy-geografik iqlimi, boyliklarining ko'pligi, hosildor za-mini bilan atrofdagilarning diqqat-e'tiborini o'zi-ga tortib kelgan. Ona diyorimiz bir necha marotaba dushman otlari tuyog'i ostida toptalgan. Xalqimiz o'nlab marta tinch, yaratuvchilik mehnatini to'xtatib, ona-yurt ozodligi va mustaqilligi uchun kurashga otlangan. Asl o'g'lonlar doimo Vatan uchun jonini fido qil-ganlar.

Turkistonning taqdiri g'oyat mashaqqatli kechdi. Ro'y bergan vayroialiklardan aql bovar qilmas darajada moddiy-ma'naviy zarar ko'rildi. XIII asrda mo'g'uldar, XIX asrning ikkinchi yarmida esa rus chorizmi bosqinchilari tomonidan o'lkaga ofat yog'ildi. Har ikki g'alamis dushman avvalo milliy davlatchiligimizni yo'q qildi, moddiy-madaniy boyliklarimizni talon-toroj etdi. Xalq va millat sifatidagi qadriyatlar toptaldi. O'lkamiz uzoq yillar mobaynida tanazzul botqog'iga botdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ullarning o'lkamizga bostirib kirishi ko'plab fidoiy tarixchilarimiz tomonidan izchil ravishda o'rganib chiqilgan, Tarixiy-ilmiy, shuningdek badiiy asarlarda bu voqealar o'z ifodasini topgan. Ammo Rossiya imperiyasining Turkistonni dastlab josuslik yo'li bilan uzoq yillar o'rganib chiqishi, so'ngra o'ta jirkanch usullardan foydalanib uni zabt etishi, nihoyat, mustamlakachilik sirtmog'ining o'lka bo'yniga solnishi kabi tarix haqiqati O'rta Osiyo xalqlaridan sir tutilib kelingan edi. Chunki

xalqimiz undan xabardor bo'lganda, o'z-o'zidan Sho'ro imperiyasining mustamlakachilik qiyofasi ochilib qolgan bo'lur edi. **«O'rta Osiyoning bosib olinishi»** iborasi unga tamomila qarama-qarshi ibora, ya'ni «qo'shib olinishi» qabilida talqin etildi. Tarixchi olimlar tarix haqiqatiga zid ish qilib, «o'lka qo'shib olingan» iborasini qo'llab, uni ko'r-ko'rona soxtalashtirdilar. Natijada bu g'oyani rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Shu davr mobaynida keng hajmli, ammo zamini bo'sh «ilmiy» risolalar, monografiyalar uzluksiz chiqib turdi. Bunday holat 80- yillarning oxiriga qadar davom etib, milliy ong, mustaqillik kurtak yoza boshlagandan keyingina to'xtadi.

Nihoyat, tarixchilar bu soxta, g'ayriqonuniy qarashlarni rad etib, Vatan yilnomasining fojiali kechmishini adolatli yorituvchi risola va ilmiy maqolalar bilan chiqa boshladilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng tarix haqiqatini ro'yobga chiqarish, tarixiy voqealar va hodisalar qanday kechgan bo'lsa, ularni shundayligicha bayon etish imkoniyati yaratildi.

Oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi «Avesto» vujudga kelgan zamonlardayoq o'z tarixiy davlatchiligiga ega bo'lgan Turkistonni istibdodga cho'lg'ab, mustamlaka va mute'ga aylantirgan edi.

Yurtimizning fidoyi davlat arboblari, olimlar, shoir va adiblar zuravonlik bilan ushlab turilgan qizil saltanat tuzumi podshohlik Rossiyasi o'rnatgan mustamlakachilik siyosatining izchil davomi, milliy o'lkalarni ezish va talash, madaniyati va ma'naviyatini oyoq osti qilishning takomillashgan shakli ekanligini teran faxmlar edi.

Sobiq sho'ro saltanati yillarida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tariximiz soxtalashtirildi. Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda: «O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi — yo'qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo'lish — hayotdan judo bo'lish demakdir»,— deb juda o'rinli o'qtirgan edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida podsholik Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda istibdodga, xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi. Mahalliy aholini xo'rlash va qatag'on etish oktyabr to'ntarishi tufayli hokimiyatga kelgan sho'ro saltanati davrida yanada

kuchayib, eng yuqori pog'onalarga ko'tarildi. Shu tariqa, Turkistonda mustaqil davlatchilikni poymol etgan, til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan mustabidlik tuzumi 130 yil umr ko'rdi.

2-masala

Yaqin va o'tmish tarix bugungi kun va kelajak uchun ibrat darsligidir. Darvoqe, «vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlay olish uchun, avvalo, tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan. Tarix insonning ko'zini ochar ekan. Shunda ko'p xatolarning oldini olish mumkin bo'lar ekan».

Endilikda, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida kurrai zaminda qad rostlaganining to'qqiz yilini kechirayotgan damlarda kechagi kunga nazar tashlash, so'ggi mustamlakachilik asoratini o'rganish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, millatni asrash uchun uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoya qilish kerak bo'ladi.

Aytish joizki, 130 yil davomida qattiqqo'llik bilan hayotga tatbiq etilgan mustamlakachilikning mash'um tamoyillari qoldirgan asoratni bugungi kunda O'zbekistonning hamma jabhasida: iqtisodiyot va madaniyatda, ilm-fan va maorifda, qishloq xo'jaligi va sanoatda kuzatish mumkin.

Biz yaqin kechmishdagi tarixiy haqiqatni u qanday bo'lsa, shu holda tiklash va gavdalantirishdek ezgu va olijanob maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Tarixiy haqiqat shundaki, Rossiya imperiyasining sobiq mustamlakasi bo'lgan, endilikda esa suveren davlatga aylangan O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan do'stona teng, o'zaro hurmat asosida davom etib kelayotgan aloqalarini mustahkamlashda u ikki tomonlama saboq va ibrat vazifasini o'tashi lozim bo'ladi.

G'oyat murakkab kechgan bosqin jarayonini tarixan xolis va ilmiy yoritishda asosan ikki manbaga: rus zobitlari va harbiy mundir kiygan olimlarining esdalik, xotira hamda ilmiy asarlariga, shuningdek, istilo davrida yashagan, shu voqealarga shohid bo'lgan mahalliy muarrixlarning qo'lyozma kitoblariga tayanildi.

Respublika Prezidenti, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi I.A.Karimov 1991 yildayoq SSSRning parchalanib ketishi va o'zbek xalqining mustaqillikni qo'lga kiritishi tasodifiy hodisa bo'lmasdan, uning chuqur tarixiy zaminga ega ekanligini asoslab berdi. Sho'ro saltanati halokati yuz bergan paytda O'zbekiston hukumati mustaqillik bayrog'ini dadil ko'targanida ana shu zaminga suyangani, xalqimiz 130 yildan beri rus saltanatiga va sho'ro tuzumiga bo'lgan norozilikning poyoniga yetganini

tushunganligi uchun milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi nisbatan yengil ko'chganligi ravshan.

Turkiston o'lkasining rus mustamlakachiligi va sho'ro hukmronligi davrida kechgan mazlumona hayoti tarixiy-ilmiy adabiyotlarda, qay nuqtai nazardan bo'lmasin, har holda, nisbatan to'laroq ifoda etilgan, deyish mumkin. Bu adabiyotlarni mazmun va mohiyat e'tibori bilan to'rt davrga ajratish to'g'ri bo'ladi.

Birinchi davr asosan 1917 yilgacha yozilgan tadqiqotlarni, ikkinchi davr 20—50-y illarda, uchinchi davr esa 50-yildan to 80-yillar birinchi yarmiga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi.

To'rtinchi davrga oid adabiyotlar tarixshunoslikda «qayta qurish» deb nom olgan 80-yillarning ikkinchi yarmidan to O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga qadar va mustaqillik yillarida vujudga kelgan asarlar majmuidan iboratdir.

Birinchi davrga mansub tarixiy-ilmiy kitoblarda rus mustamlakachilik siyosatiga doir tanqidiy fikr-mulohazalar deyarli uchramaydi. Chunki ularning mualliflari asosan boshqa xalqlarni talashdan, ezishdan manfaatdor bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar, zobitlar, savdo-sanoat korchalonlari, nufuzli amaldorlar bo'lishgan. Bu xil manbalarda ko'proq. Rossiyaning Turkistonda qo'llay boshlagan iqtisodiy-siyosiy zug'umlarini oqlash, saltanat hukmron doiralarining manfaati nuqtai nazaridan o'lkani o'zlashtirish bo'yicha yana qanday tadbirlar ko'rish zaruriyati bayon etiladi. Bu asarlardagi bosh g'oya, yetakchi yo'nalish, qanday bo'lmasin, saltanatning Turkistondagi tajovuzi va mustabid tizimini g'oyaviy asoslashga, yangi «ikkinchi rus Turkistoni»ni barpo etish uchun zarur yo'nalishlarni belgilashga qaratilishi bilan bog'liq edi. Bu jihatdan general-leytenant M.A.Terentevning «O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi» (1906) asarini qayd etish mumkin.

Sankt-Peterburg zodagonlari vakili, o'lkashunos olim knyaz V.I.Masalskiy esa diqqatini Turkistondagi yer-suv masalalariga qaratib, arzon paxta xom ashyosiga erishish uchun o'lkada paxta yakka hokimligini o'rnatish, ruslarni ko'paytirish choralari ko'rish lozimligini o'qtiradi. Podsho vaziri A.V.Krivoshein ham asarlarida xuddi shu haqda fikr yuritadi. O'lka iqtisodiyotiga doir adabiyotlarda asosan hukmron davlat— Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan masalaga yondoshiladi, mustamlaka siyosatini mustahkamlash, shu orqali imkon qadar o'lka qonini zulukdek so'rish chora va usullari bahs etiladi. Taassufki, ularda Rossiya istibdodi, milliy xo'rlash siyosatiga oid jiddiy tanqidiy fikr-mulohazalar o'z ifodasini topmagan.

Lekin, garchand axborot tarzida bo'lsa-da, bu adabiyotlarning qimmatini shundaki, mualliflar xech bir istihola qilmay, o'zlari tarafdor bo'lgan mustamlakachilikning haqiqiy basharasini, oshkor va pinhon niyatlarini takabburlik ila namoyish etadilar. Bu esa, rus mustamlakachiligining qabohati ingliz, ispan, frantsuz va nemis mustamlakachiligiga qiyos etilganda, ulardan necha bor tahlikali tusda amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Birgina ruslarning temir yo'l, sanoat va harbiy sohadagi barcha malakali ishchilarni o'z tasarrufiga olishi mohiyatiga e'tibor beraylik. Bundan ko'zlangan pinhona va razilona maqsad Turkiston tub aholisining taraqqiyotiga chek qo'yish, ko'zga ko'rinmas turlar bilan uning oyoq-qo'lini chirmab tashlash, oxir-oqibatda, o'lkani Rossiyasiz mustaqil kun ko'rishdan mahrum etish edi. Bu maqsad yo'lida ular o'z madaniyatini, tili va adabiyotini, musiqa va hatto, me'morchiligini Turkiston aholisi didiga yaqinlashtirishga, shu orqali, ularning ich-ichiga kirib borishga intiladi. Tub joy kishilar bilan o'zlarini teng qilib ko'rsatish, shu taxlit ular hurmatini qozonish, birga o'tirib turish, qon-qardosh bo'lib ketganligini pesh etish odatdagi holga aylanadi. Rus mustamlakachiligining bu xildagi qabih va ayyorona dasturi fikr yuritilayotgan birinchi davr adabiyotida yaqqol gavdalanadi, deyish mumkin. Mustamlakachilar bor kuch-gayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni asl tariximizdan judo qilishga sarflaganlari bu davr adabiyotiga xosdir.

Ikkinchi davrga taalluqli adabiyotda Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosati va uning asosiy yunalishlari, shuningdek, istiqloq uchun olib borilgan kurashlar qamrab olinadi. Tabiiyki, bu mavzular shu davr adabiyotida, ayniqsa, 20-yillar tarixshunosligida bir qator mualliflarning asarlarida turli darajada, turlicha saviyada o'z aksini topdi. Muhimi shundaki, 20-yillarda qalam tebratgan mualliflar o'zlari tasvir etgan, fikr yuritgan ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalarning bevosita ishtirokchilari bo'lishgan. Shu boisdan bu asarlarda davrning murakkab, ziddiyatli, mahzun ruhi ufurib turadi. Chunonchi, mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati G.I.Safarov, P.G.Galuzo va A.Z.Validiy To'g'on tadqiqotlarida ilk daf'a to'laroq aks etdi.

Uchinchi davr (50-yillardan 80-yillar birinchi yarmiga qadar) adabiyotida tarixni soxtalashtirish va buzib talqin etish sohasida o'ziga xos poyga avj oldi. Binobarin, Turkiston o'lkasida bo'lib o'tgan barcha milliy-ozodlik harakatlari haqida ijobiy fikr bildirish u yoqda tursin, bor haqiqatni yozish go'yo rus xalqiga qaratilgan millatchilik harakati sifatida baholanar edi. Bu shu darajaga borib yetdiki, **XIX asr ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik** kurashlariga munosabat bildirish «ulug' rus

xalqi bilan bo'lgan do'stlikka rahna solish» sifatida siyosiy xatoga yo'yildi. Masalaning bu tarzda gazaklashi «ulug' og'a» vakillarining ayrim vijdonli, halol olimlarida hijolat tuyg'usini uyg'otmay qolmadi.

Biroq, adolat nuqtai nazaridan, tarixiy vaziyat va kommunistik mafkura tazyiqini hisobga olgan holda aytiladigan bo'lsa, fikr yuritilayotgan **davrning 70—80-yillari boshlarida** bir qancha ilmiy-tarixiy asarlar yaratildiki, ularning ilmiy ahamiyatini pasaytirish nojoizdir. Turgan gapki, bu xildagi tadqiqotlarda tarixga xolisona yondoshish bobida, birinchi galda, rus saltanatining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatiga ilmiy baho berishdagi cheklanish o'sha davr ruhi bilan izohlanadigan asosiy qusurlar hisoblanadi.

S'ho'ro davlati o'zini nechog'lik qudratli hisoblamasin, u ichdan chirib tugayotgan edi. Ayniqsa, 80-yillar ikkinchi yarimlari jahon afkor ommasi oldida qizil saltanatning qadam-baqadam fosh bo'lish yillari sifatida tarixga kirdi. «Qayta qurish» siyosati tizgini tobora qo'ldan chiqib borayotgan saltanat otini qamchilashga behuda so'nggi urinish edi. 1985 yildan so'ng matbuotda, ilm-fanda oshkoralik to'liqini vujudga kelib, tarixshunoslikda erkin fikrlash, xolis ilmiy xulosalarni o'rtaga tashlash imkoniyati tug'ildi.

Mavzu tarixshunosligining to'rtinchi davri 80-yillar ikkinchi yarimlaridan to hozirgi kunlarga qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Garchand bu davr tarixan juda qisqa — o'n-o'n besh yilni qamrasa-da, vujudga kelgan adabiyotlar mohiyat va mundarija e'tibori bilan g'oyat salmoqli ekanligini ta'kiddashga to'g'ri keladi.

Mustaqillik, shubhasiz, olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy voqea bo'ldi. Ko'pgina qalam ahli, muarrixlar, olimlar sodir bo'lgan voqea ahamiyatini teran anglab yetganlari holda, bu buyuk o'zgarish mohiyatini daf'atan ilg'ab ololmagan tarixnavislar ham bo'ldi. Qolaversa, o'tmishni qo'msash vasvasasi ham bu yillarda yozilgan ayrim asarlar sahifalarida aks etmay qolmadi.

S'hu tariqa, tarixshunoslikka doir asarlarning to'rtinchi davriga oid bu bosqichida uch holat, uch xil jarayon va qarashlar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Birinchidan sho'rolar Ittifoqi parchalanishidan, uning o'rnida yosh, mustaqil O'zbekiston kabi davlatlarning maydonga kelishidan norozi bo'lib, o'tmishni qo'msab, tarixiy jarayonlarga eskicha «ulug' rus» millatchiligi, buyuk shovinistik siyosat va g'oyalar nuqtai nazaridan yondoshib ish ko'ruvchi (**V.Pikul, A. Soljenitsin, V.Jirinovskiy, M.Popov, B.Kostin, V.Dubovitskiy va boshqalar**) siyosatdonlar, adiblar,

tarixchi va jurnalistlar podshohlik Rossiyasi bosib olgan hududlar «Rossiya yerlaridir, bu yerlar buyuk Rossiyaning kichik bir «uyezdi» yoki «guberniyasi» bo'lishi kerak, deb ayuhannos solishda davom etmoqda. Ular rus qo'shinlari tomonidan O'rta Osiyoning har-biy yo'l bilan istilo qilinganligini har jihatdan oqlab, bu mudhish ishni amalga oshirganlarni milliy qahramonlar darajasiga ko'tarmoqdalar.

Ikkinchidan. o'zimizdan chiqqan milliy tarixchilarimizning ayrim vakillari hamon o'sha qizil saltanat davrida shakllangan mezon, kontseptsiya asosida ish ko'rib, «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinganini», «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishining xalqaro ahamiyatini» asoslashga urinib, sobiq mustamlakachilar olib borgan siyosatni soxtalashtirmoqdalar.

Uchinchidan. qayta qurish va mustaqillik yillarida o'tmish tariximizga yangicha yondoshib, undagi «oq» va «qora» dog'larni bartaraf qilish niyati bilan, tarixni qanday bo'lsa, shundayligicha, xolisona, bo'yoq va andozalarsiz yoritishga harakat qilayotgan olim va adiblarimiz ma'lum darajada ijobiy ishlar qilayotganliklarini ta'kiddash mumkin.

«O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan, - deb yozgan edi IA.Karimov,- - tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri -XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir».¹

O'zbekiston 1991 yil 31 avgustda istiqlolga erishgach, ta-rixshunoslik fanida yangi sahifa ochildi. Ayniqsa, bu borada Prezident Islom Karimovning **1996 yil 18 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi** akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risida»gi tarixiy Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1996 yil 16 dekabrdagi** qarori g'oyat katta dasturulamal ahamiyatga ega bo'ldi.¹ Mazkur tarixiy hujjatlarda «O'zbekistonning yangi tarixi»ni tayyorlashdek g'oyat ulkan vazifa qo'yildi. Buni amalga oshirishda XIX asrning o'rtalaridan hozirgi kungacha xalqimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy bosqichlarni va o'zgarishlarni to'la qamrab olishga e'tibor berilishi alohida ta'kidlandi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini yoritish borasida mualliflar ana shunday qarashlarga raddiya beruvchi o'z fikrlarini tarixiy dalillar bilan asoslaganlar.

Respublika Vazirlar Mahkamasining **1998 yil 24 iyuldagi** «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori ham o'zbek tarixshunosligining bundan buyonga yo'nalishini belgilab olishda, o'zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda, umuman tariximizning kontseptsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Islom Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda bildirgan fikr-g'oyalari, **1999 yil 2 fevralda «Turkiston»** gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblari, **16 fevralda** Toshkentda ro'y bergan favqulodda mudhish hodisa munosabati bilan so'zlagan benihoya ta'sirchan nutqida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko'pdan-ko'p dasturulamal, kontseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular o'zbek tarixshunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichini, eski holatdan yangi holatga o'tishi va bundan keyingi ustivor yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Ўзбекистон халқдари тарихи Давлат музейи ва Тошкент теп-ловоз-вагон таъмири заводи музейида сақланаётган 1905—1917 йиллар воқеалари иштирокчиларининг эсдаликлари, хужжатла-ри (Д. Устабоев, С. Қосимхўжаев, О. Бобожонов, М. Мирходиев ва бошқалар) ва Туркистон вақтли матбуоти нашрларидан ҳам унумли фойдаланилди.

Империянинг ижтимоий ва сиёсий найранглари фойдаланувчи катор нсёб хужжатларни ана шу архивдан қўлга кири-тиш мумкин бўлди.

XIX асрнинг иккинчи ярмида Туркистонда зўравонлик билан амалга оширилган рус истилоси ва бу босқинчиликнинг даҳшатли оқибатларига бағишланган қўлёзма манбалар — тарихий асарлар, хужжатлар, манзумалар ҳам беназир илмий аҳамият касб этади. Тарихшуносликда бу тажовуз тарихини ҳозирга қадар бир ёқлама, фақат рус манбалари асосида ёритишга интилиш кузатилади. Ҳолбуки, мустабидлар тўккан қонлар совумай туриб Тошкентда, Андижонда, Самарқандда, Бухорода, Қўқонда, Хивада, Наманганда, Қаршида, Жиззахда ва бошқа шаҳарларимизда ёзилган асарлар — улар хоҳ тарихий, хоҳ бадиий ёхуд хужжат бўлсин, тамомила унут бўлиб келди.

Рус истилосига доир қўлёзма манбаларни уч туркумга ажратиш мақбул кўринади. Бу жиҳатдан, тарихий асарлар биринчи туркумни ташкил этади, дейиш мумкин. Хусусан, Муҳаммад Солиҳ

Тошкандий, Мулла Муҳаммад Ниёз Ҳўқондий, Аваз Муҳаммад Аттор Ҳўқондий, Муҳаммад Азиз Марғилоний, Муҳаммад Содик Мунший, Муҳаммад Абдулазим Сомий, Мирзо Олим Мушриф, Аҳмад Дониш, Комил Хоразмий, Мирзо Олим Тошкандий, Муҳаммад Фозилбек, Муҳаммад Ҳакимхон тўра, Исҳоқжон Жўнайдуллахожа Иброт, Аҳмад Закий Валидий асарларини шу сирага киритиш мумкин бўлади.

Домулло Муҳаммад Солиҳнинг «Тарихи жадидаи Тошканд» асари 1862 йилда ёзила бошланиб, 1886—1887 йилларда тугалланган. Икки жилддан иборат қилиб тузилган бу асарнинг биринчи қисмида ислом ва умуман, ўрта асрлар Марказий Осиё тарихи ёритилган бўлса, иккинчи жилдда XIX аср Қўқон хонлиги кечмиши қаламга олинади. Муаррих 3 бобдан иборат бу жилдда фақат Қўқон хонлигида юз берган рус истилоси оқибатларини келтириш билан чекланмай, Бухоро амирлиги воқеаларига ҳам кенг тўхталади. Муаллифнинг Тошкент, Марғилон, Наманган, Андижон, Самарқанд каби шаҳарларнинг руслар томонидан забт этилиши ҳақида ўзи гувоҳ бўлган воқеалар асосида фикр юритиши алоҳида қимматга эгадир.

Мирзо Муҳаммад Абдулазим Сомий Бўстонийнинг «Дорус-салтана Бухоройи шариф манғит султонлари тарихи» 1906 йилда ёзилган. Асар мамлакатда ҳукм суриб келаётган парокандалик, ўзаро низолар охир-оқибатда юртнинг мустамлакага айланиб қолишида асосий омил бўлганлигини англашда муҳим манба ҳисобланади. Айни вақтда асарда халқнинг босқинчиларга қарши мардонавор кураши манзараси ҳам ёрқин акс эттирилади.

Мулло Муҳаммад Ниёз Ҳўқондийнинг «Тарихи Шохрухий», Аваз Муҳаммад Аттор Ҳўқондийнинг «Тарихи жахоннамойи», Исҳоқжон Ибротнинг «Фарғона тарихи» Муҳаммад Юсуф Баёнийнинг «Шажараи Хоразмшоҳий», Ҳожи Муҳаммад Ҳаким Сайид Маъсумхоннинг «Мунтахаб ут-таворих», Мирзо Муҳаммад Содик Муншийнинг «Мусаннофоти Мирзо Содик Мунший», Мирзо Олим Мушрифнинг «Ансоб ус-салотин ва тавори ул - ҳавокун» (Қўқон хонлиги тарихи) , «Тарихи Манзум», Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг «Тарихи Азизий» (Фарғона чор мустамлакаси даврида), Аҳмад Донишнинг «Таржимат ал-аҳвол амирони Бухоройи шариф», Ҳамид ибн ғози Бақо ҳожанинг «Танзил ул-мисол зикр баён ал-аҳвол», Муҳаммад Фозилбекнинг

«Мукаммали тарихи Фарғона» асарларида ҳам рус истилосига дахлдор воқеа-ҳодисалар батафсил баён этилади.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти (ЎЗРФАШИ) жамғармасида сақланаётган ва юқорида зикр этилган тарихий асарлардан ташқари мавзуни тўлдиришда асқотадиган «Тарихи жадидаи Тошканд» (11072-рақамли), «Тарихи Алимқули амири лашкар» (12136-рақамли), «Алимқул жангномаси» (Холбек ибн Мулло Андижоний асари, 8816-рақамли), «Жангномаи Худоёрхоний» (Мулло Шамси асари, 599/1-рақамли), «Тазкирайи Султоний» (Мулло Васийжон асари, 592-рақамли), «Худоёрхоннинг сўнгги кунлари» (Аҳмад Закий Валидий асари, 15743-рақамли), «Тазкирайи ҳазрати Мажзуб Намангоний» (2662/11-рақамли), «Фатҳномаи Султоний» (Мир Олим Бухорий асари, 1838-рақамли), «Тажовузи ўрус» (Қози Абдулвоҳид Садр-Сарири Балхий асари, 2260/ 1У-рақамли), «Тухфайи Шоҳий» (Мирзо Абдулазим Сомий асари, 2091-рақамли), «Зафарномаи Худоёрхоний» (Абдул Ғофур асари, 598-рақамли), «Тухфат ул-хоний» (Муҳаммад Вафо Карминагий асари, 5359/11-рақамли), «Тарихи амир Ҳайдар» (мулло Ибодулло Муҳаммад Шариф асари, 1836-рақамли), «Тарихчайи Туроний» (Умидиддин Марғиноний асари) сингари қўлёз-ма манбаларни ҳам истифода доирасига киритиш жоиз ҳисобланади. Бу тарихий манбаларнинг айримларида учрайдиган чекланишлар, хонларнинг айрим хатти-ҳаракатларига ортиқча баҳо бериш жиҳатларидан қатъи назар, яқин ўтмишни ойдинлаштиришда улар аҳамияти бўлакчадир.

Иккинчи туркум манбалар бевосита маҳаллий ҳукмдорлар билан рус армияси қўмондонлиги ўртасида амалга оширилган сулҳга доир ҳужжатлар, тарихий шахсларнинг хотираларини қамрайди.

Рус босқинидан сўнг вужудга келган вазият, мустамлака сиёсатининг ўрнатилиши, вассаллик ситамлари, элчилик борди-келдилари ҳам қатор ҳужжатларда, эсдаликларда ўз ифодасини топади. Комил Хоразмий, Аҳмад Дониш ва бошқа элчиларнинг, шунингдек, амир Абдулаҳаднинг Петербургга қилган сафарлари ҳақидаги маълумотлар шулар жумласидандир.

Қўлёзма манбаларнинг учинчи туркуми мундарижасини бадиий асарлар: шеърлар, манзумалар ташкил этади. Рус истибдодидан сўнг у келтирган «маданият ва маърифат»ни улуғловчи асарлар махсус буюртмалар асосида ёзилганлиги маълум. Бироқ, юртнинг фидойи шоирлари босқинчиликни қоралаб, унинг мудҳиш оқибатларини

лаънатлаб шеърлар яратганлар. Жумладан, 1912 йилда Ғулом Ҳасан Орифжонов матбаасида XVI аср шоири Мушфикийнинг «Саду як банд» тўплами чоп этилган. Муҳими шундаки, тўпланда XIX аср иккинчи ярмида яшаб ижод этган қашқадарёлик шоир Ҳофиз Рўзибой Машраб ва Муҳаммад Амин Ҳўқондийларнинг рус истилосига доир манзумалари кўшиб берилган. «Ҳикмат» деб номланган ва шу асар охирида келтирилган шеърларда яссавийона руҳда босқинчиларнинг разил башараси, хотин-қизларга нисбатан қилган қабихликлари фош этилади.

Рус босқинчиларига қарши мардонавор курашиб ҳалок бўлган лашкарбоши Алимқул жасорати ҳақида 10 йил Сибирь бадарғасида бўлган ватанпарвар Мулло Ҳолбек ибн Мусо Андижоний дoston яратгандир.

Камина, Хаёлий, Носир, Таржимон сингари шоирларнинг асарларида ҳам рус босқини туфайли халқимиз бошига тушган кулфатлар ифода этилади. Бухоро амири, Ожиз тахаллуси билан шеърлар ёзган амир Абдулаҳад шеърларида ҳам ички афсус-надомат ишораси сезилиб туради. Шубҳасиз, ҳозирга қадар эълон қилинмаган, ўрганилмаган, аммо рус истилоси ҳақида бор ҳақиқатни бадиий гавдалантирган асарлар тарихий воқеликни холисона, бўёқларсиз идрок этишда муҳим манба бўлиб ҳисобланишга лойиқдир.

Айниқса, Туркистонда XIX аср иккинчи яримларида фаолият кўрсатган матбуот нашрлари, ватанпарвар зиёлилар, муаррихлар, олимлар, шоирларнинг юрт тақдири ҳақида катта қалб билан қайғуриб ёзган мақолалари, асарлари рус мус-тамлакачилигининг қабих моҳиятини, истиқлол учун олиб борилган тинимсиз курашларнинг қанчалик оғир кечганлиги

1- Mavzu: Podsho Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi olib borgan harbiy harakatlar

Reja

- 1.XIX asr 60 yillarida Buxoro amirligida xarbiy siyosiy vaziyat.
- 2.Amir qo'shinlarining mag'lubiyati, Buxoroning Rossiya vallasiga aylantirilishi.
- 3.Xiva xonligi xududlarining bosib olinishi,xonlikning Rossiya vassaliga aylantirilishi.

Asosiy adabiyotlar: 3,5,6,18,49,61,75,82,83

Qo'shimcha adabiyotlar: 84,85,87,88,93

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar: XIX asr 60 yillarida Buxoro amirligida xarbiy siyosiy vaziyat.Amir qo'shinlarining mag'lubiyati, Buxoroning

Rossiya vassaliga aylantirilishi. Xiva xonligi xududlarining bosib olinishi, xonlikning Rossiya vassaliga aylantirilishi.

Dars maqsadi: Talabalarga Chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi olib borgan xarbiy xarakatlar nomli mavzuning ob'ekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish, shuningdek turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan mavzuga doir berilgan ta'riflarni talabalarga tushuntirish, mavzuning dolzarb ekanligidan talabalarni boxabar etish.

Dars o'tish vositalari: (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug'atlar)

Dars o'tish usullari: Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o'zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o'tkazish, erkin fikrlash va so'zlashga o'rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o'tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga Chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi olib borgan xarbiy xarakatlar nomli mavzuning ob'ekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqyealarni tahlil etishga o'rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o'rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ **Darsning xrono kartasi – 80 minut.**

O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ **Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut**

❖ **Talabalar bilim darajasini aniqlash-8 minut**

❖ **Yangi mavzu bayoni – 50 minut**

❖ **Mavzuni o'zlashtirish darajasi – 7 minut**

❖ **sinov savollar namunasi – 10 minut**

❖ **Uyga vazifa berish – 3 minut**

Podsho Rossiyasining oldiniga Xiva xonligi keyin Qo'qon xonligi xududlariga qilgan xarbiy xarakatlari O'rta Osiyoni Rossiyaning tarkibiy qismiga aylantirish maqsadida amalga oshirilayotganligi xech kimga sir emas edi. Istilodan Buxoro amirligi xam chetda qolmasligi xammaga ayon edi. Shunday bo'lsada Qo'qon xonligi xududlari birin ketin bosib olinayotgan bir paytda birlashishi bir yoqadan bosh chiqarib xarakat qilish o'rniga, Xiva xoni xech narsadan xabari yo'qdek bir burchakda boshini ko'rpaga burkab turgan bo'lsa Buxoro amiri Muzaffar faoliyati, Qo'qon xonligining bosqinchilarga qarshi olib borilgan xarakatga katta ziyon keltirdi. Vaholanki o'sha davrda Turkiston ahlining umidi va ishonchi aynan Buxoroga bog'langan edi. Lekin amir Muzaffar o'zini bu vaqtda nihoyatda ojiz, kaltabin xukmdor sifatida ko'rsatdi va tuzatib bo'lmaydigan xatoliklarga yo'l qo'ydi. Avaz Muxammad Attor Xo'qandiyning «Tarixi Jaxonnomoiy» kitobida yozilishicha uning o'zbilarmonlik bilan kecha kunduz aysh ishratga berilib, xotinbozlik qilib, olamdan g'ofil va xatto o'zidan ketib qolib o'zini fravnu Namruz deb bilardi. Do'stni dushmandan farq etmas edi. Bular xam kamdek, amir qo'shin qudraini oshirish o'rniga zaiflashtiradigan

choralarni ko'rdi. Ahmad Donishning so'ziga ko'ra amir askarlarga berilayotgan maoshni 60tiyindan 20 tiyinga tushirdi. U xarbiy boshliqlar maoshini xam kamaytirdi. Amir urushda miltiq va zambarak tovushini eshitmagan kishilarni xarbiy lavozimlarga tayinlagan. Amir Muzaffar shu darajada qobiliyatsiz va ojiz bo'lganki raqobatdan qo'rqib o'z atrofiga bilimdon va kuchli kishilarni emas, aksincha nopok odamlarni to'plagan. U bunday kishilarga tayanib zulm jabrini kuchaytirib, xazinani to'ldirmoqchi bo'ladilar. Ishbilarmon va tajribali xukumat kishilarini jumladan xokimlarni ishdan olib uy joylari va mulklarini musodara qilib, o'zlarini badarg'a ga jo'natadi. Shu tarzda 200dan ortiq uy joylar davlat ixtiyoriga olindilndi. Xotinbozlik bolabozlik va aysh ishratga berilib, mamlakat ishlariga aralashmay xukumat boshqaruvini savodsiz, johil va zolim beklar, sipohlar va xushomadgo'y mullolarga topshiradi. Buxoro mamlakati tanazzuliga sabab bo'ldi. Fuqoroning ixlosi amirdan qaytdi – deb yozgan edi Ahmad Donish.

Amirning kaltafahmli shu darajaga bordiki, Rossiya Qo'qon xonligiga qanchalik qattiq zarba bersa, shunchalik ko'p mamnun bo'ldi. U dushman qo'li bilan Qo'qonni parchalab mintaqada o'z mavqyeini mustahkamlashni o'yladi xalos. Vaholanki Rossiya Qo'qondan keyin Buxoroni bo'ysindirishni rejalashtirganligi xech kimga sir emas edi. Kaltafxm amirgina buning fahmiga yetmay Qo'qonning asosiy kuchlari dushman bilan kurashayotganda xonlik xududlariga bostirib kirdi va Qo'qonni ikki frontda jang qilishga majbur qildi. Xalq amirning ishlaridan shu qadar norozi Ediki Buxorodagi amir saroyi olomon tomonidan qurshab olinib toshbo'ron qilingan edi. Bu vaqtda Buxoroga qarab yo'lga chiqqan amir shaxarga kirishdan cho'chib Fijduvonda to'xtashga majbur bo'lgan edi.

Gen. Chernyayev Toshkent ostonalarida jang qilayotganlarida amirga maktub yo'llab, xonlikning yarmi Rossiya tomonidan egallanganligini, uning janubiy qismiga amir Xudoyorxonni taxtga o'tqazib u orqali boshqarishga Rossiya qarshi emasligini bildirib xat yozadi. Maqsab amirni chalg'itish uning etiborini Toshkentdan Qo'qonga qaratish bo'lgan. Maktub amirga yetib kelmagan bo'lsada uning xatti xarakatlari xudi maktubda yozilganiday bo'ldi. Amir Xo'jandni egalladi va Qo'qon taxtiga Xudoyorxonni o'tqazdi. Shunday qilib gen. Chernyayev amir Muzaffarni chalg'itishga Qo'qon xonligini ittifoqchilaridakn maxrum qilibgina qolmay uni ikki frontda jang qilishga majbur qilishga muvoffaq bo'ldi.. Amirning bu xarakatlari xalq g'azabini qo'zg'adi va Buxorodagi ichki vaziyatni keskinlashtirdi. Vatanparvar kuchlardan iborat muxolifatning shakllanish jarayoni aynan shu vaqtdan boshlanadi.

O'rta Osiyodagi asosiy raqibi bo'lgan Qo'qon xonligining kuchsizlanganligi natijasida xududning eng qudratli mamlakatiga aylanganligiga ishongan amir Rossiya bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalari o'rnatishga ishonar edi. U 1865 yilda Najmiddinxo'ja boshliq elchilarni Sank Petrburgga jo'natib vujudga kelgan ayrim kelishmovchiliklarni bartaraf qilmoqchi bo'ladi. Ilgari Buxoro elchilari Sank Petrburgda eng aziz mehmonlar sifatida qabul qilinar edi. Ruslar Buxoroning bu xududdagi roli va mavqyeini yaxshi tushunar va shunga yarasha muomala qilar edi. Endilikda esa Rossiya o'z mavqyeini O'rta Osiyoda juda kuchaytirishga muvoffaq bo'lgan edi. Endilikda Buxoro bilan xisoblashmasa xam bo'lar edi.

Buning ustiga Rossiya davlati Buxorga xujum qilishni allaqachon rejalashtirib qo'ygan edi. Shu sababli Buxoro elchilari Sank Pitrburgga qo'yilmay Orenburgda ushlab qolinadi. Bunga javoban amir Muzffar Chernyayev elchilarini qamoqqa oladi va Chernyayevning ularni ozod qilish haqidagi talabiga, rus elchilarining imperator bilan uchrashtirsagina ozod qilishni bildirdi. Elchilarning qamoqqa olinishi gen. Chernyayevning amirlikka qarshi xarbiy xarakatlar boshlashga baxona bo'ldi.

Elon qilinmagan bu urush 1866 yil yanvar oyida boshlandi. Chernyayev qo'shinlari Jizzax tomon yurish qildilar. Bu xabarni eshitgan Muzaffar o'zi taxtga o'tqazgan Xudoyorxonga ruslar yo'lini to'sishni buyuradi. Xudoyorxon esa ruslardan qo'rqib bu farmonni bajarmadi.

Amir iqo'shinlarining qurollanishi Qo'qon qo'shinlarinikiday bo'lgan. Ruslarning zamonaviy qurollarga ega bo'lgani ko'p jixatdan urush taqdirini xal qildi. Rus zobiti M. Zinovyevning guvohlik berishicha «Ularning (yani amir sarbozlarining) o'qi, ayrim istisnoli xollarda bo'lmasa, deyarli qo'rg'oshin yalatilgan toshchalarga o'xshaydi. Qo'rg'oshinning qimmatliligi yaxlit o'qlardan foydalanishga imkon bermadi».

O'zbek xonlari bugun bo'lmasa ertaga ruslar bilan to'qnashishlarini yaxshi bilganlar. Lekin o'zaro urushlar bilan band bo'lganlari sababli qo'shin Yangi qurollar qurollantirishga mablag' topa olmaganlar. Amirlik qo'shinining asosini----- (og'ir qurollangan otliq askarlar) va galabotirlar (piyoda sarbozlar) tashkil qilganlar. Piyoda sarbozlar, odatda tinch sharoitda uylarda yashar, xaftada 4 kun (charshanba va jumadan tashqari) erta tongda eshak bilan Buxoroga kelar va uch to'rt soatlik mashqlarda qatnashib, Yana qaytib ketardi. To'pchiboshi lashkar qo'shinning bosh qo'mondoni hisoblangan.

Gen. Chernyayev Jizzaxni osonlik bilan zabt etishga ishongan edi. Lekin Jizzax ximoyachilari 8-9 ming kishidan oshiq bo'lmasa xam ruslarga qaqshatgich zarba beradilar va mag'lubiyatga uchratadilar. Gen. Chernyayev bu yurishni Sank Petrburgdan ruxsat olmasdan boshlagan edi. Uning bu o'zboshimchaligi ruslar obro'sini tushiradigan mag'lubiyatga olib kelganligi sababli egallab turgan vazifasidan ozod etiladi. Uning o'rniga gen. Raionovski tayinlanadi. Lekin ruslarning xududdagi bosqinchilik siyosatida o'zgarish bo'lmadi. Muzaffar yordam so'rab o'z elchilarini Hindistonga inglizlarning vakili Jon Lourens xuzuriga va Istanbulga yuboradi. 1842 yilda o'z elchilarining qatl etilganligini bahona qilib rad javobini beradilar va turk sultoniga xam shunday javob berishini maslahat beradi.

Buxoro madrasalari talabalari junbushga kelib g'azot elon qilishni amirdan talab qiladilar. Maishatga aysh ishratga berilgan amir o'z turmush tarzini ana shunday og'ir kunlarda ham o'zgartirmadi. Ruslarning Sirdaryo dashtlariga chiqqanini eshitgan amir 30000 kishilik qo'shinni Olloyor yevonbegi qo'mondonligida jangovor marrani egallash uchun dushman qarshisiga yuboradi. O'zi esa Ollyorning 10 yashar qizini xaramiga keltirishni buyuradi. Ertasiga bu qizning so'yilgan murdasi topiladi. Bu mudxish xabarni eshitgan Ollyor jang maydonini qarshiliksiz ruslarga bo'shatib chekinadi. U o'zicha amirdan o'ch oldim deb o'ylaydi. Lekin afsuski uning bu ishi yurt taqdirida salbiy rol o'ynadi.

Chekinayotgan qo'shinga ruslar kutilmaganda xujum qilib uni to'zg'itib yuboradilar. O'ratepa bilan Jizzax o'rtasida qarorgoh qurgan amir qo'shinni tashlab qochadi. Erjarda qozonilgan bu qalaba ruslarga xo'jandni qamal qilish imkonini beradi. Shaxar aholisi dushmanga qarshi qaxramonlarcha kurashadi. Lekin bir gurux xoinlar shaxar darvozalarini ochib berganlari sababli ruslar shaxarni egallashga muvoffaq bo'ladilar. Shaxar aholisi ruslar shaxarni bosib olganlariga qaramay qarshilik ko'rsatishni davom ettiradilar. Ruslar 1200 kishi shaxarliklar 2600 kishi talofat ko'radilar. Xo'jand 1866 yil 17 mayda egallangan edi. Navbatdagi jang O'ratepada bo'ladi. 1866 yil 2 oktyabrda boshlangan jangda 30000 amir qo'shinidan yarmi xalok bo'ladi. Lekin dushman to'xtalib mag'lubiyatga uchratiladi. Ertasi kuni yangidan yetib kelgan kuchlarni janga tashlagan ruslar shaxarni egallashga muvoffaq bo'ladilar. Shundan keyin navbat Jizzaxga keladi. Ruslar uni 11 oktyabrdan etiboran qurshovga oladilar. Jang 5 kun davom etadi. Ruslar xech yerda bunchalik qattiq mudofaaga duch kelmagan edi. Ximoyachilardan bir guruxi dushman ustunlikka erishgach taslim bo'lishdan ko'ra o'zlarini portlatishni afzal ko'rganlarini rus tarixchilaridan biri yozgan edi. Anna shunday bir vaziyatda Qo'qon xoni Xudoyorxon xoinona xarakatlar qiladi. U xatto gen. Romanovskiye ga Xo'jand va Jizzaxni egallagani munosabati bilan tadjik telegrammasi jo'natgan edi. Unda u 35000 qo'shini bo'lsada turli bahonalar qilib Buxoroliklarga yordam bermaganini yozadi. Gen. Ramanovskiy etiroficha Jizzax mudofaasi vaqtida 2000 kishi o'ldiriladi, 2000 kishi asirga olinadi.

Yangi istilochilik yurishlari gen. Fon Kaufman nomi bilan bog'liq. Rus qo'shinlari 1868 yil aprelida Samarqand tomon yo'lga chiqadilar. Shu vaqtda Samarqand xokimi bo'lgan Sherali inoq o'zining zolimligi bilan aholining joniga tekkan edi. Shaxarliklar amirga murojaat qilib xokimni almashtirishni so'raydilar. Amir xokimga ishonch bildirib bu iltimosni inobatga olmaydi. Bundan yanada kiborlangan Sherali jabr zulmi yanada avj oldiradi. U xatto Samarqandda turgan shaxzoda Abdumalik to'ra nazoratidan qutilish uchun amirni go'yo taxtga davogarlik qilayapti deb ishontirishga xarakat qiladi. Shaxar oqsaqollari zulmning kuchayganligidan achchiqlanib ruslarga murojaat qilib o'z panohlariga olishni so'raydilar. Bu Kaufmanga qo'l keladi va Samarqand yurishi uchun baxona bo'ladi. O'sha vaqtda amirning 16500 sarbozi bor edi. Ular Cho'ponota tepaligida mudofaada turgan edilar. Tepalikda 40 ta to'p o'rnatilgan edi. 1868 yil 1 maydagi jang tafsilotlari manbalarda yaxshi aks ettirilmagan. Xarbiy axborotlarda Cho'ponotadagi jangdan so'ng 2 may Samarqand jangsiz egallanadi. 1868 yil 2 mayda Samarqand sotqinlaridan bir guruxi Kaufman xuzuriga kelib shaxarni topshiradilar va ruslarning tuz bilan shaxar darvozasi oldida kutib oladilar. Aytishlaricha Samarqandning qo'ldan ketganligini eshitgan amir yig'lab yuborib «Xudo meni Samarqanddan maxrum qilganidan ko'ra jonimni olgani yaxshi edi» deb aytgan ekan. Samarqand egallangach Kaufman sulh tuzishni taklif qiladi. Unga ko'ra Samarqand Rossiya tarkibiga Kirishi kerak edi. Mamlakat aholisining dushmanga qarshi kurashish kayfiyatini hisobga olgan amir yangidan kuch to'playdi. 21000 kishidan iborat bo'lgan qo'in Zirabuloq tepaligida o'rtnashadi. Amir qo'shinlari jangda dastlab ustun kela boshlaydilar. Lekin jang avjga chiqqan bir vaqtda asli rus bo'lib musulmonlikni qabul qilgan va oliy martabali

lashkarboshilik lavozimini olgan Usmon to'qsabo chekinish karnayini chalib o'z lashkarini orqaga qaytaradi. Urush taqdirini ana shu xoinlik va ruslarning zamonaviy quroli hal qiladi. Ularning soni 2000dan oshmagan bo'lsada texnik ustunlik xal qiluvchi omil bo'ldi.

Zirabuloqdagi mag'lubiyat, amirning Qizilqumga qochgani Samarqandda kuchli aks sado berdi. Qarshi va Fuzor xam junbushga keldi. Bu xududdagi vatanparvarlar Abdumalik to'ra atrofida to'planadi. Tez orada amir qo'ygan xokimlar Xisor, Sherobod, Denov, Ko'lob tumanlarida ag'darilib Abdumalik to'ra tarafdorlari tayinlandilar. Shaxrisabz xokimi Xakimbiy, Kitob xokimi Jo'rabeklar xam g'azotga davat qildilar va Abdumalik to'ra tarafiga o'tdilar. Abdumalik to'ra atrofida to'plangan kuch Zirabuloq jangi vaqtida Samarqandni qamal qiladi. Kaufman malumotiga ko'ra qamal qilganlarning miqdori 50000 kishi bo'lgan. Bu xabar ruslardan ko'ra i amirning ko'proq tashvishga soldi. U Kaufmanga sulh tuzishni taklif qiladi. Tuzilgan sulh qamal ishtioqchilarining ruhini tushiradi. Ayrim beklar xatto o'z qo'shinlari bilan Samarqandni tark etadilar.

Amir Muzaffar Qarshi va Fuzorlikni jazolash uchun bu xududga qo'shin tortadi. Maqsadiga erisha olmagach ruslardan yordam so'raydi. Gen. Abramov yordamida 28 iyunida Qarshi egallanadi va ruslar uni Yana amirga topshiradilar.

Bundan bir oycha oldin 1-8 iyun kunlari Samarqand mudofasi nomi bilan mashhur qo'zg'alon bo'lgan edi. Shaxrizabzliko'ar Samarqandni qamal qilib xujum qilganlarida ularga Samarqandliklar xayrixoxlik qilib yordam berganlar. Qashqadaryo vohasidan kelganlar qamalni to'xtatib chekinganlaridan so'ng Kaufman buyrug'i bilan shaxar to'pga tutiladi va axolii qirg'in qilinadi. Ayollar, go'daklar, qariyalarni xam ayamadan maxalliy millatga mansub bo'lganlari uchungina qirib tashlaganlar. Ruslarga berilgan 400 kishilik talofat uchun 49000 ming Samarqandlik o'ldiriladi. Uylar, machitlar, madrasalar kuydiriladi vayronaga aylantiriladi. Qo'shin aholini talashga xam ruxsat oladi. Jazava otiga mingan Kaufman faqat bir gapni, yani, otib tashlansin degan gapni kun bo'yi takror va takror aytib yurganligini Verashagin takidlagan edi.

«Ruslarni yengsam oq otda Petrburgga kirib boraman» deb maqtangan amir Muzaffar 1868 yil 23 iyunda gen. Kaufman bilan sulh tuzib Rossiyaning vassaliga aylanadi. Sulhga ko'ra Buxoro o'z mustaqilligini yo'qotadi. Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshonning yuqori qismidagi yerlardan ajraladi. 500000 rubl tovon puli to'laydi. Xorijiy davlatlar bilan mustaqil aloqa o'rnatmaslik majburiyatini oladi. Ruslarning amirlikda erkin savdo qilishlarga do'kon va karvonsaroylar qurishlariga rozi bo'ladilar.

Sulxdan norozi bo'lganlar Abdumalik to'ra atrofida to'planib qo'zg'alon ko'taradilar. Amir qo'zg'alonni faqat ruslar yordamidagina bostirishga muvoffaq bo'ladi. Abdumalik to'ra oldin Xiva keyin Afg'oniston amiri Sherali, Qo'qon xoni Xudoyor, Qashqar xukmdori Yoqubbek xuzurlariga bori yordam so'raydilar. Lekin ulardan birortasi xam yordam berish imkoniyati yo'q edi. Abdumalik to'ra panoh izlab Angliyaga tegishli Hindistonga boradi va Peshovar shaxrida qo'nim topadi vash u yerda 1909 yilda olamdan o'tadi.

Buxoro bo'ysindirilgach mustamlakachilarga havf solishi mumkun bo'lgan yagona Xiva xonligini bosib olishga tayorgarlik ko'рила boshlanadi. Ruslar Xiva xoni qozoqlarning milliy ozodlik xarakati rahbari Kenesari Qosimovga, Abdumalik to'raga madad berayotganligini yaxshi bilganlar. Bundan tashqari Turkiston ududlarini Rossiyaning, Kavkaz Quyi Volga bo'yi xududlari bilan bog'lovchi eng yaqin yo'llar Xiva xonligi orqali o'tganligi xam etiborga olinadi. 1871 yilning oxirida Sank petrburgda bo'lgan kengashda Xiva xonligini bosib olish xaqida qaror qabul qilinadi. Rejaga ko'ra Xiva xonligiga Orenburg va Kavkaz gubernatorligi ixtiyoridagi qo'shinlar Shimoliy g'arb va g'arbdan Turkiston general gubernatorligi qo'shinlari Sharqdan bostirib kirishlari lozim edi. Xon Rossiyaning bu tajavuzkorona niyatidan yaxshi xabardor edi. Shuning uchun u Angliyaning Hindistondagi visi qiroli huzuriga elchi yuborib, undan i yordam so'ragan edi. Lekin Angliya Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan manfaatdor emas edi vash u sababli yordam Bera olmaganligini bildirdi.

Xiva endilikda faqat o'zigagina ishonishi mumkun edi. O'sha vaqtda xon ixtiyorida 2000 otliq, 4000ta piyoda Askar va 27ta eski zambarak bor edi. Uch yo'nalishdan bostirib kirgan rus qo'shini tarkibida 49 rota, 3200 kazak, 34ta to'p bor edi. Rus qo'shini son jixatidan xam, texnik jixatidan xam katta ustunlikka ega edi. Bundan tashqari Orol flotiliyasi xam ular ixtiyorida edi. Buyuk knyazlardan Nikolay, Konstantin va Yevgeniylarning xarbiy qismlarga qo'mondon qilib tayinlanganligi xam Rossiyaning Xiva istilosia katta etibor berganligini ko'rsatadi. Gen. Fon Kaufman yurish oldidan Xivani yakkalab qo'yish choralarini ko'rdi. U Buxoro amiri va Qo'qon xoniga tahdidli maktublar yo'llab ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqirdi.

Shunday bo'lsada ular Rossiyani ikki marta mag'lubiyatga uchratgan Xivadan juda hayiqishgan.

Asosan o'zbek va turkmanlardan iborat Xiva qo'shini jasorat bilan jang qiladi. Dushmanga qarshi pistirmalar uyushtirib to'satdan qilingan xujumlardan ruslar katta talofatlar ko'radilar. Ruslar yo'lda uchragan xar bir shaxa rva qishloqni talab uylarga o't qo'yadilar. Ularning ketidan kltepalar va jasadlar qoldi.

1873 yil 29 may ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar. Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay muzokaralar boshlashni taklif qildi. Ammo fon Kaufman bu taklifni etiborsiz qoldirib xujumga o'tdi. Shaxar aholi va askarlar tomonidan mardonavor ximoya qilinsada uni saqlab qolishning iloji yo'qligini yaxshi tushungan Muxammad Raximxon II shaxardan chiqib turkman o'tovlari sari yo'l oldi. Ana shunday qaltis bir vaziyatda bir yoqadan bosh chiqarib xarakat qilish o'rniga xonning inisi ruslar bilan kelishish uchun o'z tashabbusi bilan muzokaralar boshlaydi. Gen. Kaufman ularga faqat xon bilan sulh tuzishni aytadi. Shaxardagi xon qarindoshlari, amaldorlar shaxarni ruslarga topshirishga qaror qiladilar va 1873 yil 29 mayda ruslar Xivani egallaydi. Kaufman t aklifi bilan Muxammad Raximxon II 2 iyunda Xivaga qaytadi va Gandumkondagi Kaufman qarorgoxida u bilan uchrashadi.

Xivaga kirgan ruslar aholini xon saroyini talab behisob boyliklarni Rossiyaga olib ketdilar. Faqat Qadimiy qo'lyozmalarning o'zigina 300dan ortiq bo'lgan.

Tuzilgan shartnomaga ko'ra xon o'zini imperatorni itoatli xizmatkori deb tan oladi Xiva xonligi mamuriyatiningruxsatisiz shartnomalar tuzmaslik , Amudaryoning o'ng qirg'og'i Rossiya ixtiyoriga o'tishi, rus kemalarining Amudaryoda bemalol suzishi , xonlikning barcha shaxarlari rus savdogarlari uchun ochiq bo'lishi , ularning barcha bojlardan ozod etilishi , rus fuqorolariga xonlikda ko'chmas mulk sotib olishga ruxsat berilganligi, Rossiyadan o'zboshimchalik bilan kelganlarni qabul qilmaslik, rus jinoyatchilarini Rossiya mamuriyatiga topshirish, 20 yil davomida 2 mln so'm tovon to'lash majburiyatlarini o'z bo'yniga oladi . Bunday og'ir majburiyatlar qashshoq xalqning ahvolini yanada yomonlashtiradi

2-Mavzu. XIX asrda Buxoro va Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalari.

Reja

1. XIX asrda Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalari

2. XIX asrda Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari

Asosiy adabiyotlar: 3,5,6,18,49,61,75,82,83

Qo'shimcha adabiyotlar: 84,85,87,88,93

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar: Soliqlar, tranzit savdo, turkman qabilalari.Pospelov va Burnashev ekspeditsiyasi, Gabaydulla Amirov, A.F.Negri ekspeditsiyasi, , ingliz ekspeditsiyalari, maxfiy elchiliklar, N.V.Ханыков ekspeditsiyasi, karvon-saroy, hind savdogarlari faoliyati, "Buxoro masalasi", rus-ingliz raqobati.

Dars maqsadi: Talabalarga XIX asrda Buxoro va Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalari nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish, shuningdek turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan mavzuga doir berilgan ta'riflarni talabalarga tushuntirish, mavzuning dolzarb ekanligidan talabalarni boxabar etish.

Dars o'tish vositalari: (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug'atlar)

Dars o'tish usullari: Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o'zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o'tkazish, erkin fikrlash va so'zlashga o'rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o'tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga XIX asrda Buxoro va Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalari nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqyealarni tahlil etishga o'rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o'rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – 80 minut.

O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

- ❖ **Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut**
- ❖ **Talabalar bilim darajasini aniqlash-8 minut**
- ❖ **Yangi mavzu bayoni – 50 minut**
- ❖ **Mavzuni o'zlashtirish darajasi – 7 minut**
- ❖ **sinov savollar namunasi – 10 minut**
- ❖ **Uyga vazifa berish – 3 minut**

XIX asr Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan aloqalarini o'rganishda yangi bosqich hisoblanadi. Rus tadqiqotchi olimlari, chinovnik ofiserlari va sayyohlari yangi ma'lumotlar to'play boshlaydi. Jumladan, 1800 yili Toshkentga rus ofiserlari Pospelov bilan Burnashevning ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Ular Pavel I ning topshirig'iga binoan O'rta Osiyo xududini o'rganishi kerak edi. Ular Toshkentni va uning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rganishga katta ahamiyat bergan. Pospelov va Burnashevlarning ma'lumotlariga ko'ra, toshkentliklar Buxoro, Rossiya, Xitoy, Eron va Hindistondan keltirilgan ko'p mollarni sotib olganlar.

Buxoroning qo'shni davlatlari bilan aloqalari tarixi XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida 30 yildan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan Gabaydulla Amirov tomonidan ham yozib qoldirilgan. Uning ko'rsatmalari 1825 yil «Aziatskiy Vestnik» jurnalida nashr qilingan. G.Amirovning ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonning Jaynagar va Xaydarobod shaharlariga Buxoro va Kobul mollari qatori rus tovarlari ham keltirilgan².

Buxoroning tashqi savdo aloqalarida, uning ko'shnilari Marv va Hirot aholisi alohida rol o'ynagan. Buxorolik savdogarlar Marvga har xil rus tovarlarini olib kelgan. Rus tovarlari Buxoro orqali Hirot bozorlariga ham olib borilgan. G.Amirovning Buxoroning savdo ahamiyati to'g'risidagi fikrlarini Mulla Alim Mahmudning «Tarixi Turkiston» asari ham tasdiqlaydi. Muallif bu asarda Buxoroni o'z davrining muhim savdo markazi bo'lganligini ta'kidlagan.

G.Amirov Kobul shahrining Buxoro-Afg'oniston savdosidagi muhim markaz ekanligi haqida yozib, bozorlarida 4 ta karvon-saroy, ularda hindistonlik, kashmirlik, eronlik va buxorolik savdogarlar to'xtashgan, deb ma'lumot beradi.

Sayohatchi Hindistonda bo'lgan vaqtda uning savdosi bilan yaqindan tanishgan. Uning yozishicha, Xaydarobodda ipak va paxtadan juda chiroyli matolar to'qilib, ular Kobul, Qandaxar, Hirot va Buxorogacha olib borib sotilgan. Sayyoh Jaynagarni muhim savdo shahri deb baholaydi. U shahar bozorida eron, afg'on, Buxoro va qisman rus tovarlari sotilayotganligini ko'rgan. Ma'lumki, rus savdogarlari O'rta Osiyo va boshqa Sharq bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Ammo o'rtaosiyolik, afg'on, eron, hind savdogarlarining vositachiligi orqali rus tovarlari O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlariga olib borilgan. Amirov Kashmir savdosi haqida «Kashmirda 12 ming dastgoh bo'lib, unda 100000 shol ro'moli to'qiladi, undan 60000 Hindistonga,

² Amirov Г. Странствование Габайдуллы Амирова по Азии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6. С.110.

12000 Eron, Turkiya va boshqa joylarga, 3000 Buxoro va Rossiyaga jo'natishga mo'ljallangan, 20000 ni aholi sotib olgan, deb yozadi¹.

Biz uchun Ye.K.Meyendorfnining asari muhim ahamiyatga ega. XIX asrning 20—yillarida Chor Rossiyasi Buxoro amirligiga o'z ekspeditsiyasini yuboradi. 1820-1821 yillardagi A.F.Negri boshchiligidagi ekspeditsiya tarkibida tabiatshunos Ye.K.Meyendorf ham bo'lgan. U sayohati mahsuli sifatida 1826 yilda «Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru» deb nomlangan kitobini nashr qildirgan. Asarda ko'proq Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan. U Buxoroni savdo-sotig'i rivojlangan, Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan doimiy qizg'in savdo aloqalarida bo'lgan, aholisi zich joylashgan shahar, deb hisoblagan.

U Buxoroda bo'lganida 14 ta karvon saroy mavjudligini aniqlagan. Ular Abdullajon, Qushbegi, Hind, Nug'oy, Xo'ja Jo'ybor, Toshkent, Qarshi, Miragul, Amir, Kullota, Fishana, Dankulla-Shir va Urganch nomlari bilan atalgan². XVIII asrning 70 yillarida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 40 yillarida N.V.Ханыков davriga kelib ularning soni 24 ta g'isht va 14 ta cho'pqori karvon-saroyga yetgan³. Karvon-saroylarning yetishmaganligi sababli katta timlar qurila boshlangan.

Buxoroning qishloq xo'jaligi xususida yozib, Buxoro paxtasining kattagina qismi eksport qilinganligi bois paxta yetishtirish masalasiga alohida ahamiyat berilishini ta'kidlagan. U Kobulda g'o'za o'simligi yaxshi o'smasligi sababli paxta Kobulga Buxorodan keltirilishini, lekin Rossiyaga undan ham ko'p miqdorda chiqarilishini eslatib o'tgan.

Meyendorf Buxoro bozorlari rastasida hind parchasi va ip gazlama matolari borligini eslatadi. Buxoroga Hindistondan guruch, qimmatbaho toshlar va yupqa shamshir keltirilgan. U Buxoroning afg'on savdogarlari orqali Kashmir bilan olib borgan savdosi to'g'risida yozadi. Ular Kashmirdan shol va zar iplardan to'qilgan movut olib kelganlari haqida yozadi. Meyendorf hindlar o'z tovarlari bilan Kabul, Shikarpur, Multon va umuman Hindistondan keladilar, deb yozadi. Ular kashmir sholi, zar ip bilan to'qilgan ipak matolar, yupqa ip matolar, salla uchun ishlatiladigan oq mato va astarlik uchun ishlatiladigan gulli mato, mayda dur va qimmatbaho toshlar, nil bo'yog'i keltirgan⁴.

Meyendorfnining ma'lumotlari orasida Buxoroning Eron bilan savdo aloqalari haqidagi fikri diqqatga sazavordir. U Buxoroda feruza va parcha matolari bilan savdo qilgan eronlik savdogarlarni ko'rgan. Buxoroliklar Eronga paxta, ipak matolar, movut, qalampir munchoq, ravoch va rus tovarlari olib borgan. U Buxoro qand unini Eron, Afg'oniston va asosan Peshavor orqali oladi, deb ta'kidlaydi. Shu mamlakatlardan salla uchun shol matolari, sariq kamar, gilam va feruza keltiradi. Shu xildagi savdoni davom ettirish uchun buxoroliklarga har yili 600 ta tuya kerak

¹ Амиров Г. Ўша асар. 249 б.

² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.100.

³ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.88-89.

⁴ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.42.

bo'ladi. Bu savdo Buxoro uchun Rossiya va Qashg'ardan keyingi darajada turganligini Meyendorf ta'kidlab o'tgan edi⁵.

Asarda Buxoroning Afg'oniston bilan savdo aloqalari ikkita savdo yo'li orqali olib borilishi xususida fikr bildirilgan. Birinchisi, Balx orqali Kobulga, ikkinchisi esa Buxorodan Hirotga boradigan yo'l bo'lgan. Afg'oniston Buxoroga eng yaqin mamlakat bo'lganligi sababli uzoq yillardan buyon bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari doimiy davom etib turgan. Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, bir savdogar Buxorodan Kobulga 30 marta borgan ekan. Uning yozishicha, afg'onlar Buxoroga o'zlarining tovarlarini va tranzit yo'li bilan kashmir sholi matosini olib kelgan. Shunday qilib, Meyendorf keltirgan dalillar XIX asrning 20-yillarida ham Buxoro xonligining Afg'oniston, Hindiston, Kashmir va Eron bilan jadal savdo aloqalarida bo'lib turganligini tasdiqlaydi. Jumladan, keyingi to'rt-besh yilda Buxoroda hindlar soni juda tez ko'payib ketib 300 taga yetga, ularning bir qismi muqim o'rnatilib olgan bo'lsa, qolgan qismi esa Kobulga borib kelib turadi¹. Buxoroda taxminan 4000 afg'onlar bo'lib, ularning bir qismi savdo bilan shug'ullangan. Eronliklar esa 40000 kishi bo'lib, ularning aksariyat ko'pchiligi qullar bo'lgan².

Buxoro xonligi haqidagi muhim ma'lumotlar A.F.Negri ekspeditsiyasining vakili E.Eversman tomonidan ham to'plangan. Uning kitobida Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yaxshi aks ettirilgan. Eversman ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Rossiyaning bir qator shaharlari: Troisk, Orsk, Orenburg, Astraxan, va boshqa Sharq davlatlari: Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kashmir bilan savdo aloqalari o'rnatgan. Muallif Rossiyadan Buxoroga keltirilgan tovarlarni sanab o'tadi. U Erondan 500 ta tuyada ipak va jun kiyimlari, shol, ro'mollar va boshqa tovarlar keltirilishini xabar qiladi³.

Kashmir va Kobuldan Buxoroga asosan, kashmir sholi, hindlarning gulli ip matolari, zar ip bilan to'qilgan gulli oliy navli ipak kiyimlar va nil bo'yog'i keltirilgan. Eversman ma'lumotlariga ko'ra, Kashmirdan har yili 40000 shol olib chiqilgan, ulardan Buxoroga faqat 3000 tasi keltirilgan⁴. Eversman Meyendorf kabi Buxoroni Osiyo tranzit savdosining muhim markazi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab o'tadi. U ham Meyendorf kabi Buxoro shahrida mavjud bo'lgan karvon-saroylar xususida fikr bildirgan. Masalan: hind karvon-saroyida hindlar, xitoy karvon-saroyida qo'qonlik va qashg'arlik savdogarlar, tatar karvon-saroyida tatarlar yashaganligi haqida ma'lumot bergan.

Muallif o'z e'tiborini Buxorodagi qimmatbaho toshlar savdosiga qaratgan. U yerda asosan feruza, la'l, siyohrang gilvata, silliqlangan karneollar, lazurit sotilgan. Lazurit Buxoroda xonalarni bo'yashda bo'yoq sifatida ishlatilgan⁵.

Eversman, Buxoroga Erondan ishlanmagan feruza keltirilib, Buxoroda silliqlanganligi, Badaxshondan — lazurit va gilvata keltirilganligini yozadi.

⁵ Мейендорф Е.К. Ўша асар. 130 б.

¹ Мейендорф Е.К. Ўша асар. 98 б.

² Ўша асар. 106 б.

³ Эверсман Э. Рейсе вон Оренбург насх Бухара. Берлин. 1823.

⁴ Эверсман Э. Ўша асар. 77 б.

⁵ Эверсман Э. Ўша асар. 74 б.

Buxoroda ishlov berilmagan lazurit narxi, hajmiga qarab 20 dan 40 golland dukatigacha narxda sotilgan.

Negri missiyasining yana boshqa bir ishtirokchisi Budrin bo'lib, uning asari 1871 yil Sankt — Peterburgda nashr qilingan. Unda XIX asrning birinchi choragida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan. Budrin asarida Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, Buxoroda 13 ta karvon—saroy bo'lib, unda hindlar, xivaliklar, nug'oylar, eronliklar, armanlar, qirg'izlar va boshqalar yashagan.

Budrin ma'lumotiga ko'ra, Buxoroda savdo ishlari past darajada bo'lgan. Bu yerdagi savdoda aldash va firibgarlik ishlatilgan. U jazo turlarining qattikligiga qaramay, savdogarlarni haq deb bo'lmaydi, deb yozadi. Agar xaridorga xarid qilingan tovar yoqmay qolsa, bir necha haftadan so'ng qaytarib olib kelsa, savdogar qaytib olishi kerak bo'lgan⁶.

Budrinning fikricha, hukumatning e'tiborsizligi Buxoro savdosining rivojlanishiga to'siq bo'lgan. U, hukumat faqat tovarlardan boj solig'i yig'ishni o'z vazifasi deb bilgan, savdogarlarni himoya qilmagan va uni o'z vazifasi deb hisoblamagan, deydi

Budrin, Hindiston, Eron va Rossiyaning Buxoro savdosidagi rolini alohida ta'kidlaydi. Lekin Buxoroga keltirilayotgan va u yerdan olib ketilayotgan tovarlarning tarkibiga to'xtalmagan. U o'z e'tiborini asosan tog' ishlariga qaratgan. Buxoroliklar Hindiston, Eron va Xitoydan oltin, kumush, mis, qalay va temir olgan⁶. Hindistondan chit keltirilgan bo'lib, u salla uchun ishlatilgan⁷.

Shunday qilib, A.F.Negri elchiligining Buxoroga kelishi, amirlikning sharq davlatlari bilan savdosi haqidagi bir qancha asarlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bu asarlar XIX asr boshlaridagi ilmiy tadqiqot ishlariga asos bo'ldi. Ye.K.Meyendorfning asari fransuz tilida nashr qilinganidan keyin bu asar parchalarining rus tilidagi tarjimalari paydo bo'la boshladi. Bu nashrlarning muallifi G.I.Spasskiy (1783-1864) edi. Spasskiy 1825-1827 yillarda Peterburgda «Aziatskiy vestnik» jurnalini nashrdan chiqaradi. Jurnalda uning sharqshunoslikka bag'ishlangan bir necha maqolalari ham chop qilinadi. Ular Meyendorfning «Noveysheye opisaniye Velikoy Buxarii» asarining bo'laklari edi¹. Spasskiy e'tiborini O'rta Osiyoning Hindiston va Eron bilan savdo aloqalariga qaratgan. U jumladan, bunday yozadi, «Poytaxt Buxoroda savdo qilish uchun Shikarpur va Sinddan kelgan 200 nafar hindlar, hamda Multon va Panjobdan kelgan 50 sikhlar yashaydilar»².

Ye.K.Meyendorf Buxoroda 300 nafar hind savdogarlari savdo qilganligini aniqlagan bo'lsa, Spasskiy esa ular 250 ta edi deb yozadi. Meyendorf asari

⁶ Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записка очевидца) //Туркестанский сборник. Т.239. СПб., 1880. С..32.

⁶ Будрин. Ўша асар. 30 б.

⁷ Будрин. Ўша асар. 35 б.

¹ Новейшее описание Великой Бухарии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6.

² Ўша асар. № 1. 306 б.

asosida Spasskiy «Kratkoye opisaniye Buxary i Xivy» va «O нынешнем sostoyanii некоторых областей i городов v Sredney Azii» asarlarini yozgan³.

Meyendorfnings asari asosida A.Kamenskiy o'zining «Statisticheskiy vzglyad na Buxariyu» va «Nravstvennoye sostoyaniye Buxarii» nomli maqolalarini «Северный архив» jurnalida nashrdan chiqargan⁴.

Buxoroning xalqaro savdodagi roliga A.F.Negri elchiligining boshqa vakillari ham muhim ahamiyat bergan edi. Elchilik vakillaridan biri o'z xatida shaharning yarmi karvon — saroylardan, bozor va do'konlardan iborat, turli millat savdogarlarining bu yerga intilishi Buxoroning savdo markazi ekanligidan dalolat beradi, deb yozgan edi⁵. Ma'lumki, bu savdo munosabatlari qaroqchilarning bosqinchiliklari natijasida qiyinchilikka duchor bo'lar edi. Buxoro hukumati bu hodisalarni bartaraf qilish uchun hyech qanday chora ko'rmas edi. Yuqoridagi xatda ta'kidlanganidek, "yaqinda qaroqchilar Erondan kelayotgan ikkita karvonni va elchilar ortidan Orenburg chegarasidan kelayotgan karvonning kattagina qismini ham talashgan"¹.

A.F.Negri missiyasining vakillaridan biri tabiatshunos tadqiqotchi E.Eversman 1821 yil 21 yanvarda Peterburgga yuborgan xatida «Erondan kelayotgan ikkita buxoro karvoni turkmanlar tomonidan talanib, odamlar o'ldirilgan»ligi haqida yozgan. Tarixdan ma'lumki, Buxoro bilan Eron o'rtasidagi savdo — iqtisodiy aloqalari tez—tez sodir bo'lib turadigan turkman qaroqchilarining talonchiliklari oqibatida, ular o'rtasidagi savdo aloqalari yaxshi rivojlanmagan. Shuning uchun Negri elchiligining vakillari buxoro hukmdorlarini haqli ravishda ayblagan edilar, negaki ular bu kabi qaroqchilik harakatlarining oldini olish uchun zarur chora — tadbirlarni ko'rmagan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, har doim ham Buxoro hukmdorlari xoxlagan taqdirlarida ham yo'llarning xavfsizligini ta'minlash uchun biror tadbir qilishi qiyin edi. Faqatgina xonlik poytaxti yaqinlaridagi savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash mumkindir, ammo xonlikdagi hukumron bo'lib kelgan beqaror vaziyat tufayli Buxorodan Eronga boradigan yo'lni himoya qilishni hukumatdan kutish befoyda edi. Shuni eslatish lozimki, XIX asrdagi mang'itlar shayboniy Abdulloxon II yoki ba'zi ashtarxoniylar kabi ta'sirga ega emas edilar. XUSH asr o'rtalariga nisbatan Shoxmurod, Xaydar yoki Nasrullo davriga kelib, Buxoroning O'rta Osiyo mintaqasidagi ta'siri sezila boshlagan, lekin hanuz Buxoro avvalgi siyosiy mavqeiga ko'tarila olmagan edi.

XIX asrning 30 yillarida Rossiyada Buxoroning qo'shni davlatlar bilan aloqalari haqidagi nashrlar paydo bo'la boshladi. Ko'zga ko'ringan rus sharqshunosi P.S.Savelyev, «Buxara v 1835 godu» maqolasida Buxoro xonligida bo'lgan sayyohlar haqida ma'lumot beradi. Muallif Buxoroning

³ Краткое описание Бухарии и Хивы //Сибирский вестник. СПб., 1823. Ч. 1. 6-11 б.; О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии //Азиатский вестник. СПб., 1826. Т. II.

⁴ Каменский А. Статистический взгляд на Бухарию (Из книги: Путешествие в Бухарию, полковника Барона Мейендорфа. СПб., 1826) //Северный архив. СПб., 1826. № XIX-XX; Его же. Нравственное состояние Бухарии (Из книги Мейендорфа: Путешествие из Оренбурга в Бухару. Пер. А.Каменский. СПб., 1826). //Северный архив. СПб., 1826. № 21,22,24.

⁵ К истории русского посольства в Бухару и освобождении оттуда русских пленных в 1821 году //Русский архив. Вып. 5. Кн.2. М., 1915. С. 37.

¹ К истории русского посольства в Бухару... с. 39.

hozirgi vaziyatini somoniylar davri bilan taqqoslab «Buxoro hali ham Sharq shaharlari orasida birinchi o'rinda turadi»¹, deb yozgan edi. Savelyev sharq davlatlarining savdo munosabatlarida Buxoroning roli haqida gapirib, uni «O'rta Osiyoning muhim savdo ombori»² deb yozgan edi va u yerda 4000 ta hindlar yashaydi, deb ta'kidlagan edi³. U Buxoroni O'rta Osiyoning markaziy savdo shahri deb baholagan edi.

P.S.Savelyev asosiy diqqatini karvon yo'llari tavsifiga qaratgan edi. U Buxorodan Eron va Afg'onistonga boradigan uchta karvon yo'li haqida, aynan, Mashhad, Hirot va Kobulga boradigan, va Buxorodan Kobul orqali Hindistonga boradigan yo'llar to'g'risida yozib qoldirgan edi.

Savelyevning asari Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdosi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Asarda Buxoro xonligining ahvoli, ma'muriy boshqaruv tizimi, Buxoroning Sharq bilan savdodagi roli haqida ma'lumot beriladi.

XIX asrda Rossiyada sharqshunoslik ilmi fan sifatida shakllangan. Birinchi ilmiy markazlar — Qozon, Peterburg, Moskva universitetlari paydo bo'lib, unda sharqshunos mutaxassislar tayyorlana boshlaydi. Ko'pgina sharqshunoslar chet elliklar bo'lgan (X.D.Fren, B.A.Dorn) yoki endigina Rossiyaga qo'shilgan milliy xududlardan kelgan edilar (O.I.Senkovskiy). Shuning uchun birinchi rus sharqshunoslarining asarlari rus tilida emas, balki nemis va fransuz tillarida nashr qilingan edi.

Bu davrda tarjima asarlar ham paydo bo'la boshladi. Masalan: ingliz sayyohi, diplomat va josusi A.Berns XIX asrning 30 —yillarida Britaniya hukumatining maxsus topshirig'i bilan Buxoroga jo'natilgan edi. Uning asarida Hindiston, Afg'oniston va Buxorodagi ijtimoiy — iqtisodiy voqyealar haqida, ayniqsa shu mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Shu maqsadda Berns Buxoro xonligining ichki va tashqi savdosini diqqat bilan o'rganadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, har doimgiday Buxoro savdosida hind savdogarlari muhim rol o'ynagan. Berns hindlar haqida yozib, bunday deydi: “ular savdo ishlari bilan Balx, Buxoro, ba'zan Astraxanga ham borishgan. Shu kabi holatlarda ular Peshavor, Kobul va Bomianga borib, Oks orqali suzib o'tib Buxoroga borishgan, u yerda o'zlarining mollarini Osiyo va Rossiya mollariga ayirbosh qilishgan”⁴. Berns Buxoroda afg'onlarning savdo bilan shug'ullanishini ta'riflab, ularning ba'zilar Buxoro orqali Rossiya bilan ham savdo qilgan, deb yozadi. Bunga misol qilib, Berns bilan birga Kobuldan Dulat degan afg'on savdogari savdo qilish uchun Buxoroga kelganligi, u yerdan Rossiyaga bormoqchi bo'lganligi haqida yozib qoldirganligini eslatish kifoya⁵.

Bernsning ma'lumotlariga ko'ra, Kobul bozorlarida Buxorodan keltirilgan 40 dan ortiq nomdagi rus va o'rtaosiyo mollari bo'lib, ulardan 30 dan ortig'i Rossiyadan keltirilgan edi. Bundan tashqari, Buxoroga Hindistondan 17 nomda hind, shuningdek, yevropa, xususan ingliz tovarlari keltirilgan bo'lib, bular: indigo,

¹ Савельев П.С. Бухара в 1835 году. СПб., 1836. С. 13.

² Савельев П.С. Ўша асар. 13 б.

³ Савельев П.С. Бухара //Энциклопедический лексикон. Т.7. СПб., 1836.С. 460.

⁴ Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.1. М., 1848. С. 448.

⁵ Борнс А. Ўша асар. Ч.П. 1848. С.246.

kashmir jun ro'mollari, «lungi» deb ataluvchi multon sharflari, «nosirxon», «xota», «xosa — babar», «andarshox», «bedalxoni» va boshqa nomlar bilan ataluvchi hind matolaridir⁶.

Asarda Hindiston, Kobul va Buxoro o'rtasidagi savdo ishlarini G'azna tumanida yashovchi afg'on qabilalari — lugoniylar olib borganligi eslatiladi. Lugoniylar iyunning boshlarida savdo karvonlari bilan Hindistondan Kobulga kelib, tovarlarning ma'lum bir qismini shu yerda sotardi, so'ng qolgan qismi bilan Buxoroga yo'l olardilar.

Bernsning ta'killashicha, Balx, Xulum va Qunduzga ko'plab Buxoro ip gazlamalari olib borilgan. Buxorodan Kobul va Panjobga shol ro'mollari to'qish uchun ishlatiladigan pashm deb ataluvchi Turkiston yungi olib borilgan. So'ng bu shol ro'mollari Buxoroga qayta jo'natilib, u yerda bir maundi (256 ingliz funtiga teng) olti yarim tillodan sakkiz tillogacha sotilgan⁷.

U Buxoroda yashovchi hindlar savdo va sudxo'rlik bilan shug'ullanib juda katta foyda ko'rishlarini ham maqtanishardi va tez boyib ketishi bilan mamnun bo'lishar edi, deb yozgan edi. Buxorodagi o'z karvon-saroylarida yashayotgan hindlar 300 kishi atrofida bo'lgan, keyinchalik esa ularning soni anchagina ko'paygan. Ularning aksariyati Shikarpurdan kelishgan.

Shuni eslatib o'tmoq joizki, Bernsning va boshqa mualliflarning hindlarning savdo va sudxo'rlik bilan shug'ullanadilar degan fikrlari haqida tarixshunoslikda turli xil qarash mavjud. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari, haqiqatdan ham savdo va sudxo'rlik O'rta Osiyoga kelib qolgan hindlarning asosiy mashg'uloti deb xisoblovchilar bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmida P.I.Nebolsin bu fikrni asoslab bergan edi, o'zbek tarixchilaridan M.A.Boboxo'jayev esa uni qo'llab-quvvatlagan. Ikkinchi nuqtai nazar tarixchi G.M.Dmitriyev tamonidan ilgari surilgan bo'lib, O'rta Osiyodagi hindlarning savdo sudxo'rlikdagi rolini inkor etmagan holda, ularning bu mashg'ulotini ko'proq obyektiv ijtimoiy — siyosiy faktorlarga bog'liq deb hisoblagan.

M.A.Boboxo'jayevning ta'biri bilan aytganda, Afg'oniston va O'rta Osiyoda yashovchi hindlar sudxo'rlik ishlarida muayyan mavqeyni egallagan va ular mamlakatlarning ichki va tashqi savdosida katta rol o'ynaganligini Afg'oniston va O'rta Osiyo shaharlaridagi savdogarlarning milliy tarkibi ham tasdiqlaydi¹.

G.L.Dmitriyevning fikricha, Hindistonni inglizlar bosib olishi natijasida karvon savdosi kuchayib ketib, O'rta Osiyoda hind mahallalari ko'payib ketgan edi. XIX — XX asrlarda mustamlaka sharoitida kapitalizmning rivojlanishi Hindistonda yangi paydo bo'layotgan hind milliy burjuaziyasini qo'shni davlatlarga siqib chiqargan. Shu bilan birga mustamlaka talonchiligi hind dehqonlari va hunarmandlarining sinishiga olib kelgan. Natijada ular O'rta Osiyoga kelib, bu yerda savdo va sudxo'rlik bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan edi.

⁶ Борнс А. Кабул —путевые записки сэра Александра Борнса в 1836; 1837 и 1838 годах. Ч.1. М., 1847. С.41-42.

⁷ Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.III. С. 573.

¹ Бабаходжаев М.А. Русско-афганские торгово-экономические отношения во второй половине XVIII-начала XX вв.. Ташкент: Наука, 1965.С. 17.

Chunki O'rta Osiyoda dehqonchilik qilish uchun ularga yer yetmas, sudxo'rlik esa musulmonlar uchun ta'qiqlangan edi, ikkinchidan, sudxo'rlikka ehtiyojning mavjudligi uning paydo bo'lishiga obyektiv sabab bo'lgan. Hindlar esa aynan sudxo'rlik bozorini to'ldirgan.

O'rta Osiyoda asosan sudxo'rlik bilan shikarpurliklar shug'ullangan. Tarixchi I.M.Reysner, "Shikarpur-avloddan avlodga Afg'oniston, Xuroson, Turkiston va qisman Eron bilan qizgin va foydali savdo qilib kelgan odamlari bilan faxrlanishi mumkin. Shikarpur o'zining biror ishlab chiqargan tovari bilan maqtana olmagan va karvon yo'llari kesishgan markaz ham bo'la olmagan", deb yozadi². Shikarpur savdogarlari va sudxo'rlari Peshavor, Kobul, Qunduz, Xulm, Balx, Buxoro, Mashhad, Hirot, Seiston, Qandahorda o'zining gumashtalariga ega bo'lgan³.

Ingliz savdosi va sanoat kapitali manfaatlari tarafdori bo'lgan Bernsni ingliz tadbirkorlarining Sharq bozorlarini egallashi masalasi qiziqtirgan edi. Uning ta'kidlashicha, XIX asrning 30 yillarida ingliz va hind tovarlari ikki mingtagacha bo'lgan tuyada Kobulga keltirilgan edi. (taxminan 448 t). Bu tovarlarning yarmi Buxoroga olib borilgan⁴. Ingliz tovarlaridan qirqdan bir miqdorda yoki 2,5% boj solig'i olingan. Boj solig'idan tashqari poytaxtda Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi savdodan tranzit boj solig'i olingan. O'rta Osiyoning Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida Kobul har doim muhim rol o'ynagan. Shu munosabat bilan Berns Buxoro savdosi Kobul savdosi bilan chambarchas bog'liq, deb yozgan edi.

Berns asarining muhim tomonidan biri shu ediki, unda Buxoro bilan Eron o'rtasidagi savdo aloqalari tasnifi ham aks ettirilgan. Uning so'zlariga ko'ra, Buxorodan Eronga qorako'l terisi va gilamlar eksport qilingan, uning bir qismi so'ng Turkiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarga jo'natilgan. Erondan Buxoroga ko'proq opium jo'natilgan bo'lib, so'ng O'rta Osiyodan Xitoyga yuborilgan. Berns Buxoroni hind kashmir shol ro'mollarini Eronga jo'nataidigan tranzit savdo markaziga aylanib qolganligini e'tirof etadi. Shu narsa diqqatga sazavorki, Qandahorda bu tovarlarga katta boj solig'i solingani oqibatida uni Kashmirdan Eronga Buxoro orqali jo'natish qulay bo'lib qolgan ekan.

Berns Buxoro xonligining zo'ravonlik tizimini qoralagan bo'lsa ham, u yerda hali ham savdoning rivojlanayotganligini e'tirof qilib, ingliz savdo sanoat doiralarini O'rta Osiyo bozorlarini jadalroq egallashga chaqirgan edi. U ruslarning Buxoro xonligi bilan savdo aloqalari o'sib borayotganligini tashvishlanib yozgan edi. Berns, Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarining rivojlanishiga inglizlarning to'sqinlik qilishi kerakligini qattiq turib targ'ib qilgan edi¹.

Shunday qilib, Bernsning asari rus jamoatchiligini O'rta Osiyoning savdo — iqtisodiy hayoti bilan tanishtirdi va Sharqda rus—ingliz raqobatini yanada

² Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государства у афганцев. М.: Изд-во АН СССР, 1954. С.66.

³ Ўша жойда.

⁴ Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.III. С.558.

¹ Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. М.: МГУ, 1981. С.34.

rivojlantirishga undadi hamda O'rta Osiyo haqida ilmiy sohada esa yangi ilmiy asarlar paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

1833 yili V.A.Perovskiy Orenburg general—gubernatori etib tayinlangach, chorizmning O'rta Osiyoga faol harbiy harakatlari boshlanib ketadi. Perovskiy 1833—1842 va 1851 — 1856 yillarda Orenburg general—gubernatori bo'lgan. Uning davrida cho'llarda ko'plab istehkomlar qurilgan, Orol dengizi o'rganilgan va u yerda kema qatnovi yo'lga qo'yilgan, Oq Machit qal'asi ishg'ol qilingan va 1854 yili Xiva xoni bilan Rossiya uchun foydali shartnoma tuzilgan edi².

Perovskiy Buxoroning siyosiy ahvolini, uning ichki va tashqi savdosini bilishga qiziqib, Orenburg savdosini o'rganib chiqadi. Shu maqsadda u Buxoroga maxfiy ko'rsatma bilan P.I.Demezoni elchi qilib jo'natadi. Elchi Buxoroning Rossiyaga munosabati masalasini va O'rta Osiyoning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rganishi kerak edi³.

Sardiniya qirolligidan bo'lgan P.I.Demezoni 1830 yilda Qozon universitetida sharq tilshunosligi bo'yicha nomzodlik unvonini olib, 1831 yilda Orenburgdagi Neplyuyev kadet korpusida arab va fors tillaridan o'qituvchilik qiladi, sentyabr oyidan esa Orenburg chegara komissiyasida tarjimon bo'lib xizmat qila boshlaydi⁴.

P.I.Demezoni mulla kiyimida Mulla Jafar ismi bilan Buxoroga jo'nagan. Tarjimonlik va o'qituvchilik faoliyati unga sharq tillari, sharq urf —odatlar va sharqona odobni doimo takomillashtirib borishga imkon yaratgan, hamda Sharq mamlakatlarida sodir bo'layotgan voqyealardan doimo xabardor bo'lib turishiga yordam bergan. P.I.Demezoni 1833—1834 yillarda Buxoroda bo'lib, Buxoro tarixi bilan bog'liq ko'p ma'lumotlarni yiqqan edi. Keyinchalik bu xabarlar. tarixchi N.A.Xalfin tomonidan nashr qilingan.

Sayohatchi o'zining esdaliklarida Buxoroning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari to'g'risida juda muhim ma'lumotlar qoldirgan. Uning xabariga ko'ra, «Shaxzoda Abbos Mirzoning Xurosonga so'nggi yurishi Buxoroning Eron bilan savdo aloqalarini to'xtatib qo'ygan». Buxorodan Eronga ketayotgan karvon Xuroson chegarasida talangan. Shunday qilib, Demezoni, Buxoroni Eron bilan bog'lovchi savdo yo'li yopib qo'yilgan va bu holat buxorolik savdogarlarining Astraxan orqali Eron bilan savdo qilishiga sabab bo'lgan edi, deb xabar beradi. Erondan Buxoroga boradigan an'anaviy karvon yo'lining xavfsizligiga ishonmaslik oqibatida Abbos Mirzo vafotidan keyin 1833 yilda Mashhaddan Buxoroga bor yo'g'i 63 ta tuyadan iborat bo'lgan karvon kelgan.

Demezoni Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi an'anaviy savdo aloqalarining rivojlanganligini ta'kidlab o'tadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, Demezoni Buxoro bozorlarining torligini, Hindiston uchun talabgor bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishning Buxoroda yo'lga qo'yilmaganligini eslatib o'tadi. Bu esa, deb yozadi u, hind va afg'on

² Энциклопедический словарь /Ф.А.Брокгауз и И.А.Ефрон. Т. XXIII. СПб., 1898. С.348.

³ Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука, 1983. Каранг: Залесов Н.Г. Очерки дипломатических сношений России с Бухарою с 1836 по 1843 г. //Военный сборник. 1862. № 9.; Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. (первая половина XIX в.). М.: Наука, 1974. 236-255.

⁴ Демезон хақида қаранг: Энциклопедический словарь /Ф.А.Брокгауз и И.А.Ефрон. Т. X.1893. С.359.

savdogarlarining Buxorodan faqat qimmatbaho metallar va unchalik ko'p bo'lmagan buxoro mollarini olib ketishiga sabab bo'lgan. Buxorodagi hind mollaridan asosan indigo buyog'i eslatib o'tiladi. Uning ta'kidlashicha, so'nggi 8 yilda Buxoroda nil buyog'ining 1 pudi 12 tillo turgan. 1 tillo 15 rublga teng bo'lgan. Buxoroda pullarning kamligi sababli nil bo'yog'ining 1 pudi 12 tillodan 4 tilloga tushib qolgan. Demezoning Buxoroga kelishidan bir yil oldin, ya'ni 1832 yilda bu yerda 1 pud nil 3,5 tillo, keyin esa 2 tilloyu 4 — 5 tangaga tushib ketgan (21 tanga 1 tilloga teng) edi.

Nil bo'yogi narxining bu kabi pasayib ketishini Demezoning quyidagicha izohlaydi, ya'ni Buxoro savdogarlari nilni keyinchalik qimmat narxda sotish maqsadida ulgurji savdoda past narx bilan hammasini sotib oladi. "Lekin,-deb yozadi Demezoning, - navbatdagi karvonning kelishi bilan ular nilni past narxda sotib yuborishga majbur bo'lgan, shuning uchun chayqovchilik natijasida Buxoro savdogarlari inqirozga uchragan"¹. U nil bo'yog'i narxining tushib ketishining ikkinchi sababi, Buxoro bozorining nil bo'yog'i bilan nihoyatda ko'mib tashlanganligi bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Ammo Demezoning, Hindistondan Buxoroga an'anaviy mollar qatorida ko'plab ingliz mollarining kirib kelishini tashvish bilan tilga oladi. Uning aytishicha, inglizlar Buxoroga zar parcha matosi, muslin deb ataluvchi yupqa gazlama, ip gazlama, chit, gulli hamda yo'l—yo'l matolar keltirilgan. Zar parchaning katta qismi Qo'qon orqali Buxoroga keltirilgan. Qizig'i shundaki, zar parcha matosi Buxoroga ko'proq Qo'qon orqali kirib kelgan.

Ingliz tovarlari Buxoroga Eron orqali ham kirib kelgan. Demezoning Buxorodalik vaqtida Mashhaddan so'nggi karvon kelgan bo'lib, bu karvonda 3 toy ingliz matolari — gulli bo'z, chit, muslin va boshqa tovarlar keltirilgan. Uning fikricha, bu ingliz tovarlari Rossiyadan keltirilgan tovarlarga qaraganda ancha sifatli bo'lib, tez sotilgan. Ingliz tovarlarining doimiy ravishda ko'plab keltirilishining oqibatida ular O'rta Osiyo bozorlarini butunlay ko'mib tashlagandi, bu esa rus savdosi uchun xavfli bo'lib, Demezoning tashvishiga solgan edi. Shuning uchun, u O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro bozorlarida Rossiyaning manfaatlarini himoya qilish uchun zudlik bilan iqtisodiy va siyosiy choralar ko'rish zarurligini taklif qilgan.

Demezoning o'z axborotida Buxoroning Eron bilan savdo aloqalarini to'liq tahlil qiladi. U «Buxoroda Eron elchilari juda kam, chunki bu yo'l xavf—xatarga to'liq, ularni yo'lda turkmanlar tutib olib qul qilib Xivaga sotib yuborishidan qo'rqadilar. Shuning uchun Buxoroda savdo qilayotgan eronliklar o'zlarining ishonchli kishilariga ega bo'lishlarini xoxlaydilar. Ular asosan Andxoy yoki Mashhaddan bo'lishlari muhimroqdir. Besh yoki oltita boy eronlik savdogarlar Buxoroda joylashib olishgan bo'lib, ular Kushbegi karvon-saroyida yashaydi"².

Tadqiqotchi Buxoroga boradigan savdo yo'llarining holati faqat qaroqchilar tufayligina emas, balki mahalliy hokimlarning o'zlari tufayli ham xavfli ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, Hirotidan Buxoroga yo'l olgan karvon Buxoro noibi Baturxon tomonidan talangan. Faqat Buxoro hokimiyatining

¹ Записки о Бухарском ханстве. С.20.

² Записки о Бухарском ханстве..С.59.

aralashuvi natijasida Boturxon savdogarlarga keltirilgan zararni to'lagan edi³.

Asarning qimmatli tomoni shundaki, muallif unda Buxoroning Eron, Hindiston, Afg'oniston bilan savdosida qatnashgan tovarlar nomlarini eslatib o'tadi. Demezong Buxoro xonligining asosiy eksport tovari qorako'l terisi ekanligi, uning Afg'oniston va Eronga chiqarilganligi va Buxoroda sotilgan qorako'l terisining narxi to'g'risida ham ma'lumot beradi. O'z navbatida Buxoroga Hirot va Kobuldan talabgor bo'lgan tulki terisi keltirilganligi va undan bosh kiyimlari tikilganligi haqida ham xabar beradi.

Demezong Hindistondan Buxoroga keltirilgan tovarlarning turlari va narxlari haqida yozadi. Hindistondan nashatir, kimxob, ipak matolari, ingliz rangdori gulli matolari, chakan—ipak bilan gul tikilgan oq ip matolar, qalampir, dolchin, zindjabil, sandal daraxti, karkidon shoxi, qand, navvot, xna, zangori bo'yoq qalam, zarcheva, sardolik- qimmatbaho xaydarabad toshi va ingliz ip matolari keltirilgan. Nil bo'yog'ini Panjobdan afg'on qabilalari — lugoniylar keltirgan. Buxoroga Laxordan qand va shakar keltirilgan⁴.

Kashmirdan Buxoroga turli xil shol ro'mollar va turli matolar, kalta qo'njli etiklar, qo'lqoplar, siyohdon, tillahal yugurtirilgan yog'och qoshiqlar, qo'lyozma kitob va boshqa narsalar eksport qilingan.

Peshavordan Buxoroga paxtadan oq va havo rang salla, oliy navli guruch, hidlaydigan tamaki, kokos yong'og'idan ishlangan tamakidon, tuya terisidan tayyorlangan torozi keltirilgan.

Kobuldan Buxoroga havorang bo'yoq qalam, taomga ishlatiladigan zarchava, qurollar, shamshir, xanjar, kamon, guruch va tulki terisi jo'natilgan.

Hirotidan Buxoroga gilam, past navli qorako'l, pista, buzugunch (pista daraxtidan olinib bo'yoq uchun ishlatilgan), olxo'ri qoqi, nasha va boshqalar olib keltirilgan.

Buxorodan Eronga qimmatbaho metallar, kashmir sholi va qoraqo'l olib ketilgan¹.

Shunday qilib, P.I.Demezongning asari unda jamlangan ma'lumotlarning ko'pligi va qimmatliligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Demezongning ma'lumotlarini Buxoroda 1835—1836 yillarda bo'lgan uning zomondoshi rus ofiseri I.V.Vitkevich ham tasdiqlaydi. Polyak inqilobchisi I.V. Vitkevich 1823da yil chor hukumati tomonidan Orenburg korpusiga davlatga qarshi faoliyat yuritganligi uchun oddiy soldat sifatida jo'natilgan edi.

Uning sharq tillarini o'rganishdagi noyob qobiliyatini Orenburg hukumati sezib, uni o'tmishiga ko'z yumib, diplomat sifatida muhim topshiriqlar bilan O'rta va Kichik qozoq sultonlari huzuriga jo'natadi.

³ Ўша асар. С.64. Ботурхон Бухоро амири Хайдарнинг ўғли, 1826 йилгача Қарши ҳокими бўлган. Амир Хайдар вафотидан сўнг тахтга унинг катта ўғли Хусайин тайинланган. Лекин у уч ойдан сўнг вафот этган. Ундан сўнг Бухоро хонлигида Насруллохон (1826-1860) “Ботурхон” нисбаси билан ҳокимлик қилган.

⁴ Записки о Бухарском ханстве....С.77-78.

¹ Ўша асар.С.78-80 ;

Vitkevich 1830 yil unter ofiser unvonini oladi, unga dvoryanlik qaytarib berilgan. 1833 yil apreldan V.A.Perovskiý tavsiyasiga ko'ra praporshik lavozimiga tayinlanadi. U Orenburg chegara komissiyasida tarjimon bo'lib ishlagan. 1836 yilda Vitkevich Perovskiýning katta adyutanti qilib tayinlanadi. U rus hukumatining topshirig'i bilan 1835—1836 yillarda Buxoroda bo'lgan.

Perovskiý Vitkevichning sayohatini juda yuqori baholab, uning xabarlarini Osiyo departamentiga jo'natib, uni «ishbilarmon, uddaburon, o'z ishini biladigan, amaliyotchi, muomala madaniyatini juda yaxshi biladigan kishi» sifatida tariflagan edi². Yozuvchi V.I.Dal Orenburg general— gubernatori maxsus topshiriqlar ofiseri Perovskiý ko'rsatmasi bilan Vitkevichning Buxoroga sayohati haqidagi hikoyalarini yozib olgan edi. Tarixchilardan V.G.Volovnikov va N.A.Xalfinlar Vitkevichning Buxoroga sayohatini juda yuqori baholashgan edilar³.

Sayyoh o'z ma'lumotlarida Buxoro savdosining qirralarini yoritib bergan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda o'sha paytda 25 ta karvon—saroy bo'lib, ularning har birida sharqning turli davlatlaridan kelgan savdogarlar yashashgan. Masalan, boy afg'on savdogari Badriddin Buxoroda o'zining karvon — saroyi, oilasi va uyiga ega bo'lib, uning hisobida 40 ming tillo yoki 160 ming rub. puli bo'lgan. U Buxorodan Kobulga yuzlab eng asl otlar va ko'plab rus tovarlari olib borgan. Vitkevichning bu ma'lumotlari juda muhim, ammo Badriddinning boyligi hisobida adashgan ko'rinadi. Agar Demezón ma'lumotiga ko'ra, 1 tillo 15 rub.ga teng bo'lsa, afg'on savdogarining sarmoyasi esa 160 ming rub. emas, balki 600 ming rub. bo'lishi kerak edi.

Demezón kabi, Vitkevich ham Buxoroda ko'pgina hindlar, afg'onlar va eronliklar yashayotganligi to'g'risida yozgan. Bundan tashqari, u qaroqchilarning talonchiliklari tufayli buxoro—eron savdosidagi sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni ham ta'kidlaydi. Qaroqchilik yo'li bilan ko'plab eronliklar asir olinib, so'ng Buxorodagi qul bozorida sotilganligini, Vitkevich shu kabi holatni Payas—Tani karvon saroyida kuzatganligini, u yerda qunluzliklar eronlik qullarning savdosi bilan shug'ullanganliklarini ta'kidlaydi⁴.

Buxoroda qimmatbaho madanlarga ehtiyoj borligini Vitkevich eslatib o'tadi. U tillo va kumushning tanqisligi oqibatida Buxoro hukumati oltinga kumush, kumushga esa mis qo'shib pul zarb qilganligini, Buxoro kumushni Koshg'ardan, tilloni Rossiyadan olganligini, so'ng buxoro tangalari sarroblar orqali Kobulga olib ketilganligini ta'kidlaydi¹.

Vitkevich Biritaniya imperiyasining Buxoro xonligiga ingliz mollari bilan kirib kelib, Buxoro savdosini o'ziga itoat ettirishi va bozordan rus savdosini siqib chiqarib yuborishga harakat qilayotganligiga tanqidiy ko'z bilan qaragan. U inglizlar bilan bo'ladigan savdoning Buxoro uchun foydali emasligini ko'rsatib, inglizlar hyech qachon Buxoroga Hindistondan temir, mis, cho'yan, yuft va boshqa mollarni olib kela olmaydi, chunki bularning evaziga inglizlarga Buxoro hyech narsani taklif qila olmaydi, chunki Buxoroning ip matolari, quruq

² Записки о Бухарском ханстве....С.14.

³ Ўша асар. Кириш. С.14 .

⁴ Записки о Бухарском ханстве. С.102.

¹ Ўша асар. С.105.

mevalari va boshqa mahsulotlari Hindiqushdan nariga jo'nata olmaydi, bu mahsulotlarni Rossiyadan boshqa hiech qayerga o'tkazishi mumkin emas, deb yozgan edi².

Vitkevich Demezondan farqli o'laroq, Buxoro bozorlaridagi ingliz tovarlari narxining pastligini ta'kidlaydi. U rus—buxoro savdosining yorqin kelajagi borligi hakidagi xulosaga kelgan.

Shunday qilib, Demezoni va Vitkevichning hisobotlari Buxoro xonligining qo'shni sharq davlatlari bilan jadal savdo munosabatlari o'rnatganligini, ular bergan ma'lumotlarning bir—biriga juda o'xshashligi esa ularning haqiqatga yaqinligini tasdiqlaydi. Shuning uchun ular hanuzgacha o'zining ilmiy ahamiyatini saqlab kelayapti.

Eron bilan Buxoro o'rtasidagi savdoning ahvoliga berilgan qimmatli baho 1841 yilda yozilgan podpolkovnik I.F.Blaremborgning «Statiticheskoye opisaniye Persii» nomli monografiyasida o'z aksini topgan. Muallif asarda qimmatbaho toshlarning Buxoroga keltirilishi, ayniqsa, Nishopur va Mashhaddan qazib olingan feruzaning savdoda muhim rol o'ynaganligi haqida xabar beradi. Bu feruza Buxoro orqali Rossiyaga, undan Fransiya va boshqa Yevropa davlatlariga, hamda Bender Bushir porti orqali Hindistonga olib borilgan³.

Blaremborgning yozishicha, Buxorodan Eronga qorako'l bilan birga turli xil rus tovarlar va tranzit mollari: xitoy choyi, qog'oz, bulg'ori charm, oyna, billur, chinni, temir va mis idishlar, movut va mayda tovarlar keltirilgan⁴.

Shunday qilib, Blaremborgning ma'lumotlariga asoslanib, aytish mumkinki, Buxoro bilan Eron o'rtasidagi savdoda an'anaviy mollar bilan bir qatorda ko'proq rus tovarlari asosiy o'rin egallay boshlagan.

1840—1842 yillarda Buxoroga tog' injeneri va diplomati K.F.Butenev elchiligi kelgan. Natijada elchilik ishtirokchisi N.V.Xano'kovning «Opisaniye Buxarskogo xanstva» degan asari paydo bo'lgan.

N.A.Xalifin ta'biricha, N.V.Xan'kovning mazkur kitobi O'rta Osiyoning yirik va kuchli davlati haqidagi birinchi rus tilidagi umumlashtirilgan asar hisoblangan. Muallif kitobda avvalgi tadqiqotlar va qo'lyozma asarlarga tayanib, o'zi shohid bo'lgan voqyealarni hikoya qiladi. V.V.Bartold o'z davrida bu asarga juda yuqori baho bergan edi⁵.

Asarda Buxoro xonligining ma'muriy boshqariluv, ijtimoiy va siyosiy ahvoli, topografiyasi, qishloq xo'jaligi va hunarmanchilik tarmoqlari, uning asosiy shaharlari hisoblangan — Buxoro, Samarqand, Qarshi haqida to'liq ma'lumot beriladi. Bizni asardagi Buxoroning ichki va tashqi savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar qiziqtiradi. Buxoro hayotida savdo dehqonchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turgan va u yerda odamni hayratda qoldiradigan darajadagi do'konlar, rastalar, bozorlar, karvon saroylar va timlar ko'p bo'lgan. O'sha vaqtda Buxoroda 9 ta tim bo'lib, ulardan 5 tasi g'ishtdan va 4

² Ўша асар. С.108.

³ Бларамберг И.Ф. Статистическое обозрение Персии. СПб., 1853.С. 26.

⁴ Ўша асар...С.23.

⁵ Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. С.440.

tasi cho'pqori edi¹. Asosiy savdo markazlari Buxoro, Samarqand va Qarshi shaharlari bo'lgan.

Ханыков Buxoroni O'rta Osiyoning asosiy bosh savdo shahri edi, deb eslatadi. Buxoroga turli mamlakatlardan har yili 12 ba'zan 15 ming tuyada yuklar keltirilgan. U bu qadar ko'p mollarning keltirilishiga sabab, Buxoroning qulay geografik va savdo yo'llari kesishgan joyda joylashganligidadir, deb hisoblagan.

Ma'lumki davlatning xazinasi savdodan keladigan boj solig'i hisobiga ham to'ldirilgan. Shuning uchun, Buxoro hukumati bu savdodan manfaatdor bo'lgan. Lekin, deb yozadi muallif, yo'ldagi qaroqchilarning talonchiliklariga qarshi hukumat hech kanday chora ko'rmagan.

Ханыков Buxoro bozorlarida Eron, Afg'oniston, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlardan keltirilgan ko'plab tavarlarni ko'rgan. Uning yozishicha, Erondan Buxoroga yiliga uch ba'zan to'rt marta savdo karvonlari kelgan. qishda kelgan karvon muhimroh hisoblangan. Sababi, Buxoroda bahor boshlarida qorako'l arzon narxda sotilgan, Eronda esa qorako'lga talab kuchli bo'lgan. Shuning uchun, Eron savdogarlari qorako'lni arzonroq narxda sotib olish uchun vaziyatdan foydalanishga shoshilgan. Erondan Buxoroga ip va ipak matosi, gilam, feruza, ingliz chitlari, kolenkor-to'qima mato (qalin surp) va mal—mal keltirilgan. Ammo avvallari talabgor bo'lgan kermion shollari qisqarib ketgan. Buxorodan Eronga ip gazlama va berindj keltirilgan².

Buxoro bilan Kabul o'rtasidagi savdo qishda dovon qor bilan qoplanib qolgan vaqtida qiyin ahvolda qolgan. Shuning uchun, u Kobuldan savdo karvonlari birinchi yoz oyining oxiri yoki ikkinchi oyining boshlarida Buxoroga kelgan, oxirgi karvon esa yozning oxirgi oyi va kuzning boshlarida kelganligini yozadi. Afg'onistondan Buxoroga asosan to'q ko'krang bo'yoq va ingliz tovarlari keltirilgan.

Ingliz tovarlarining ko'plab keltirilgishi natijasida O'rta Osiyo bozorlarining Angliyaga qaram bo'lib qolishi mumkinligi rus diplomatini tahlikaga solgan. Xano'kov Buxoroga ingliz mollari qatori an'anaviy hind tovarlar: buyoq olinadigan va dorivor o'simliklar, hind kimxoblari va talabgor bo'lgan mal-mal olib kelinganligini ma'lum qiladi. Bu mollar Buxoroga Hindistondan 3000 yoki 3500 tuyada keltirilgan³.

Muallif Buxorodan Eron, Afg'oniston va Hindistonga chiqariladigan tovarlar haqida ham ma'lumot beradi. Asosan Buxorodan boshqa davlatlarga ipak matolar, chit, qo'zi terisi va tillo olib ketilgan. Bundan tashqari, Buxoro Hindiston, Eron va Afg'onistonga turli xil rus tovarlarini o'tkazishda tranzit markaz rolini ham o'ynagan.

Asarda Rossiyadan Buxoroga chit, to'qima mato, mal-mal, ipak matolar, movut, parcha, teri, cho'yan, temir va po'lat olib kelinganligi, Buxorodan esa Hindiston, Afg'oniston va Eronga temir, cho'yan va po'lat idishlarning olib o'tilganligini xabar beriladi.

¹ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.90.

² Ханыков Н.В. Ўша асар. С.173.

³ Ханыков Н.В. Ўша асар. С.175.

Demak, Buxorodan Hindiston, Afg'oniston va Eronga an'anaviy mahalliy tovarlar qatori ko'plab rus tovarlari, jumladan, cho'yan, po'lat va temir idishlar chiqarilgan, degan xulosaga kelish mumkin. XIX asrning 40-yillaridagi asarlarda Buxoroning qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari xususida aniq ma'lumotlar berila boshlanganligini N.V.Xano'kovning asari ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari boshqa rus mualliflari qatori N.V.Xano'kov ham Buxoro bozorlarida ingliz va rus tovarlari raqobatining kuchayib borishidan tahlikaga tushganligini sezish mumkin.

Buxoro bilan Eron o'rtasida savdo aloqalari haqidagi muhim ma'lumotlar 1840—1842 yildagi Buxoroga uyushtirilgan rus elchiligi rahbari K.F.Butenevning «Gornyy jurnal»da e'lon qilgan maqolalarida yozib qoldirilgan. Uning yozishicha, bulat (po'lat) Buxoroga Erondan dumaloq, ba'zan to'rtburchak shaklida keltirilgan. Bu po'latlarning ba'zi navlari hind po'lati nomi bilan atalgan. Demak, po'latning bir qismi Hindistondan Eron orqali keltirilgan bo'lishi mumkin⁴.

Rus ma'murlari, rus sanoatchilari va rus savdogarlarini O'rta Osiyodagi Rossiya va Angliya o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy raqobat tashvishga sola boshlagan bo'lib, bu muammo kator rus tarixshunosligida o'z aksini topgan¹. XIX asrning o'rtalarida O'rta Osiyodagi ikki katta mamlakat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy raqobat rus tarixshunosligida yetakchi mavzu bo'lib qolgan.

Rossiyaning bir necha shaharlarida tez-tez savdo yarmarkalari bo'lib turgan. Bu yarmarkalarda o'rta osiyo mollari qatori sharqning turli mamlakatlaridan keltirilgan tovarlarni uchratish mumkin bo'lgan. Jumladan, 1843 yilda Nijegorod yarmarkasiga O'rta Osiyo orqali 76500 rub.lik kashmir sholi keltirilgan, ammo 1844—1845 yillarda yarmarkada bu tovar umuman bo'lmagan². Bu albatta ingliz-sind urushlari bilan bog'liq bo'lib, 40-yillardan e'tiboran Kashmir inglizlar nazorati ostiga tushib qolgan edi.

Bu davrlarga kelib, nafaqat kichik hisobot tarzidagi asarlar, balki yirik fundamental asarlar ham paydo bo'la boshlaydi. Masalan, N.M.Karamzinning «Istoriya gosudarstva Rossiyskago» va I.Solovyevning «Nastolnaya xronologiya, zamechatelnykh proisshestviy, poleznykh otkrytiy, rojdeniya i smerti znamenitых lyudey, ot sotvoreniya mira po nastoyasheye vremya» asarlari nashr qilina boshlaydi.

XIX asrning o'rtalarida rus ilmiy markazlari ham bu masalaga e'tiborini qarata boshlaydi. Masalan Imperator Rus Geografik jamiyatining moliyaviy yordami natijasida P.I.Semenov-Tyan—Shanskiy, N.M.Prjevalskiy, Ch.Ch.Valixanov ekspedisiyalari tashkil etiladi. Geografik jamiyat O'rta Osiyo davlatlari va xalqlari hayotining turli qirralarini o'zida aks ettirgan umumlashma va maxsus tadqiqot asarlarini nashr etishga ko'maklashadi. Xuddi shunday

⁴ Бутенев К.Ф. Замечания о ковке булата в Бухарии //Горный журнал. 1842. Кн.: XI. Ч.У. С.163-164.

¹ Залесов Н. Посольство в Хиву подполковника Данилевского в 1842 году //Военный сборник. Пг., 1861. № 11.С. 59.

² Мельников П.И. Нижегородская ярмарка в 1843, 1844 и 1845 годах. Нижний Новгород, 1846. С.272.

nashrlar qatoriga P.Nebolsinning “Ocherki trgovli Rossii s Sredney Aziyey” kitobini kiritish mumkin.

Rus geografik jamiyati a’zosi bo’lgan P.Nebolsinni Rossiyaning O’rta Osiyo bilan savdo aloqalari qiziqtirgan. Shu maqsadda, u 1850 yilda Orenburg chegara chizig’ini aylanib chiqadi, bir necha oy Orenburg va Troiskda bo’ladi, hamda Qozog’istonga boradi, 200 ta rus, tatar, koreys, xivalik, buxorolik, qo’qonlik, afg’on va boshqa kishilardan so’rab asari uchun statistik ma’lumotlar to’playdi.

P.Nebolsin sayohatining maqsadi Rossiyaning Xiva, Buxoro, Qo’qon, vaziyat imkon bersa, Eron bilan haqiqiy savdo–sotiqning ahvolini, Rus-Buxoro savdosini o’rganishdan iborat bo’lgan.

Boshqa rus mualliflari kabi, u ham Buxoro bozorlaridagi ingliz va rus tovarlari o’rtasidagi raqobatdan tashvishlangan edi. Asarda Buxoroning Rossiya uchun muhim iqtisodiy ahamiyati, ya’ni paxta mahsulotlari yetkazib beradigan o’lka, rus tovarlari uchun bozor ekanligi ta’kidlanadi. Nebolsinni Buxoroning an’anaviy savdosini o’rganishdan ko’ra, ko’proq rus tavarlari uchun bozor qidirish masalasi qiziqtirgan edi.

O’sha davr tadqiqotchilari kabi P.I.Nebolsin ham Buxoroni O’rta Osiyoning markaziy savdo shahri, uning tranzit savdo markazi ekanligini, qo’shni davlatlarni qisman mahalliy, qisman rus, ingliz va hind tovarlari bilan ta’minlashini e’tirof etgan³.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro Afg’oniston, Eron, Hindiston va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarda bo’lgan. U Buxoroning Kobul bilan savdo munosabatlaridagi muhim rolini, hamda uning Rossiya bilan Afg’oniston o’rtasidagi savdo aloqalaridagi o’rnini alohida ta’kidlaydi. Jumladan, Buxorodan Kobulga an’anaviy tovarlar: ipak, echki juni, bo’z, viboyka va ko’proq rus tovarlari: mis, qozon, sandiq, pichoq, qaychi, nina, teri, ustara, zar ip, zarrin jiyak, kashenil-deb ataluvchi qizil rangli bo’yoq, yengil ipak matolar va movut keltirilgan⁴.

Nebolsin asarda buxorolik Mir Xalimning ma’lumotlarini keltiradi. Unga ko’ra, Kobuldan Buxoroga bir yilda uch, to’rt marta savdo karvoni kelgan va har bir karvonda taxminan 200 dan 300 tagacha tuyada nil bo’yog’i keltirilgan. Yiliga 1000 tuyadan ortiq bo’yoq olib kelingan. Bu nil bo’yoqlarini hindlar va lugoni deb ataluvchi afg’on kabilalari olib kelishgan⁵.

Umuman, Afg’onistondan Buxoroga ingliz chitlari, kashmir sholisi, hind parchasi (kimxob), nil, doka, turki deb ataluvchi arzon va sifatsiz mo’yna, oshlangan va oshlanmagan kiyik terisi, ziravorlar, nasha, Multondan esa yengil va nafis ip va ipak matolar keltirilgan.

Ko’rib o’tilayotgan asarda Buxoroning Eron bilan savdo aloqalari xususida anchagina ma’lumotlar mavjud. Unga ko’ra, Buxorodan Eronga asosan qorako’l keltirilgan. Buxorodan qorako’l terisini olib ketish 1844 yildan ancha o’sa

³ Небольсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией //Записки Императорского Русского Географического общества. Кн.: X.. СПб., 1855. 167 б.

⁴ Небольсин П.И. Ўша асар. 171 б.

⁵ Ўша асар. 312 б.

boshlagan, buning sababi Buxoro amiri Nasrulloning Buxorodan inglizlarning katta boyliklarni olib ketishiga to'sqinlik qilish maqsadida o'zining savdogarlariga naqd pulga inglizlar bilan savdo qilishni qa'tiy taqiqlab quyganligi edi¹. Eron orqali ingliz savdosida vositachi bo'lgan eronlik savdogarlar Buxoro bilan savdoni yo'qotmaslik uchun qorako'lni sotib olishga majbur bo'lgan. Buxorodan Eronga qorako'ldan tashqari nil, kashmir sholisi, ro'mol, koshenil (qizil rangli bo'yoq), rus chiti, nanka-deb ataluvchi sariq rangli dag'al ip gazlama, baxmal, bulg'ori charm, qozon, temir va sandiq keltirilgan. Buning evaziga esa Erondan Buxoroga ingliz chiti va movuti, eron parchasi, gilam, ro'mollar, yarim ipak matolar, mo'yna, feruza, muruch, zanjabil, shirinliklar, qalampirmunchoq va smolka keltirilgan².

Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, Buxorodan Eronga mahalliy tovarlar qatori rus tovarlari ham olib ketilgan ekan. Nebolsinga Buxoro bozorlariga Erondan mahalliy mollar qatori ingliz tovarlarining keltirilishi yoqmagan. Ma'lumki, bu vaqtlarda Eron savdogarlari nafaqat O'rta Osiyo bilan jadal savdo aloqalari o'rnatgan, hattoki, ular O'rta Osiyoning Orenburg va Orsk shaharlariga boradigan karvonlariga hamroh ham bo'lishgan edilar. Orenburg chegara bojxonasining Orenburg general-gubernatoriga bergan bildirishnomasida, 1809 yil iyul oyida Orenburgga kelgan Buxoro karvonlari tarkibida oltita Eron savdogarlari bo'lganligini ma'lum qilgan³.

Buxoro orqali Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga olib ketiladigan an'anaviy eron tovarlari orasida juda ko'p feruza va qo'zi terilari bo'lgan.

Nebolsin O'rta Osiyoni o'rganayotgan boshqa tadqiqotchilar kabi, O'rta Osiyo bozorlariga Eron va Hindiston orqali ko'plab ingliz tovarlarining kirib kelishidan xavotirga tushgan. U O'rta Osiyo aholisining rus tovarlariga ehtiyojini o'rganib chiqib, bu tovarlarning bir qismi Buxoro orqali Hindiston, Eron, Afg'oniston bozorlariga yetib borishini ta'kidlaydi. U Rossiyadan O'rta Osiyoga tillo, kumush, mis, cho'yan, temir, metal buyumlar, teri, bo'yoq, qand, movut, chit va turli ip va ipak matolar keltirilishini ta'kidlab, Buxoro biror bir mamlakatdan rus metal buyumlariga o'xshash tovarlarni bunday arzon narxlarda sotib olishi mumkin emas, deb yozadi⁴.

Nebolsin, inglizlar Buxoro bozorlaridan rus savdosini siqib chiqarish maqsadida har xil usullarni qo'llab ko'rganligini tashvishlanib yozgan edi. Ingliz hukumati O'rta Osiyoga Hindiston orqali o'z ayg'okchilarini va siyosiy josuslarini yuborib, ma'lumotlar to'playdiki, bu ma'lumotlar inglizlarning O'rta Osiyoga uyushtiradigan bosqinchiligiga tayyorgarlikni yengillashtirishi kerak edi. Ular bu maqsadga, boshqacha usul, yani iqtisodiy tazyiq o'tkazish yo'li bilan ham erishmoqchi bo'lishgan. Buning uchun britaniya tadbirkorlari ingliz tovarlarini O'rta Osiyo bozorlarida juda past narxlarda sotishgan. Rus savdosini sindirish

¹ Ўша асар. 170 б.

² Небольсин П.И. Ўша асар. С.170.

³ Валиева Д.В. Среднеазиатско-иранские торговые отношения в первой половине XIX в. // Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран в XVIII-начале XX в. Ташкент. 1963. С.52.

⁴ Небольсин П.И. Ўша асар. С.302, 324.

maqsadida 1841- 1842 yillarda Buxoro bozorlariga shu darajada ko'p tovarlar olib kelib, juda past narxlarda sotishganki, aholi rus tovarlariga umuman qaramay qo'yishgan. Shu yo'l bilan rus savdogarlarini savdodan chetlatib, bir-ikki yildan so'ng tovarlarning narxini ikki barobarga ko'tarib yuborgan⁵.

Shunday qilib, P.I.Nebolsinning asari Buxoroning Rossiya, Afg'oniston, Hindiston va Eron bilan savdo aloqalarini o'rganishning muhim yakuni bo'ldi. Nebolsin rus burjua doiralari tarafdori sifatida diqqat e'tiborini kelajakda Rossiyaning O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro bozorini egallash masalasiga qaratdi. Shuning uchun, u O'rta Osiyo bozorlariga ko'plab ingliz tovarlarining kirib kelayotganligini, hamda rus tovarlari bilan raqobatlashayotganligini tashvish bilan yozgan. Qoloq krepostnoy Rossiya sanoatining rivojlangan ingliz sanoati bilan raqobatlasha olmayotgan bir sharoitda, Nebolsin bu iqtisodiy tanglikdan chiqib ketishni O'rta Osiyoni Rossiyaga qo'shib olish bilan hal qilish kerakligini taklif qilgan. Uning fikricha, siyosiy yo'l bilan O'rta Osiyo bozorlarini ingliz tovarlari uchun yopib qo'yib, uni rus kapitalizmining monopoliyasiga aylantirish kerak edi. Bu yo'l esa rus kapitalistik doiralarini Hindiston, Eron va Afg'oniston bozorlariga kirib borishini tezlashtirgan bo'lardi.

XIX asrning 50-yillari oxiriga kelib ingliz tovarlarining O'rta Osiyo bozorlariga ko'plab kirib kelishi kuzatiladi. O'rta Osiyo bozorlariga hind eksporti 6 mln. ser. rub.ga (kumush tanga birligiga) oshib ketgan¹. Aksariyat rus mualliflarining asarlarida, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi bilan O'rta Osiyo bozorlaridagi ingliz-rus raqobatini ruslar foydasiga hal qilish mumkin, degan fikr ilgari surilgan.

XIX asrning 50-yillarida jahon iqtisodiy inqirozi natijasida Rossiyada ishlab chiqarish qisqarib ketadi va tashqi savdo hajmi kamayadi, hamda Qrim urushidagi chorizmning mag'lubiyati natijasida Rossiyaning umumiy tashqi siyosiy ahvoli og'irlashib qoladi. Imperiyaning savdo sanoat doiralari mavjud holatdan chiqib ketishning birdan bir yo'li sifatida rus tovarlari uchun bozorlarni kengaytirish zarurligini e'tirof qilgan.

Bu vaziyatdan chiqib ketishning eng maqbul yo'li O'rta Osiyo bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, Turkistonning yangi bozorlarini bosib olish va egallash edi. O'rta Osiyo xomashyoning muhim manbai, eng avvalo, rus to'qimachilik sanoati uchun paxta bo'lishi mumkin edi. Bu esa rus publisistikasida O'rta Osiyoning hayoti va tarixi masalalarining keng ko'lamda o'rganilishiga sabab bo'ldi.

Rus publisistikasida O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro muammosi ingliz-rus raqobati ta'siri ostida yoritila boshlandiki, natijada Rossiyada bu masala doirasida ko'plab asarlar paydo bo'la boshladi. V.V.Grigoryev, V.Dolinskiy, Yu.A.Gagameyster, Kazalinskiy, A.N.Teterevnikov, M.Mixaylov, A.Gluxovskiylar o'z asarlarida to'g'ridan to'g'ri rus kapitalistik doiralarning manfaatlarini himoya qilib, O'rta Osiyo masalasini faqat, siyosiy jihatdan hal qilish, ya'ni mintaqani, xususan, Buxoro xonligini Rossiya imperiyasiga qo'shib olish yo'li bilan hal qilishdan iborat, deb hisoblashgan.

¹ Русские и английские интересы в Средней Азии //Политико-экономический указатель. 1859. №.35.

Shunday qilib, XIX asrda Buxoro xonligining iqtisodiy ahvoli, uning qo'shni sharq davlatlari bilan aloqalari to'g'risida anchagina materiallar to'plandi. Ayrim asarlarda Buxoro tashqi savdosi muammosi masalasi ko'rib chiqilgan, jumladan, Ye.K.Meyendorf va N.V.Ханыковlarning asarlarida tashqi savdo masalasini Buxoroning umumiy iqtisodiy hayotini tahlil qilish orqali ko'rib chiqqan.

Rus tadqiqotchilari Buxoro xonligi ijtimoiy va siyosiy ahvolining og'irlashishiga qaramasdan, amirlik poytaxti Osiyo tranzit savdosining muhim markazi bo'lib qolganligini, uning qo'shni davlatlar bilan aloqalari kengayganligini va jo'shqin bo'lganligini e'tirof etishgan.

XIX asr o'rtalariga kelib, rus publisistikasida O'rta Osiyo bozorlarida Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi raqobatda Rossiyaning ustun kelishi masalasi yetakchi o'rinni egalladi. Unda, faqatgina siyosiy jihatdan u yoki bu ko'rinishda Buxoro Rossiya tomonidan egalab olinmas ekan, Buxoro bozorlarini iqtisodiy jihatdan egallash bilan muammoni hal qilib bo'lmasligi e'tirof etila boshlangan edi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, rus-buxoro iqtisodiy aloqalari masalasini yoritishda rus tadqiqotchilari rus sanoatchilari doirasi manfaatlarini himoya qilib chiqib, Sharq mamlakatlari Rossiyadan Angliyaga nisbatan ko'proq ehtiyojiga zarur bo'lgan tovarlarni olar edi, deb to'g'ri e'tirof etgan.

Asarlarda Buxoro xonligining Hindiston, Eron, Afg'oniston bilan an'anaviy savdo aloqalaridagi tovarlarning ro'yxati va tarkibi chuqur tahlil qilingan. Umuman, Buxoroning chetga tovarlar chiqarishi hali ham ko'p bo'lishiga qaramasdan (bu asosan qorako'l hisobiga), uning sanoat ishlab chiqarishi jihatidan qoloqligi sababli xonlikning iqtisodiyoti sezilarli tarzda ortda qola boshlaganligi eslatiladi. Bu holat esa mamlakatdan qimmatbaho madanlarning Sharq davlatlariga olib chiqib ketilishining ortishiga sharoit yaratdi.

Rus tadqiqotchilari Buxoro-Rossiya savdosining muhim ahamiyatga ega ekanligini, xonlikning rus tovarlarini sharq mamlakatlariga yetkazib berishdagi vositachilik roli ortib borganligini haqqoniy e'tirof etgan edilar.

XIX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo va xususan Buxoro haqidagi rus asarlari diqqat markazida Sharq bozorlari uchun kurashda ingliz-rus raqobati keskinlashib borayotgan bir sharoitda Turkistonning kelgusi taqdiri masalasi ko'ndalang turgan edi. Endilikda esa ko'proq, Buxoroning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari ahvoli va kelajak taqdiri masalasi, O'rta Osiyo bozorlarida qaysi buyuk davlat Angliya yoki Rossiya ustunlik qiladimi degan nuqtai nazardan tahlil qilina boshlangan. O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilishi jarayoni boshlab yuborilgan davrda, ya'ni XIX asrning 50 yillari oxiri – 60 yillari boshlarida rus publisistikasida asosiy e'tibor «buxoro masalasi»ga qaratiladi. V.V.Grigoryev, P.I.Nebolsin, A.N.Teterevnikov, A.Gluxovskiylar rus kapitalizmi manfaatini himoya qilgan holda Buxoro iqtisodiyotini egallash va undan foydalanish bo'yicha turli xil takliflar va loyihalarni kiritish boshlagan.

Rus tadqiqotchilari uchun 1868-1873 yillarda Buxoroning Rossiyaga vassal bo'lib qolishi bilan Buxoro xonligini xom ashyo bazasi va kengayayotgan rus

kapitalistik tovarlarini sotadigan bozor sifatida foydalanishni baholaydigan yangi vaziyat vujudga keladi.

XIX asrda Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari

Xiva xonligining qo'shni sharq davlatlari bilan savdo aloqalarini o'rganish uning Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari majmuida ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan tashqi iqtisodiy aloqalari so'nggi o'rta asrlarda yildan – yilga tobora jadallashib borganligi va Rossiya tovarlari O'rta Osiyo xonliklari orqali Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlarga kirib borganligi kuzatiladi.

Demak, Xiva Rossiya bilan na faqat siyosiy va iqtisodiy munosabatlar o'rnatgan, hattoki u Rossiyaning sharq davlatlari bilan aloqasida vositachi davlat ham bo'lgan. Rossiyaning Xiva va Buxoroga va ular orqali sharq davlatlariga jo'natgan savdogarlari va missiyalarining yozma bildirishnomalari, hisobotlari biz uchun manba vazifasini o'taydi, chunki ularda Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayoti haqida batafsilroq malumotlar talayginadir. Masalan: N.A.Xalfin Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarida xivaliklarning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Xivaliklar tuyalarda tovarlar bilan Buxoroga borishgan, u yerda buxoro tovarlari va chet el mollarini olib Orenburg, qirgiz cho'llari orqali, yoki Mang'ishloq va Kaspiy dengizi orqali Astraxanga borishgan².

O'rta Osiyo bilan Hindiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalari to'g'risida XIX asrning 30-yillari boshlarida maxfiy topshiriq bilan Buxoroga safar qilgan ingliz agenti Aleksandr Borns ko'p xarakterli ma'lumotlar beradi. A.Borns Astrobod bilan Xiva savdo aloqalari yo'lining notinchligi va doimiy hujum xavfi tufayli unchalik taraqqiy etmaganligini bayon qiladi. Astrobodga bir yilda bitta yoki ikkita Xiva karvoni kelgan bo'lib, ularning har birida 80 yoki 100 tuya yuk keltirilgan. Borns xabariga ko'ra, Xiva bilan Astrobod oralig'i karvon uchun xatarli bo'lganligi sababli savdo karvonlari Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlari bo'ylab yurgan³.

XIX asrning 30-yillari boshlarida O'rta Osiyo bozorlarida ingliz va rus tovarlari o'rtasidagi raqobat tobora kuchaya boradi. Shu davrlarda ingliz tovarlari Afg'oniston orqali O'rta Osiyo xonliklariga, rus tovarlari esa O'rta Osiyo xonliklari orqali Afg'onistonga ko'proq kirib kela boshlaydi. Natijada afg'on savdogarlari xalqaro savdo munosabatlariga tobora keng jalb qilina boshlangan. A.Borns xabariga ko'ra, afg'on savdogarlari rus yarmarkalariga ham tashrif buyurishgan. Buxoro savdogarlari afg'on savdogarlarining ingliz tovarlarini O'rta Osiyo bozorlariga olib kelayotganligidan naroz bo'lishgan⁴.

1838 yilda Qandahor, G'azna, Kobul, Qunduz, Balx, Buxoro kabi Xiva karvonsaroylari ham nil bo'yog'iga to'lib ketgan. Ma'lumotlarga ko'ra 1838 yil

² Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX в.). М., 1974.

³ Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. II. М., 1949. с. 172.

⁴ Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений. Т. 1971. с. 38.

Buxoro bozorlarida nilning pudi ikki tillo-yu to'rt yoki besh tangadan sotilgan. Lekin o'sha yillardagi bo'yoqlar sifati avvalgilardan ancha past bo'lgan ekan. Shuning uchun nilning narxi tushib ketgani rost emish. Bundan avg'on savdogarlari sezilarli zarar ko'rishgan. 1838 yili har bir tuya yukdan (16 pud) bir tillodan zarar ko'rilgan ekan⁵.

Orenburg general-gubernatori Perovskiy ham afg'on savdogarlarining Buxoro va Xivaga ko'plab ingliz tovarlarini olib kelayotganligini e'tirof qilib, ularni rus tovarlariga nisbatan ancha past narxlarda sotayotganligidan mamnun bo'lgan. Biroq, shunga qaramasdan ingliz tovarlarining xaridorlari kam. Buning sababi afg'onlar ingliz tovarlarini Buxoro va Xiva tovarlariga ayirbosh qilmasdan, faqat naqd pulga sotishadi, deb ta'kidlagan edi⁶.

Afg'onistonning ichki va tashqi tranzit savdo aloqalarida mamlakatda yashovchi afg'on savdogarlari kabi tojiklar, hindlar va eronlik savdogarlar katta rol o'ynagan. Ko'chmanchi afg'on qabilalari hisoblangan povinda vositachi rolini bajargan. Elfinston ma'lumotiga ko'ra, povinda orasida XIX asr boshlarida 3000 f.sterl. boylikka ega bo'lgan bir nechta savdogarlar bo'lgan. Ular O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik qilgan.

XIX asrning 40-yillarida Rossiyada Xiva xonligi haqida bir qator maqolalar e'lon qilina boshlaydi. Jumladan, 1840 yilda e'lon qilingan G.Gilmersenning "Xiva, v нынешнем svoem sostoyanii" maqolasida Xivaning Afg'oniston bilan savdo qilishi, hattoki, Xivada 15 afg'on oilasi yashaganligi, ular asosan savdo qilish uchun Xivaga kelishganligi, ba'zilar tabiblik bilan ham shug'ullanganligi ta'kidlangan⁷.

U makolada karvonlardan boj solig'i pul bilan olinishi va aniq soliq miqdori belgilanmaganligi, soliq avval Urganchda, keyinchalik Xivada olinganligini xabar kiladi. U xonlikning qovun, tarvuz, qovoq, sariq va oq sholg'om, turup, sabzi, qand, no'xot, piyoz, turk loviyasi, bodring, kartoshka kabi ekin turlari haqida ma'lum kilib, Xivaning ho'l mevalarga boy emasligi sababli juda qimmat bo'lganligini va uni faqat badavlat kishilar sotib olishganligini ta'kidlagan. Mayiz va jidda Mashhaddan keltirilgan va u aroq tayyorlashda ishlatilgan. Bir pud Eron mayizi 16 tanga (8 rub.) turgan. Mahalliy uzumdan kuchsiz aroq tayyorlangan va uning bir shtofi (chelakning o'ndan bir qismiga barobar keladigan vino, aroq o'lchovi va shu miqdordagi aroq, vino) 5 tanga turgan. Bir funt olma Xozaraspda taxminan 10 kop. bo'lgan, tarvuz va qovunlar arzon bo'lib, katta qovun 3 kop.dan 5 kop.gacha sotilgan. Gilmersen Xiva qo'shinlari qilich, nayza, miltiq bilan qurollanganligi, sardorlari sovut kiyganligi, sovut Erondan keltirilganligini ta'kidlagan⁸.

1840 yilda bosilib chiqqan ikinchi maqolada Xivanig ichki va tashqi savdo aloqalari to'g'risida ma'lumot berilgan. Mamlakat ichki savdosi unchalik muhim bo'lmay, unda asosan g'alla va mayda narsalar, qullar sotilganligi xabar qilingan.

⁵ Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Выр. из жур. «Мануфактура и торговля». 1840. Хмыр кол. Средняя Азия. Т. 1.

⁶ Соколов А.Я. Ўша асар. с.38.

⁷ Гильмерсен Г. Хива в нынешнем своем состоянии. Выр. «Отечественные записки». 1840. с. 105.

⁸ Ўша асар. с. 117, 121.

Mazkur maqolada Xiva butun Osiyoning savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgan, undan Hindiston, Xitoy, Eron, umuman Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlariga boradigan yo'llar boshlanadi, deb uning geografik jihatdan qulay ekanligini e'tirof qila turib, yana Xivaning cho'l zunasida joylashganligi uchun o'zining mahsulotari bilan keng savdo qilolmaydi, deb qo'shib qo'yilgan. Xiva Rossiyaga boradigan hamma qisqa savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgani uchun Osiyo tovarlari uchun ombor vazifasini o'taydigan joy bo'lib qolgan. Sartlar Osiyoning turli joylaridan tovarlar sotib olib, ularni Orenburg va Astraxanga yetkazib bergan va u yerda o'z tovarlarini yupqa movut, barxat, kumush, tillo, qand, igna, ustara, pichoq, yupqa bo'z, ko'zgu, qog'oz, mis, qo'rg'oshin va cho'yan idishlar, hamda boshqa Yevropa tovarlariga ayirbosh qilgan⁹.

1840 yillarda Buxoroda bo'lgan Xanыkov Buxoroning Xiva bilan savdo munosabatlari haqida ma'lumotlar qoldirgan. Amudaryodan yozda o'tish qiyinligi sababli Buxoro Xivaga kuzning oxirlari va qishda savdo karvonlari jo'natgan. Xivadan Buxoroga asosan olma va oshlanmagan teri keltirilgan. Muallifning yozishicha, faqat shu ikki tovar bilan Buxoroda savdoni davom ettirish qiyin, shuning uchun xivaliklar Orenburgdan cho'yan va teri buyumlarini ko'proq sotib olib Xivaga keltirishgan. Rus metal buyumlarining bir qismi Buxoroga ham olib borilgan¹⁰.

Xiva xonligi haqidagi ma'lumotlardan biri 1843 yili «Мануфактур и торговля» jurnalida nashr qilingan maqola hisoblanadi. Unda yozilishicha, Rossiya, Eron, Qo'qon va Buxorodan metal buyumlar: qo'rg'oshin, iss, temir, cho'yan oladi. Xiva tovarlari tuya va kemalarda suv yo'li orqali Rossiya, Eron va Buxoroga olib borilgan.

Maqolada 1837 -1838 yillardagi tillo va kumush tangalar kursining muntazam o'zgarib turishi haqida ma'lumot beriladi. Xabardan Xivada muomalada bo'lgan pullar kursi haqidagi ma'lumot ham o'rin olgan. Unda yozilishicha Xivada tillo pul zarb qilingan. 1 tillo 26-35 tanga yoki 15 rub.ga teng kelgan, 2 tanga (kumush pul) 1 abbosiy chaqaga teng kelgan, 1 abbosiy 1 rub.ga tenglashtirilgan. Demak, 1 tillo qiymat jihatidan 15 rub.ga mos kelsa, u holda 1 tanga 50 rus kop.ga to'g'ri kelgan. O'sha paytda tillo va mis narxi oshib ketgan, ammo Erondan olinadigan kumush narxi pasayib ketgan ekan, tillo 15 rub.ga ko'tarilgan.

Mazkur makolada Xiva orqali Rossiya Eron va Buxoro bilan savdo qilishi va Xivadan ketadigan tuyadan bir zolotnikdan, Xivaga kirib keladigan tovarlardan esa 1/40 miqdorda soliq olinishi xabar qilingan. Bozorlarda va savdo bo'ladigan joylarda boj solig'i olingan. Sotilgan tuya uchun xazinaga 3 rub., ot, ho'kiz va qoramol uchun 1 r., qo'ydan 50 kop. soliq olingan¹¹.

G.I.Danilevskiyning «Описание Хивинского ханства» asaridagi ma'lumotlar orasida Xivaning Qo'qon kabi Hirot va Mashhad bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalariga ega emasligi, vaholanki, savdo karvonlari Erondan to'g'ri Marv orqali

⁹ Хива, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства, состоящего теперь в войне с Россией, заимствованное из разных отечественных и иностранных писателей, с изображениями костюмов и вида города Хивы. М.: 1840. с. 79.

¹⁰ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843.

¹¹ Сведения о Хивинском ханстве. Выр. из жур. "Мануфактур и торговля". 1843. Хмыр. кол. Т. 9. С. 105, 129, 130, 149."

o'tib, Xiva xonligining hyech qayerida to'xtamay to'g'ri Buxoroga o'tib ketishi qayd etilgan. U Xiva xonligi haqidagi barcha ma'lumotlarni tahlil qilib, Xiva uchun yagona va mumkin bo'lgan savdo Rossiya bilan savdodir, degan xulosaga kelgan. Xivaliklar o'zining karvonlirini rus tovarlari bilan to'ldirib Xivaga olib ketishi mumkin, deb hisoblagan. Boshqa mualliflar kabi, G.I.Danilevskiy Xivada musulmon savdogarlardan 2%, rus savdogarlaridan 5% boj solig'i olinganligini ta'kidlaydi. Masalan deydi u, 1842 yil Rossiyaga keltirilgan va olib ketilgan tovarlar 700000 rub.gacha yetgan bo'lib, boj solig'i 35000 rub.ni tashkil qilgan¹².

1850-54 yillarda Rossiyaga Buxorodan Orenburg va Troisk orqali 1193 r. 43 k.lik jami 60 p. 51 f., Toshkentdan Troisk orqali 21300 r.27 k.lik 1,317p. 34 f. choy keltirilgan. Demak, choy asosan Xitoydan Toshkent orqali Rossiyaga ko'prok keltirilgan ekan. 1853 yilda Xivadan Rossiyaga 160 r.s.ga 4 pud indigo keltirilgan¹³.

P.Nebolsin ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Xiva Eron va Buxoro bilan savdo qilgan bo'lib, Erondan, deyarli birgina Mashhaddan Xivaga uzunligi 36 arshin (0,711 metr ga teng uzunlik o'lchovi), ya'ni 25 metr) va eni 11-12 vershok (4,4 sm ga barobar uzunlik o'lchovi) ya'ni 48,4-52,8 sm lik) mayda gullik va qirg'oqlari yashil yirik guldastali chit o'ramlari keltirilgan. Bunday chitlarning bir bo'lagi 1,5 tillodan 2 tillagacha sotiladi. Bu tovarlar evaziga Xiva Eronga tanga pul, rus va mahalliy charm, rus movuti, xiva ipagi, kunjut va boshqa buyumlarni chiqaradi. Xivaga Koshg'ardan Qo'qon orqali ko'k choy keltirilgan¹⁴.

XIX asr 70-yillarida nashr qilingan maqolada Xivaning Astrobod bilan savdo aloqalarida yovmud turkman qabilasi faol ishtirok etgan bo'lsa, cho'l orqali Mashhad Buxoro savdosida esa tekke turkman qabilalari qatnashganligi hikoya qilinadi. Cho'l xududlaridan Xivaga va u yerdan Buxoroga asosan qullar, otlar, tuyalar, qo'ylar, gilamlar, kiygiz va mayda qaqir-ququrlar olib borilgan. Qullar fakat pulga sotilgan, kolganlari esa ayirbosh qilingan. Xiva va Buxorodan g'alla, qo'zi terisi, rus metal buyumlari va ip gazlamalar turkman qabilalariga chiqarilgan¹⁵.

Xiva va cho'l xududlari orqali savdo aytaylik asrlar davomida davom etib kelmaganda edi, XIX asrning 70-yillarida bu darajadagi savdo haqida gap bo'lishi ehtimol edi. Xulosa shulkim, Xiva va Turkmanlar yurti o'rtasidagi savdo o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganki, buni sotiladigan tovarlar ro'yxati ham tasdiklaydi. Xivaning

Astrobod bilan savdosi esa yovmud qabilalari orqali amalga oshirilgan bo'lib, yovmud turkmanlari 100-150 tuyada taroq uchun ishlatiladiga qoraqayin daraxti va unchalik ko'p bo'lmagan neft keltirishgan. Eronga chegaradosh turkmanlar ot, tuya, qo'y, gilam, to'z, neft chiqargan, uning o'rniga Erondan qurol, yog'och, porox, tamaki, bo'yok va mevalar keltirilgan¹⁶.

Xulosa shulkim, mavjud manbalar, elchi va savdogarlarning ko'rsatmalari,

¹² Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО, 1851. Кн.: 5. с. 136.

¹³ Григорьев В.В. Разбор сочинения П.И.Небольсина: "Очерки торговли России с Среднею Азиею".1856. с. 175.

¹⁴ Небольсин П. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. СПб., 1856

¹⁵ Наши слеседи в Средней Азии. Хива и Туркмения с большою картою. СПб., 1873. с. 34.

¹⁶ Ўша асар. 123-б.

fundamental asarlar, hamda rus axborotida e'lon qilingan maqolalar bizga Xiva xonligi haqida, qolaversa xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida muhim ma'lumotlarni berishi bilan hanuzgacha o'z qadrini saqlab qolmoqda. Ko'rib o'tganimizdek, Xiva xonligi XIX asrda Rossiya bilan juda yaqin savdo-iqtisodiy munosabatlariga kirishgan. Xonlik an'anaviy savdo aloqalarini davom ettirgan holda Buxoro, Eron va Hindiston bilan ham munosabatlarni jadallashtirgan. Hattoki, xonlik Rossiya bilan sharq davlatlari o'rtasidagi savdo munosabatlarida vositachi davlat vazifasini ham bajargan.

Savollar:

Referat mavzulari:

1. Xiva xonligining qo'shni davlatlar Bilan savdo-iqtisodiy aloqalari.
2. Ingliz tadqiqotchilari ma'lumotlarida Xiva xonligining savdo munosabatlari masalasining yoritilishi.

Savollar:

1. A.F.Negri ekspeditsiyasi va uning qatnashchilarining ma'lumotlarini taqqoslang?
2. Ingliz sayyohlarining Buxoro xonligiga jo'natilishidan ko'zlangan maqsad nimadan iborat edi?
3. Rossiyadan Buxoroga nima maqsadda maxfiy elchiliklar jo'natilgan edi?
4. "Buxoro masalasi" deganda nimani tushunasiz?

-
1. Rus manbalarida Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari qanday yoritilgan?
 2. Rus va ingliz ekspeditsiyalari ma'lumotlari va ularda ilgari surilgan g'oyalar nimadan iborat edi?
 3. Xiva-Eron savdo aloqalarida turkman qabilalarining o'rni?

Referat mavzulari:

1. A.F.Negri ekspeditsiyasi va uning ahamiyati.
 2. XIX asrning 30-40 yillarida Buxoro amirligiga jo'natilgan Rossiya elchiligi.
 3. XIX asrning o'rtalarida Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari.
-

3-Mavzu: Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi va xonlik va amirlikning qulashi.

Reja:

- 1) Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Yosh xivaliklar faoliyati.
- 2) Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi.
- 3) Buxoro amirligidagi vaziyat. Yosh buxoroliklar harakati.
- 4) Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi.

Asosiy adabiyotlar: 3,5,6,18,49,61,75,82,83

Qo'shimcha adabiyotlar: 84,85,87,88,93

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar: XIX asr 60 yillarida Buxoro amirligida xarbiy siyosiy vaziyat. Amir qo'shinlarining mag'lubiyati, Buxoroning Rossiya vassalligiga aylantirilishi. Xiva xonligi xududlarining bosib olinishi, xonlikning Rossiya vassalligiga aylantirilishi.

Dars maqsadi: Talabalarga Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi va xonlik va amirlikning qulashi nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish, shuningdek turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan mavzuga doir berilgan ta'riflarni talabalarga tushuntirish, mavzuning dolzarb ekanligidan talabalarni boxabar etish.

Dars o'tish vositalari: (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug'atlar)

Dars o'tish usullari: Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o'zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o'tkazish, erkin fikrlash va so'zlashga o'rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o'tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi va xonlik va amirlikning qulashi nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqyealarni tahlil etishga o'rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o'rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ **Darsning xrono kartasi – 80 minut.**

O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ **Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut**

❖ **Talabalar bilim darajasini aniqlash-8 minut**

❖ **Yangi mavzu bayoni – 50 minut**

❖ **Mavzuni o'zlashtirish darajasi – 7 minut**

❖ **sinov savollar namunasi – 10 minut**

❖ **Uyga vazifa berish – 3 minut**

1-masala:

Ma'lumki, Xiva xonligi hamda Buxoro amirligi XIX-asr ikkinchi yarmida yuz bergan chorizm bosqinidan keyin o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, Rossiya protektorati (vassalligi)ga aylanib qolgan edi. Garchand, ichki siyosatda nisbatan mustaqil bo'lsalarda, biroq ularning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan tashqi

siyosiy va savdo-tijorat aloqalari Rossiya hukumatining to'liq nazoratida amalga oshirilardi.

Haqiqatdan ham Xiva xonligining butun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-xo'jalik hayotida rus mustamlakachiligi siyosatining kuchli ta'siri va asorati sezilib turardi. Buning ustiga mamlakatning xonidan tortib to uning son-sanoqsiz, kattayu-kichik amaldorlari xalqqa keragidan ziyod jabr-zulm o'tkazib kelardilar. Shu bois xonlikda ommaviy norozilik harakatlari to'xtovsiz yuzaga kelib, kuchayib bormoqda edi. Ayniqsa, 1917-yilgi fevral inqilobiy o'zgarishidan keyin Xivada ilg'or demokratik harakatlar avj oldi. Endilikda Xiva xonligi fevral o'zgarishidan foydalanib, o'zini Rossiya ta'siridan xalos etib, mustaqillik maqomini qo'lga kiritishga intildi. Ayni chog'da xonlikning jafokash xalqlari hukmron sinflar va tabaqalar zulmidan qutulib, keng demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lishga umid bog'ladilar.

Xiva xonligi hududida aholi keng ijtimoiy qatlamlarining demokratik yo'nalishdagi harakati o'sib bordi. Ularning sa'y-harakatlariga Yosh xivaliklar tashkiloti rahnamolari yetakchilik qildilar. XX-asr boshlarida vujudga kelgan Yosh xivaliklar uyushmasi o'zining dastlabki qadamlaridanoq xonlikdagi mustabid tuzumni chuqur isloh qilish, xalqning ahvolini yaxshilash, uning tub maqsad va manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash olib bordi. 1917-yil boshlarida Rossiyada bo'lgan o'zgarishlar ta'sirida Yosh xivaliklarning faoliyati yanada kuchaydi. Ular dasturiy vazifalarini belgilab, xonlikdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirish va qator muhim demokratik islohatlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Yosh xivaliklar rahbarlari xonlikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tinchlik yo'li bilan, asta-sekin mutlaq monarxiya tuzumidan konstitutsion monarxiya boshqaruviga o'tishga qaratilgan manifest ishlab chiqdilar. Manifestda xonning vakolatlari doirasini cheklash, xalqqa zulm o'tkazgan amaldorlarni jazolash va vazifasidan mahrum etish, ijtimoiy hayotning muhim sohalari – iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat jabhalarini isloh qilish talablari aks ettirilgandi. Xivadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin tus olayotganini, keng aholi qatlamlari faol harakatga kelayotganini, ommaviy ko'cha namoyishlari to'xtamayotganini ko'rgan Xiva xoni Isfandiyorxon murosaga borib 1917-yil 5-aprel kuni Manifestni imzolashga majbur bo'ladi.

Manifest talablariga ko'ra xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda tarkibi 30–50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan saylangan Majlis va Nozirlar Kengashi tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada cheklab qo'ydi. Majlis raisligiga Yosh xivaliklar tashkilotining taniqli rahnamolaridan Boboovun Salimov saylangan bo'lsa, Nozirlar Kengashi raisligiga esa Husaynbek Matmurodov saylandi. Xon xazinasi va uni tasarruf qilish ustidan nazorat o'rnatildi. Xon temir yo'llar qurish, pochta-telegraf aloqalari o'rnatish, yangi jadid maktablari ochish to'g'risida va'dalar beradi. Yosh xivaliklarning bu g'alabasi mamlakatdagi barcha demokratik kuchlarga, erk va ozodlikka tashna xalq ommasiga quvonch bag'ishladi.

Biroq xon va uning atrofidagi mutaassib kuchlar qo'ldan ketgan nufuz va imtiyozlarni qaytarib olish niyatidan voz kechmagandilar. Ular fursat kutib,

demokratiya tarafdorlaridan qonli o'ch olish, mustabid tuzumni to'la qayta tiklash payida bo'ldilar. Darhaqiqat, 1917-yil iyuniga kelib Isfandiyorxon o'zini o'nglab olgach, Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili, general Mirbadalov yordamiga tayanib, Matmurodov boshchiligidagi Yosh xivaliklar rahbar guruhini qamoqqa oladi. Yosh xivaliklar partiyasi va uning faoliyati qonundan tashqari deb e'lon qilina di. Iyul oyida Xivada Rossiya Muvaqqat hukumatining komissari lavozimi ta'sis etiladi va xonlikka qo'shimcha harbiy qismlar, kazak qo'shinlari yuboriladi. Muvaqqat hukumat butun choralar bilan Sharqdagi o'z pozitsiyalarini saqlab qolish va mustahkamlashga intildi.

Shunday qilib, Yosh xivaliklar rahbarlik qilgan demokratik kuchlarning xonlik tuzumiga qarshi olib borgan kurashining birinchi bosqichi muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Yosh xivaliklar boshqa kuchlar bilan ittifoq tuzmay, faqat o'z tarafdorlari bilangina harakat qilib, mutaassib qora kuchlarni yengib, tugal maqsad-muddaolariga erishib bo'lmasligini tushunib yetdilar. Bunday vaziyatda ular eng avvalo, qo'shni Turkistonda faol harakat qilayotgan demokratik va inqilobiy kuchlardan, ularning yo'l boshchilaridan madad olish, ular bilan yaqindan aloqalar bog'lashga intildilar.

2-masala:

1917-yil kuzida Rossiyada yuz bergan oktabr o'zgarishi uning tasarrufidagi Xiva xonligidagi voqealarning rivojlanish jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Avvalo, xonlikka tutash bo'lgan Turkiston hududlarida bolsheviklarning sovet hokimiyati zo'ravonlik bilan o'rnatildi. Garchi sovet Rossiyasi Xivaning davlat mustaqilligini rasmiy tan olgan bo'lsada, biroq turli yo'llar bilan, yashirin va oshkora tarzda uning ichki ishlariga aralashishni davom ettirdi. Ayniqsa, bunda xonlikdagi mavjud hukmron tuzumga qarshi turgan kuchlarni qo'llab-quvvatlash, ularga harbiy, moliyaviy va ma'naviy yordam ko'rsatish hamda gij-gijlashga alohida e'tibor berildi.

1917-yil kuzidan boshlab xonlikning siyosiy ahvoli keskinlashib bora boshladi. Isfandiyorxon har qanday yo'l bilan o'z saltanatini saqlab qolishga intildi. Uning yuritgan kalabin siyosati, ilg'or kuchlarni quvg'inga duchor etishi, Yosh xivaliklar tashkilotini tor-mor etib, ularning rahbarlaridan o'ch olishi xonlikni tang ahvolga duchor etdi. Mamlakatdagi vaziyatni boshqara olmay qolgan xon o'z raqibi, ancha ta'sirli kuch egasi, turkmanlar sardori Junaidxonni 1918-yil yanvar oyida Xivaga chaqirib, uni o'z qoshiniga bosh qo'mondan (sardori karim) etib tayinlaydi. Ikkinchi tomondan Rossiya sovet hokimiyati 1917-yil oktyabr to'ntarilishidan so'ng Xorazmga xon faoliyatini nazorat qilish uchun katta harbiy qo'shin yubordi. Hokimiyatni bolsheviklar egallab olish xavfi paydo bo'ldi. Isfandiyorxon mana shundan ham cho'chigan edi. Junaidxon tez orada Isfandiyorxonni qatl ettirib, uning o'rniga xonning akasi, irodasiz Said Abdulloni xon qilib ko'taradi. Amalda esa Junaidxon yakka hukmron bo'lib oladi.

Bolsheviklar va sovet hokimiyatining ashaddiy dushmani Junaidxon hokimiyatni egallab olgach, sovetlarga qarshi ochiq kurashga kirishadi. U o'z harbiy kuchlarini 10 ming jangchiga yetkazadi. Shuningdek, Buxoro amirligi bilan aloqalar bog'laydi. Angliya hukumati tomonidan harbiy madad olishga intiladi. Biroq, Junaidxon harbiy qismlarining Amudaryo bo'limi va Nukus atrofida sovet

kuchlari bilan olib borgan hujum harakatlari magʻlubiyatga uchraydi. Junaidxon oʻrnatgan harbiy diktatura aholi oʻrtasida norozilik harakatlarining oʻsib, kuchayib borishiga ham sabab boʻladi. Buning natijasida xonlikni tark etib, qoʻshni Turkiston ASSR hududlariga boruvchi qochoqlar soni ortib boradi. Xivadagi voqealar rivojini koʻz-quloq boʻlib kuzatib borayotgan sovet tomoni qulay fursatni boy bermay, xonlik aholisining norozilik harakatiga tobora inqilobiy tus berib bordi. Shu maqsadda sovet mutasaddilari qochoqlardan jangovar qismlar tuzib, qurollantirib, ularni xonlik tuzumini agʻdarishga safarbar eta bordi. Sovet Turkistoni rahbarlari bu bilan ham kifoyalanmasdan Amudaryo boʻlimida (Toʻrtkoʻlda) N.A.Shaydakov va N.M.Shcherbakov boshchiligidagi shimoliy va janubiy harbiy dastalar tuzib, ularni xonlik tuzumiga qarshi harakatga yoʻlladi. Bu endi xonlik hokimiyatini agʻdarib tashlashga qaratilgan sovetlarning ochiqdan-ochiq zoʻravonligi edi. Xonlikda kechayotgan zulmdan norozi boʻlgan 3 mingga yaqin mahalliy qoʻzgʻolonchilar va sovet qoʻshinlari 1919-yil dekabr oyining soʻnggi oʻn kunligida Junaidxonga ketma-ket zarbalar berib, Xiva tomon siljib bordi. 1920-yil 2-fevralda Xiva egallandi. Junaidxon qolgan-qutgan qoʻshini bilan Qoraqum sahrosiga chekindi. Qoʻgʻirchoq xon Said Abdullo taxtdan voz kechdi. Shu tariqa, qizil armiya kuchi va madadi bilan Xiva xonligi agʻdarildi.

Hokimiyat yangidan tuzilgan Muvaqqat Inqilobiy qoʻmita qoʻliga oʻtdi. Uning tarkibiga Yosh xivaliklar 2 ta, turkman qabilalaridan 2 ta va din peshvolaridan 1 ta vakil kiritildi. Inqilobiy qoʻmita raisi etib Yosh xivaliklar rahbarlaridan biri Jumaniyoz Sultonmurodov saylandi. Tez orada Yosh xivaliklar ishlab chiqqan manifest eʼlon qilindi. Unda mamlakatning demokratik rivojlanish yoʻlini aks ettirgan keng ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy oʻzgarishlar amalga oshirilishi belgilab berilgan edi.

1920-yilning 27–30-aprel kunlari Xivada boʻlib oʻtgan xalq vakillari I Butun Xorazm qurultoyi Xiva xonligi tugatilganligi va yangidan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini eʼlon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Respublikaning oliy hokimiyati yilda bir marta chaqiriladigan qurultoy boʻlib, u respublika hayotiga daxldor eng yirik vazifalarni hal etadi. Qurultoy mamlakatni boshqarish uchun 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Xalq hokimiyatiga saylovlar umumiy boʻlib, respublikaning 18 yoshga yetgan fuqarolari dini, millati, jinsidan qatʼiy nazar qurultoy yoki mahalliy sovetlarga saylash va saylanish huquqiga ega boʻldilar. Faqat xon va uning oila-aʼzolari, ruhoniyyat vakillari, sudxoʻrlargina saylov huquqlaridan mahrum etildi. Konstitutsiya respublikaning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shariat sudi tizimini saqlab qoldi. Qurultoyda Xorazm respublikasining birinchi hukumati raisligiga Yosh xivaliklar rahbari Polvonniyoz Yusupov saylandi. Hukumat tarkibi ham Yosh xivaliklar va turkman urugʻ-qabilalari boshliqlaridan tashkil topgan boʻlib, bu oʻsha davrdagi kuchlar nisbatini aks ettirardi.

1920-yil iyunida Xivada Xorazm Kommunistik partiyasining taʼsis konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Unda XKPning tashkiliy rasmiylashuvi amalga oshadi. 1920–1921-yillarda Xorazmda kasaba uyushmalari, “Qoʻshchi” uyushmalari,

inqilobiy yoshlar ittifoqi tashkilotlari yuzaga keladi. Ularning saflari ham tez ortib bordi.

Xorazmda sovetlarning faol ko'magi, qo'llab-quvvatlashi bilan xalq sovet respublikasining vujudga kelishi, Rossiya Federatsiyasi, qolaversa, Turkiston avtonom sovet respublikasi uchun ayni muddao bo'ldi. Ular yosh respublikaga asta-sekin ta'sir o'tkazib, uni o'z domiga ilintirishga intildilar. Asosiy maqsad esa Xorazmga "beg'araz yordam" ko'rsatish, sovet tartib-qoidalarini tashkil etish orqali uni pirovardida bolsheviklar hokimiyati qo'l ostiga kiritib olish edi. Jumladan, 1920-yil 13-sentabrda Rossiya hukumati bilan XXSR o'rtasida imzolangan ittifoq shartnomasi ham asl mazmun-mohiyati bilan mana shu maqsadga xizmat qilardi. XXSR va RSFSR o'rtasida tuzilgan ittifoq shartnomasi hamda harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahdlashuvlar, bir tomondan, Xorazm respublikasi pozitsiyasining mustahkamlanishiga, ikkinchi tomondan esa uning qudratli sovet davlatiga siyosiy qaramligini yanada kuchayib borishiga xizmat qilardi. Faqatgina 1921-yil davomida uch marta (mart, sentabr, noyabrda) hukumat o'zgarishi yasali, Moskvaga ma'qul kelmagan uning tarkibi yangilandi. O'z xalqi milliy manfaatlarini yoqlab siyosat yuritgan Polvonniyoz Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadraximov bosh bo'lgan hukumat tarkiblari bekor qilindi, ularning rahbarlari asossiz qoralanib, og'ir jazolarga mahkum etildilar. Shuningdek, sovet Rossiyasi Turkiston hududidagi milliy respublikalar mustaqilligini butkul barham toptirish, ularni o'z tasarrufiga bo'ysundirish sari qat'iy yo'l tutdilar. 1923-yil martida Toshkentda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari vakillari ishtirokida konferensiya chaqirilib, unda mazkur respublikalarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish maqsadida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi. Bu esa ularni har tomonlama boshqarish tizimi murvatlari Rossiya nazorati ostiga o'tayotganidan dalolat berardi.

1923-yil oktabrida bo'lib o'tgan IV Butun Xorazm qurultoyi respublikaning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Unda amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar tahlil qilinib, uning o'z rivojlanishida sotsialistik bosqichga kirganligi ta'kidlanib, XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb e'lon qildi. Konstitutsiya yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni bekor qildi, barcha yerlar umumxalq mulki deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari Maorif nozirligi ixtiyoriga o'tdi. Bu Konstitutsiya o'zining chuqur sinfiylik mohiyati bilan ajralib turardi. Vohada yuz berayotgan majburiy yo'sindagi sotsialistik o'zgarishlar, mulkiy tabaqalarga qilinayotgan zo'ravonlik va bedodliklar mahalliy aholi noroziligining alanganib borishiga sabab bo'ldi. 1924-yil yanvarida yuz bergan xalq qo'zg'oloni ham buning yorqin ifodasidir. Garchand, qo'zg'olon qizil askarlar kuchi bilan bostirilgan bo'lsada, biroq keng xalq ommasining sovet tuzumiga qarshi kurashi 30-yillar o'rtasigacha davom etdi.

3-masala

1917-yilgi fevral burjua-demokratik inqilobi va podsholik tuzumining ag'darilishi, hokimiyatning boshqa siyosiy kuchlar qo'liga o'tishi amir Buxorosiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Negaki, chorizmning yarim mustamlakasi hisoblanib kelgan Buxoroda bu davrga kelib ichki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar jiddiy tus olib borayotgandi. Buning boisi amirlikning moliyaviy-

iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq aloqalari ko'pdan buyon Rossiya iqtisodiyotiga bo'ysundirib kelinganligida edi. Bunda uning siyosiy jihatdan qaramligini gapirib o'tmasa ham bo'ladi. Buning ustiga mamlakat ichki hayotida hokimi mutlaq, cheklanmagan vakolatlar sohibi bo'lgan amir va uning ko'p sonli ayonlari, amaldorlari mehnatkash ommaga hukm o'tkazib, zulm-sitamni kuchaytirib kelardi. Yurt fuqarolarining aksariyat ko'pchiligi adolatsizlik, huquqsizlik va demokratik erkinliklarning yo'qligidan aziyat chekardi. Shu bois amirlikda tez-tez xalq g'alayonlari yuz berib turardi. Ularda harakatga kelgan aholi tabaqalari o'zlarining haqqoniy, adolatli talablarini ilgari surib, mamlakatda o'zgarishlar yuz berishini yoqlardilar.

XX-asr boshlarida ilg'or taraqqiyparvar ziyoli yoshlardan tashkil topgan Yosh buxoroliklar tashkiloti ham aynan mana shu maqsadlarda faoliyat yuritardi. O'z saflarida Abduvohid Burhonov, Usmon Xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Mirza Muhiddin Mansurov, Abdulqodir Muhiddinov va boshqa o'nlab yurt fidoyilarini birlashtirgan Buxoro jadidlari 1917-yil inqilobiy voqealaridan foydalanib keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga harakat qildilar.

1917-yil 7-aprelda amir Said Olimxon keng omma tazyiqi va Yosh buxoroliklarning islohiy talablari asosida Manifest chiqarishga majbur bo'ladi. Unda amirlik tuzumining tub negizlariga daxl qilmagan holda mamlakatda bir qator demokratik o'zgarishlar o'tkazish ko'zda tutilgan edi. Soliqlarni tartibga solish, turli ijtimoiy tabaqa vakillaridan iborat Majlis tashkil qilish, maorif, tibbiyot, sud tizimi faoliyatini yaxshilash, ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish va boshqalar shular jumlasiga kirardi. Biroq, hukmron, reaksion kuchlar unga tish-tirnoqlari bilan qarshi turdilar. Yosh buxoroliklarni ta'qib qilish, ulardan o'ch olish avjiga chiqdi. Ularning ko'plab namoyondalari qo'shni Turkiston ASSRga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa amirlikda konservativ ruhdagi kuchlarning qo'li baland keldi. Islohiy harakatlarning birinchi bosqichi muvaffaqiyatsiz yakun topdi.

1917-yil kuzida Rossiyada yuz bergan oktabr to'ntarishi va bolsheviklarning hokimiyatga kelishi amirlikdagi voqealar rivojiga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmadi. Sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgan edilar. Shu bois Rossiya Federatsiyasi, qolaversa, sovet Turkistoni, uning mutasaddilari har bir vaziyatdan foydalanib, Buxoro ichki ishlariga aralashib, muxolifatchi kuchlarni qo'llab-quvvatlab, amirlik tuzumini qulatish harakatida bo'ldilar. Turkiston avtonom sovet respublikasi hukumati raisi F.I. Kolesov suveren Buxoro davlatiga ochiq tazyiq o'tkazib, Yosh buxoroliklar talabini quvvatlagan bo'lib, 1918-yil 2-martida Kogon temir yo'li yoqalab qizil qo'shinlar kuchi bilan ochiq harbiy intervensiya uyushtirdi. G'azabga kelgan Buxoroning ko'pchilik aholisi o'z yurtini jon-jahdi bilan himoya qilib, bolsheviklar hamlasiga qarshi yalpi kurashga otlandilar. Kolesov intervensiyasi tezlikda sharmandalarcha mag'lubiyatga uchradi. Bu esa amir va uning arkoni davlatiga barcha inqilobiy-demokratik kuchlardan qonli o'ch olish uchun bahona bo'ldi. Ayniqsa, Yosh buxoroliklar ayovsiz qirg'in qilindi. Ularning anchagina qismi yashirinishga yoki muhojirlikka ketishga majbur bo'ldi.

4-masala:

1918-yilgi mart voqealari va amirlik hamda uning tevaragidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishi Buxoro davlatini chuqur tanazzulga duchor etdi. Rossiya bozorlariga yuborilgan ko'plab miqdordagi qimmatbaho mollar, mahsulotlar sotilmay omborxonalarda taxlanib qoldi. Buning evaziga Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlar kelishi to'xtab qoldi. Buxoroning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalaridagi bu xil o'zgarishlar uning uqtisodiy hayotiga, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa xalq norozilik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Amirlikning muxolifatchi va inqilobchi kuchlarga nisbatan shafqatsiz xatti-harakati ham siyosiy tanglikni kuchaytirayotgandi. Bundan esa qo'shni Turkistonning sovet mutasaddilari ustamonlik bilan foydalanishga urindilar. Ular Buxorodan son-sanoqsiz oqib kelgan inqilobiy va demokratik kayfiyatdagi kuchlarni ishga solib "Buxoro inqilobi"ni tayyorlab bordilar.

Buxoroning ko'zga ko'ringan rahbarlari: F.Xo'jayev, U.Xo'jayev, Ota Xo'jayev, Qori Yo'ldosh Po'latov, M.Qulmuhammedov, A.Yoqubov, A.Muhiddinov, N.Husainov va boshqalarning inqilobiy faoliyati Moskva va Toshkentda ma'qullanib, ularning harakat dasturlari ishlab chiqilganligi boisi ham shundandir. Yosh buxoroliklar partiyasi ishlab chiqqan dasturda tez vaqt ichida feodal-despotik tuzumni tugatish, mamlakatda demokratik respublika tuzish va keng xalq ommsining tub manfaatlarini ko'zlab ko'plab ijtimoiy-demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish vazifalari bayon etilgan edi. Partiyaning 1920-yil iyunidan Toshkentda chiqa boshlagan "Uchqun" gazetasida ham ilg'or demokratik g'oyalar ilgari surilishi bilan birgalikda Buxoro xalqini amirning mutlaq tuzumini ag'darib tashlash uchun faol kurashga da'vat etib borildi.

Amirlik tuzumini harbiy kuch qo'llash orqali ag'darib tashlash uchun tayyorgarlik ishlari sovet Turkistoni hukumati va uning Frunze boshliq Turkiston fronti qo'mondonligi tomonidan boshlab yuborilgandi. Ayni paytda Buxoroda qurolli qo'zg'olonni o'tkazish yuzasidan harbiy-inqilobiy byuro tashkil etildi. Uning tarkibiga Turkkomissiya vakillari M.Frunze, V.Kuybishev, TKP vakili N.To'raqulov, BKP Markaziy Qo'mitasi raisi N.Husainov, Yosh buxoroliklar partiyasi rahbari F.Xo'jayevlar kirgandilar. Buxoro amirligining ag'darilishi aslida bolsheviklar zo'ravonligi va makkorona siyosatining real ifodasi bo'lgandi.

1920-yil 29-avgustda Chorjo'yda amir tuzumiga qarshi "xalq qo'zg'oloni" boshlanishi bilanoq, Beshim Sardor boshchiligidagi inqilobiy qo'mita avvaldan tuzilgan kelishuvga binoan darhol sovet hukumatiga murojaat qiladi. Bu sovet qo'shinining qo'zg'olonchi kuchlarni himoya qilib, Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshlashiga bahona bo'ladi. Amir lashkari son jihatidan ko'p bo'lgani bilan (20 mingga yaqin) biroq uning qurollanish darajasi qizillar qo'shiniga nisbatan ancha zaif holda edi. Hujumga tashlangan sovet qo'shinlari amirlikning Chorjo'y, Shahrisabz, Qarshi, Kitob va boshqa hududlarini egallab, Buxoro tomon siljib bordilar. Ayniqsa bu bosqin natijasida Buxoro va uning ko'p sonli aholisi mislsiz zarar ko'rdi. Shahar bir necha kun davomida zamonaviy qurollardan o'qqa tutildi, bombardimon qilindi. Uning ko'plab noyob osori-atiqalari, tarixiy obidalari vayron etildi. Nihoyat, 1920-yil 2-sentabrda amir va uning lashkari yengilib, Buxoroni tark etadi. Shundan so'ng shahar sovet bosqinchilari tomonidan

egallanadi. Buxoro qizil qo'shinlar tomonidan egallangach, hokimiyat Muvaqqat Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi qo'liga o'tadi.

1920-yil 14-sentabrda BKP MQ va Muvaqqat Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasining birlashgan majlisida Abduqodir Muhiddinov boshchiligidagi oliy qonun chiqaruvchi organ – Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Respublika hukumati – Xalq Nozirlar Kengashi tashkil qilindi. O'sha yilning 6– 8-oktabr kunlari xalq vakillarining I Butun Buxoro qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgani to'g'risida qaror qabul qilindi.

1921-yil 4 martda Moskvada BXSR bilan RSFSR o'rtasida ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolanadi. Bu rasmiy hujjatlar asosida Buxoro davlatining sovet Rossiyasiga harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan har tomonlama bog'liq bo'lib qolganligi qonuniy belgilab qo'yildi. Darhaqiqat, sun'iy inqilob yasash yo'li bilan amirlik tuzumini ag'darishga erishgan sovet hokimiyati endilikda unga o'zining sotsialistik g'oyalariniyu tartib-qoidalarini bimalol tiqishtira olar edi. Markazning S. Orjonikidze, Sh.Eliava, Ya.Peters singari nufuzli emissarlari Buxoroga tez-tez yuborilib, Buxoro hukumati faoliyatini taftish qilish, uning yo'l qo'ygan xato, nuqsonlarini fosh qilish bilan shug'ullandilar. Shuningdek, RKP(b) MQning 1923-yil 12-iyunda qabul qilgan Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham BXSRning ichki ishlariga qo'pollik bilan aralashish edi. Bu qarorda Buxoroning rivojlanish jarayonini “sotsialistik izga” burib yuborish maqsadi ko'zda tutilgan edi. Buxoro xalqining tub milliy manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan faoliyat yuritgan Abdurauf Fitrat, Muinjon Aminov, Ota Xo'jayev, Sattor Xo'jayev, Rahimjon Yusufzodalarning respublika hukumati tarkibidan chetlatilishi ham Moskva vakillarining talabi bilan amalga oshirilgan edi. BXSRning asosiy rahbar tashkiloti – Buxoro Kommunistik partiyasi ham RKP(b) MQning viloyat tashkiloti maqomida faoliyat yuritishga majbur edi. 1921-yil sentabrda qabul qilingan BXSR Konstitutsiyasi ham RSFSR konstitutsiyasi andozasida tuzilgan edi.

Markaz tashabbusi bilan 1923-yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuzilishi va uning tarkibiga Buxoroning ham jalb qilinishi uning iqtisodiy mustaqilligining asta-sekin qo'ldan boy berilishiga sabab bo'ldi. Hukmron Markaz tazyiqi asosida bu hududda qat'iy tarzda sotsialistik o'zgarishlar amalga oshirilib borildi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga binoan mulkdorlar, savdogarlar, ruhoniylar saylov huquqidan mahrum etildi.

1924-yil sentabrda bo'lib o'tgan V Butun Buxoro qurultoyi BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR) deb e'lon qildi. Nihoyat, 1924-yil o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida uning hududlari O'zbekiston va Turkmaniston SSR tarkibiga qo'shib yuborildi. Ayni chog'da Buxoro mehnatkashlarining sovetlar tuzumi zo'ravonligiga qarshi harakati XX-asrning 30-yillari o'rtalariga qadar davom etdi.

Nazorat uchun savollar:

1. 1917-yil fevral inqilobiy o'zgarishi yuz bergan vaqtda xonliklarda qanday ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukm surayotgan edi?
2. Xiva xonligida siyosiy ahvol qay tarzda kechayotgan edi?
3. Yosh xivaliklar faoliyatiga oid nimalarni so'zlab bera olasiz?
4. Junaidxon xonlik hukmdori bo'lib olganidan keyin nega xonlikdagi siyosiy tanglik jiddiy tus olib bordi?
5. Xiva xonligi qay yo'sinda tugatildi?
6. Buxoro amirligida vaziyat qanday edi?
7. Yosh buxoroliklar faoliyati haqida nimalar bilasiz?
8. Sovet Turkistoni harbiy qo'shinining Buxoroga bosqin uyushtirganini qanday baholash mumkin?
9. Buxoro amirligi ag'darilgach qanday hokimiyat organlari tuzildi?

4-mavzu. BXSR va XXSR ning tuzilishi. Respublikalarda madaniy, ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy islohatlarning

1. BXSR va XXSR ning tuzilishi.
2. Respublikalarda ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy islohatlarning amalga oshirilishi
3. Xorazm Xalq Sovet Respublikasida madaniy hayot.
4. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida madaniy hayot.

Asosiy adabiyotlar: 3,5,6,18,49,61,75,82,83

Qo'shimcha adabiyotlar: 84,85,87,88,93

Dars maqsadi: Talabalarga BXSR va XXSR ning tuzilishi. Respublikalarda madaniy, ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy islohatlarning nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish, shuningdek turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan mavzuga doir berilgan ta'riflarni talabalarga tushuntirish, mavzuning dolzarb ekanligidan talabalarni boxabar etish.

Dars o'tish vositalari: (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug'atlar)

Dars o'tish usullari: Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o'zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o'tkazish, erkin fikrlash va so'zlashga o'rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o'tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga BXSR va XXSR ning tuzilishi. Respublikalarda madaniy, ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy islohatlarning nomli mavzuning ob'yekti, predmeti va vazifalari borasida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqyealarni tahlil etishga o'rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o'rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ **Darsning xrono kartasi – 80 minut.**

O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

- ❖ **Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut**
- ❖ **Talabalar bilim darajasini aniqlash-8 minut**
- ❖ **Yangi mavzu bayoni – 50 minut**
- ❖ **Mavzuni o'zlashtirish darajasi – 7 minut**
- ❖ **sinov savollar namunasi – 10 minut**
- ❖ **Uyga vazifa berish – 3 minut**

BXSR va XXSR ning tuzilishi

1920 yil 27-30 aprel kunlari Xivada Butun Xorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda Xiva xonligi tugatilganligi va endi bu mamlakat qadimiy nomi bilan – Xorazm deb atalishi e'lon qilindi. Yangidan shakllangan davlat Xorazm xalq sovet respublika deb nom oldi. Qurultoyda XXSR ning birinchi Konstitusiyasi, davlat gerb iva bayrog'i tasdiqlandi.

Gerb markazida bir bog'lam oq jo'xori ustiga bir-biriga chalishtirib quyilgan o'roq va bolg'aning rasmi ham solingan edi. Gerbning yuqori qismida besh qirrali yulduz bilan yarim oy sur'ati aks ettirilgan edi.

Davlat bayrog'i – qizil rangli matodan ishlangan bo'lib, uning chap burchagi yashil ranga buyalgan va fonda davlat gerbi ham aks ettirilgan edi.

Konstitusiya bo'yicha 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolarga saylash huquqi berildi, xususiy mulkchilik saqlab qolindi. Saylash huquqidan faqat xon oilasi a'zolari, yirik amaldorlar va oddiy aksilinqilobchilargina mahrum qilindi.

Qurultoyda yangi hukumat tarkibi ham saylandi. XXSR nozirlar kengashining raisi lavozimiga Polvonniyoz Xoji Yusupov, rais movini qilib Mulla Jumanioyoz Sultonmurodov saylandilar.

XXSR mustaqil davlat sifatida o'z konstitusiyasiga binoan ish olib bordi. Konstitusiyaga binoan 22 tumanning (Xiva xonligi davrida 20 beklik va 2 noiblik bo'lgan) hammasida tuman sho'rolari tuzilib, har biriga 5-7 kishidan iborat kengash a'zolari saylandi.

Shu yili 13 sentyabrda RSFSR va XXSR bilan 24-moddadan iborat «ittifoq shartnomasi» va 15 moddadan iborat «iqtisodiy bitim» imzolandi. Bu harbiy-siyosiy va iqtisodiy bitimlarda bolsheviklar Rossiyasi tomonidan Xorazm Respublikasiga harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam berish ko'zda tutilgandi. Lekin shu bilan birga yangi davlatning iqtisodiy taraqqiyotidagi erkinligi butunlay cheklab qo'yilgan edi.

«Ahdlashuvchi tomonlar bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlashi qoidalariga asosan, - deyilgan edi bitim moddalaridan birida, - Xorazm Respublikasi o'zining ichki iste'moli uchun zarur bo'lganidan ortiqcha barcha hom-ashyoni Rossiya Respublikasi ixtiyoriga topshiradi». Bitimda avvalo, paxta va uning maxsulotlari, muyna, gilam, teri, jun, urug'liklar shunday maxsulotlar jumlasiga kiritilgan edi. Shunday qilib, Xorazm Respublikasi Rossiyadan boshqa davlatlar bilan erkin savdo qilish huquqidan mahrum qilindi, uning iqtisodiyoti esa Rossiya iqtisodiy ehtiyojlariga mahkam qilib bog'lab quyildi.

Ammo shartnomada ko'rsatilgan asosiy moddalar bajarilmasdan qog'ozda qolib ketdi. Chunki bolsheviklar tom ma'nodagi milliy demokratik davlatni tashkil qilishni ko'zlamagan edi. Ular avval boshdanoqbu hududlarda Markazga mutlaq

buysunadigan bolsheviklar andozasidagi «mustaqil davlatlarni yuzaga keltirib, so'ngra ustamonlik bilan SSSR tarkibiga» singdirib yuborishni maqsad qilib qo'ygandi. Ana shu strategik maqsadni ko'zlab siyosat olib bordilar.

Xorazm xalqining an'anaviy turmush tarziga va milliy davlatchiligiga zid bo'lgan yangi tuzumning majburan tiqishtirilishi xalq noroziligini uyg'otdi.

1920 yil 13 iyunda Xivada xon tarafdori bo'lgan Ibrohim Oxun boshchiligida ruhoniylar namoyishi ko'tarildi. Lekin RSFSRning XXSRdagi muxtor vakillari Izmaylov, Broydo, Shokirov, Safonov va boshqalar bu voqyeaga aralashib, qo'zg'alonni vaxshiylarga bostirdilar. Xiva xonligi davrida qozikalon vazifasida ishlagan Ibrohim Oxun, Rafiq Oxun, Saidjon Qori va boshqa namoyish rahbarlari otib tashlanadi. Xivaning sobiq xoni Said Abdullaxon, uning oilasi hamda yaqinlari RSFSR va Turkistonning turli burchaklariga surgun qilinadi. Bu voqyealar xalqning RSFSR hukumatiga nisbatan noroziligini yanada kuchaytirdi.

Undan tashqari, 1920 yil sentyabr oyida Xivada XXSR nozirlar Kengashining ikkinchi muovini Qo'shmamatxon boshchiligida turkman boshliqlari va u bilan birgalikda 100 nafar turkman askarlar qo'lga olinib, sud-so'roqsiz otib tashlandi.

1920 yil oktyabrda XXSRga RSFSRning muxtor elchisi sifatida Farg'ona fronti qo'shinlarining qo'mondoni M.Safonov yuborildi. U bilan birga 100 nafar turkman askarlari sud-so'roqsiz otib tashlandi.

Safonovning Xorazmga kelishi bu yerdagi murakkab ahvolni o'zgartira olmadi, aksincha o'zidan oldingi vakillarga nisbatan ham demokratik ruhdagi mahalliy rahbarlarga qarshi siyosatni kuchaytirib yubordi. Yosh xivaliklar hukumatining ko'pchilik a'zolari demokratik qarashlarga yaqin bo'lganliklari uchun, o'z mamlakatining mustaqil davlat sifatida milliy demokratik yo'ldan borishini yoqlab chiqdilar. Bu RSFSR hukumati rahbarlariga ma'qul kelmas edi. Shu sababdan bir tomondan, Turkkomissiya, ikkinchi tomondan RSFSRning muxtor vakili Safonov demokratik yo'ldan borayotgan yosh xivaliklar hukumatini badnom qilishiga o'rindilar.

M.Safonov buyrug'i bilan 1921 yil 6 mart kuni mamlakatda yosh xivaliklar hukumatining ag'darish haqidagi qarorni mitinglarda qabul qilindi. Qurollangan harbiy qismlar hukumat uyiga bostirib kirib, hukumat rahbarlarini hibisga oladilar. Xalq nozirlar Kengashi raisi Polvonniyoz Yusupov yashirishga ulgurdi va boshqalar ham qochib qoldilar. Bu davlat tuntarishi edi va qonuniy saylangan yosh xivaliklar hukumati ag'dariladi. II Umumxorazm qurultoyi chaqirilgunga qadar, davlatni boshqarish 6 kishidan iborat tuzilgan muvaqqat inqilobiy qo'mitaga topshirildi. J.Qo'chqarov raisligidagi bu qo'mita 2 oy davomida respublikani boshqardi.

1921 yil 15-23 may Xivada xalq vakillarining II Umumxorazm qurultoyi bo'lib o'tadi. MIQ raisi qilib Muhammadrayim Olloberganov, XN Kengashi raisi qilib Qoraqolpoq Menglixo'ja Ibniyaminov saylanadi. Shuningdek, qurultoyda Respublikaning yangi Konstitusiyasi tasdiqlandi. Unga sobiq xon hukumatining tarafdorlari, din xizmatchilari «tekinxo'r unsurlar» (yollanma mehnatdan foydalangan badavlat dehqonlar va hunarmandlar) saylov huquqidan maxrum etilishi to'g'risida alohida modda kiritildi. Ruhoniylarga iqtisodiy tazyiq o'tkazish

maqsadida vaqf yerlariga hujum qilindi, shu yerlarda ishlovchi dehqonlardan davlat foydasiga soliq undirish joriy etildi. Qurultoyda qabul qilingan qaror Xorazmni milliy demokratik yo'ldan emas, aksincha, jamiyatni bolsheviklar istaganidek, sinfiy tabaqalanishi yo'liga boshladi.

Afsuski, yangi saylangan hokimiyatning faoliyati ham uzoqqa chuzilmadi. 1921 yil sentyabr oyida bo'lgan XXSR MIQ majlisida «o'z vazifasini bajara olmagan va ishni chalkashtirgan» degan soxta ayblar bilan M.Olloberganov o'z lavozimidan olib tashlandi va o'linga hukm qilindi. Xorazm MIQ raisi qilib Otamahsumon Muhammadrahimov tayinlandi. O. Muhammadrahimov ham o'z o'tmishdoshlari singari Xorazm Respublikasini mustaqil davlat sifatida rivojlanishi uchun bir qancha ishlarni amalga oshirdi. U tinchlik yo'li bilan Xorazm Respublikasi hukumati bilan Junaidxon o'rtasida «Kelishuv shartnomasi»ni tuzishga muvaffaq bo'lindi. U qo'shni davlatlarda elchixonalar ochi shva mazkur davlatning elchixonalarini Xorazmda ochishga ruxsat berdi. U dinga, ruhoniylarga va vaqa yerlariga bolsheviklar chizib bergan andoza asosida yondoshmadi. II Umumxorazm qurultoyida qabul qilingan vaqa to'g'risidagi qarorni, vaqa daromadlaridan olinadigan soliqlarni bekor qildi.

Xiva xonligi ag'darilgandan so'ng, Xorazmning behisob boyliklari, qimmatbaho asori – atiqalari talon-taroj qilinib, Rossiyaga olib ketilgandi. Bu hol xali davom etaverdi. Shu munosabat bilan respublikaning harbiy ishlari noziri Mirkomil Mirsharopov tashabbusi bilan 1921 yil 18 oktyabrda XXSR MIQ buyrug'i e'lon qilindi. Unga binoan, XXSR MIQ buyrug'i e'lon qilindi. Unga binoan, XXSR xududidan xalqning milliy madaniy taaluqli bo'lgan boyliklarni olib chiqib ketish ta'qiqlab qo'yilgan.

Xorazm Respublikasi rahbarlarining bu «o'zboshimchaligi» bolsheviklarga yoqmadi. Markazdan hukumat tarkibini o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma beriladi. 1921 yil 27 noyabrda qo'shma majlisda Xorazm Respublikasi MIQ raisi O. Muhammadrahimov, XN kengashini raisi M.Ibniyaminov va boshqa hukumatdagi rahbarlar - «Xorazm xalqining dushmani» deb e'lon qilindi. ular lavozimidan bo'shatilib, qamoqqa olishga qaror qilindi. Majlisga kelmagan va yashiringan ijro qo'mitasi raisi O. Muhammadrahimov otishma paytida o'ldirildi.

Shu tariqa, Xorazmda uchinchi marta bolsheviklarning muxtor vakillari tomonidan davlat to'ntarishi va RSFSR ga ma'qul bo'lmagan hukumat rahbarlarini ochiqdan-ochiq badnom qilish amalga oshirildi.

1922 yil 20 iyulda III Umumxorazm qurultoyi bo'lib o'tadi. Qurultoyda XXSRning konstitusiya qayta ko'rildi va MIQ qayta saylandi.

1923 yil 18-20 oktyabrda Sovetlarning IV Umumxorazm qurultoyi bo'lib o'tadi. Qurultoy respublikaning Yangi Konstitusiyasini tasdiqladi. Yangi Konstitusiya mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni hisobga olib, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi o'zining yangi socialistik rivojlanishi davriga kirdi deb baholadi va davlat nomini shu kundan boshlab Xorazm Sovet Socialistik Respublikasi deb belgiladi. XSSR Konstitusiyasi 5 bo'lim, 12 bobdan iborat edi.

Yangi Konstitusiyaga binoan yerning xususiy mulkligi bekor qilindi, hamda yersiz va kam yerli dehqonlarga topshirildi. Barcha vaqf yerlariga yagona

qishloq xo'jalik solig'i solinadi, vaqf yerlarida o'tirgan dehqonlar esa buning uchun haq to'lashga majbur qilinmaydi. Vaqfqa qarashli bo'lgan barcha mulklar nozirliги ixtiyoriga berildi.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyada o'zgalar mehnatidan foydalanadigan ruhoniylar, sobiq amaldorlar, xon avlodlari, savdogarlar, boylar va boshqa tabaqalar sovetlarga saylash va saylanish huquqidan maxrum qilindilar. Qozi sudlari bekor qilinib, yangi sudlar, qishloqlarda esa sovetlar kengashi tashkil qilindi.

Konstitutsiyaga davlatni boshqarish masalalarida ham muhim o'zgarishlar kiritildi. Nozirlar Kengashining raisi lavozimi tugatildi va uning vazifasi MIQ raisiga yuklatildi. MIQ a'zolari esa bir vaqt o'zida nozirlik vazifalarini ham bajaradigan bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlar. Muvaqqat inqilobiy hukumat o'zining dastlabki, «Xonning mulki to'g'risidagi dekret»iga muvofiq, avval xonga, uning qarindosh-urug'lariga va vorislariga qarashli barcha kuchmas mulklar musodara qilindi va hukumat ixtiyoriga olindi.

Demokratik hukumat qabul qilingan dekretlarning deyarli hammasi uchun shariat qonunlarini asos qilib olishga harakat qildi. 1921 yilda dekabrda Xiva shahrida yersiz va kam yerli dehqonlarning birinchi qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda kambag'al dehqonlarni yer-suv, ish hayvonlari, mehnat qurollari, urug'lik, don, qarz puli bilan ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi. Dehqonlarni doimo kredit bilan ta'minlab turish uchun qishloq xo'jaligi banki tashkil qilishga qaror qilindi. Bank shu yilning o'zida kambag'al dehqon xo'jaliklariga 1,5 mild.so'm miqdorida qarz puli berdi. Ammo Respublika qishloq xo'jaligini tiklash uchun bu kreditlar yetarli emas edi.

Rossiya bolsheviklari mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga ham xujum boshladilar. RKP MQ Siyosiy byurosining qaroriga binoan Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalarini iqtisodiy birlashtirish uchun tayyorgarlik boshlab yuborildi. Ana shu maqsadda 1923 yil 5-9 martda Toshkentda o'tkazilgan Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining iqtisodiy jihatdan birlashtirishga bag'ishlangan I Iqtisodiy Konferensiya – O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi (Sredaz EKOSO) tuzilganligini ma'lum qiladi. Shunday qilib, O'rta Osiyo respublikalarining siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy hayotiga rahbarlik qilishning asosiy vositalari Rossiya nazoratiga o'tib qoladi.

Sredaz EKOSO tashkil etilgandan so'ng, RKP MQ Siyosiy byurosi uchala respublikalardagi pul muomalasini va soliq tizimini birlashtirish zarurligini iqtisodiy birlikning hal qiluvchi sharti qilib qo'ydi. Rossiya chervoni har uchala respublika pul muomalasining asosi deb topildi. Shu tariqa Xorazm va Buxoro Respublikalari armiyadan keyin, davlat mustaqilligi va suverenitetining muhim timsollaridan biri bo'lgan milliy valyutasidan ham mahrum bo'ldi.

1923 yilda Sredaz EKOSO rahbarligida va mablag'i bilan 2 ta yirik bank tashkil qilindi. Bu banklar kambag'al dehqon xo'jaliklarga uzoq muddatli ssuda berish bilan shug'ullandi.

Yersiz, kam yerli dehqon xo'jaliklarini yer, ish hayvonlari, mehnat qurollari bilan ta'minlash maqsadida davlat yer fondi tashkil qilindi. Yer fondi tomonidan tortib olingan yerlar kambag'al dehqon xo'jaliklariga bo'lib berildi.

Sovetlarning IV Umumxorazm qurultoyida (1923 yil 18-20 oktyabr) yerga nisbatan xususiy mulkchilikni bekor qilish haqida qaror qabul qildi. Bunga binoan, yer-suv islohotlarini bolsheviklar talabidagi sinfiy yondashuv asosida amalga oshirish boshlandi. Bunda ko'pgina tanob yer o'z egalaridan tortib olinib, kambag'al dehqonlarga bo'lib berildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat maxsulotlari bilan ayriboshlashda kooperasiyalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xorazm kooperasiyalari juda oddiy va soda bo'lib, ular tovar ayriboshlash shirkatlari ko'rinishida edi. 1921 yilda bunday kooperativ – shirkatlar paxtachilik tumanlarida tashkil qilindi. Ular «Tong», «Qo'shchi», «Do'stlik», «Birlik» va boshqa nomlar bilan ataldi. Ular har bir 50 pud paxta evaziga 2 ketmon, 90 arshin manufaktura, 6 g'altak ip, 4 funt kerosin, 30 quti gugurt, 60 funt tuz, 6 funt arava yog'i, 3 dona ishlangan teri, 5-7 pud urug'lik don berdilar. Bunday maxsulot ayriboshlashni dehqonlar qullab-quvvatlادilar, natijada dehqonlarning paxta yetishtirishga bo'lgan qiziqishi ortib bordi.

Bu davrda paxta maydoni 3 ming desyatinadan (1 desyatina – 1,08 ga) 18 ming desyatinaga ko'paydi. Paxta yalpi hosili esa 1922 y ilda 250 ming pud (1 pud – 20 kg) tashkil qilgan bo'lsa, 1924 yilda 800 ming pudga yetdi. Lekin yetishtirilgan butun paxta hosili Rossiyaga olib ketildi.

Respublikada sug'orish inshootlari ham ishdan chiqqan, ta'mirlanishga muxtoj edi. Bunga yangi hukumatning mablag'i yetishmasdi. Turkiston va Buxoro Respublikalarda bo'lganidek, Xorazmda og'ir mehnat talab qilinadigan bu ishlar qishloq aholisi zimmasiga yuklandi. Masalan, 1922 yilda ana shu ishlar uchun 35 ming dehqonlar safarbar qilinib, 10 dan ortiq kanallar ta'mirlandi, 200 km masofada dambalar qayta qurildi. 1923 yilda esa qishloq aholisi kuchi bilan 24 yirik sug'orish inshootlari qayta tiklandi. Bularning barchasi dehqonlarni majburan va bepul ishlatish hisobiga amalga oshirish natijasida bo'ldi.

1920 yil sentyabr-oktyabrlarda mahalliy sanoat korxonalari (bular asosan hunarmandchilik ustaxonalari) bilan birgalikda rossiyalik kapi talistlarga qarashli bo'lgan korxonalar ham sovetlar uslubida nasionalizasiya qilinib, sanoat sohasida davlat sektori shakllantirildi. Davlat sektoriga o'tkazilgan sanoat korxonalari jumlasiga Urganch shahridagi «Yaroslavl katta manafakturasi» paxta tozalash zavodi, Toshhovuz, Mang'it, Yangi Urganch Gurlan paxta tozalash zavodlari kirardi.

1923 yilda ko'plab davlat tasarrufiga olingan korxonalar tiklanib ishga tushurildi. Bu davrda, shuningdek, mahalliy hunarmandchilik ustaxonalari ham rivojlana boshlandi. Birgina Xiva shahrida 120 ga yaqin temirchilik ustaxonasi, 131 duradgorlik ustaxonasi, 50 buyog'chilik hamda 136 terini qayta ishlash kichik korxonalar faoliyat ko'rsatib, ularda 2058 hunarmand ish bilan ta'minlangan edi. Lekin bu korxonalar Xorazm Respublikasi ehtiyojlarini qondira olmas, borlari ham faqat Rossiya korxonalari uchun xom-ashyo tayyorlab berishga ixtisoslashtirilgan edi.

Respublika, ayniqsa, Rossiya bilan savdo - iqtisodiy munosabatlar 1920 yil 13 sentyabrda RSFSR va XXSR o'rtasida tuzilgan «Iqtisodiy bitim» asosida belgilangan bo'lib, unga ko'ra Xorazm Respublikasi tashqi savdoni faqat Rossiya orqali amalga oshirishi lozim edi. Xorazm Respublikasi o'zi uchun zarur tovarlar nomlari va miqdorini RSFSR dan so'rashi va buning evaziga Rossiya uchun eng zarur tovarlar bo'lgan paxta va paxta maxsulotlari, teri, gilam, jun, urug'lik berishga majbur edi. Shuningdek RSFSR bilan Xorazm Respublikasi o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalar faqat Rossiya qog'oz pul asosida amalga oshirilishi kerakligi qat'iy qilib quyildi.

1922 yil 29 iyunda RSFSR bilan XXSR o'rtasida yangi «Iqtisodiy bitim» imzolandi. Bitimga binoan Xorazm Respublikasida savdoga davlat nazorati o'rnatiladi. Buni 1923 yil 19 fevralda tashkil qilingan Rossiyaning paxtachilik shirkati misolida ko'rishimiz mumkin. Uning asosiy tashabbuskori Rossiya Bosh Paxta Qo'mitasi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi bo'ldi. Paxta shirkatining asosiy maqsadi Xivada, Hazoraspda, Gurlanda, Toshhovuzda, Honqada (jami 6 joyda) va boshqa tumanlarda paxta punktlari va zavodlari tashkil qilib, ularda dehqonlardan paxta olish va qayta ishlashni amalga oshirish edi.

Lekin Rossiya paxta shirkatlari dehqonlardan olinadigan paxta xarid narxini pasaytirib yubordi. XXSR MIQning birinchi kotibi, Xorijiya noziri, Xorazm paxta shirkatining noziri Xanif Kaniyev va XXSR savdo va sanoat noziri Muhammadrahim Nurullayev paxtaning xarid narxini ko'tarish va shu asosda dehqonlar manfaatdorligini oshirish maqsadida paxta savdosida erkin savdoni, yangi iqtisodiy siyosat asosida savdo yuritishni talab qildilar. Lekin ular «halq dushmani» deb ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilindi.

Xorazm Respublikasi hukumati dastlab RSFSR, BXSr, Turkiston, ASSR, Fillandiya, Shvesiya, Germaniya, Turkiya, Avg'oniston, Eron kabi va boshqa xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustaqil olib borishga harakat qildi. Lekin yangi hukumat rahbarlarining bu demokratik yo'li, bolshevik Rossiyasi rahbariyatiga ma'qul kelmadi. Sredaz EKOSO tashkil qilinishi bilan tashqi savdo – iqtisodiy kengash ruxsati bilan amalga oshiriladigan bo'ldi.

Soliq tizimda ham bolsheviklarning sinfiy yondashuvi o'zini yaqqol namoyon etadi. XXSR hukumati birinchi navbatda, kambag'al dehqonlarni og'ir soliq majburiyatlaridan ozod qildi. Soliqning og'ir yuki savdogarlarga, sudxurlarga, katta yer egalariga tushdi. Bu siyosat 1920-1921 yillarda davlat xazinasiga 100 mln so'm pul tushishiga yordam berdi. Qishloq xo'jaligida yagona soliq tizimi joriy qilindi. Bunga binoan, o'ntalab yerga ega bo'lgan yuqori xosilli yerlardan 2 so'm 50 tiyin, o'rtacha xosilli yerlardan 2 so'm, kam hosil yerlardan 1 so'mu 50 tiyin soliq olinadigan bo'ldi. O'ntalabdan yerga ega bo'lganlar 2 so'mdan 3 so'mgacha soliq to'lashlari zarur edi.

1923 yil iyunda sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib «Davlat sanoat solig'i» joriy qilindi. Bu ham sinfiy harakterga ega bo'lib, turli tabaqalarga moslashtirilib, soliq belgilangan edi.

Respublikalarda ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy islohatlar

Amirlik poytaxti bosib o'lingandan keyin hokimiyat A.Abdusaidov boshchiligidagi muvaqqat butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi ixtiyoriga o'tdi. Uning tarkibiga 6 ta kommunist va 3 ta yosh buxorolik kirdilar. Muvaqqat inqilobiy qo'mita darhol Turkkommissiya rahbarligida ilgaridan tayyorlab qo'yilgan manifestni e'lon qilishga shoshildi. Unda Buxoro davlati «Mustaqil Buxoro Respublikasi» deb ko'rsatilgan edi.

«Buxoroda mustaqil demokratik davlat tuzishga ko'maklashish» niqobi ostida hamda qizil askarlar quroli yordamida zo'rlik bilan amalga oshirilgan. «Inqilob»ni saqlab qolish bohonasida bolsheviklar bu yerda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni Rossiya manfaatlari yo'lga solishga harakat qildilar. Ushbu vazifani bajarish maqsadida Turkkommissiyaning 1920 yil 10 sentyabrdagi qaroriga binoan V.Kuybishev RSFSR hukumati, shuningdek, RKP MQ – ning Buxoro xalq Respublikasidagi vakili sifatida yuborildi. 11 sentyabrda inqilobiy yoki buxoroliklar partiyasi tarqatib yuborildi, uning ko'pchilik a'zolari F.Xo'jayev boshchiligidagi BKP tarkibiga kirishdi.

Shu yili ya'ni 1920 yil 14 sentyabrdagi bo'lgan Xalq nozirlar Kengashi, inqilobiy Qo'mita va Buxoro Kompartiyasi MQning umumiy yig'ilishda butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi-Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati 11 kishidan iborat. Xalq nozirlar kengashi majlisi (raisi-Fayzulla Xo'jayev) uzil-kesil shakllandi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi tarkibi quyidagicha tashkil qilindi: rais va xorijiy tashqi ishlar (nozir – Fayzulla Xo'jayev) maorif (Qori Yo'ldosh Xo'jayev), doxiliya – ichki ishlar (Muxtor Saidjonov), moliya (O'smonxo'ja Pulatxo'jayev), davlat nazorati (Najib Xusainov), favqulotda komissiyasi (raisi – Yusuf Ibroximov), Adliya (Mukammil Burxonov), harbiy ishlar (Bahouddin Shixobiddinov), yer-suv ishlari, dehqonchilik (A.Muhitdinov), nozirlari. Keyinchalik nozirlar kengashi tarkibiga Mirzo Muhitdinov, Mansurov savdo va sanoat noziri qilib kiritildi.

Buxoroda Respublika e'lon qilingunga qadar mavjud bo'lgan ma'muriy tizim 32 beklikni qamrab olib, fuqaro emas amir va uning yaqinlari manfaatlariga xizmat qilar edi. Shu sababli Buxoroda demokratik kuchlar hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kunlardayoq, ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, viloyatlar, kentlar, tumanlar va boshqa qishloqlarga asoslangan boshqaruv tizimi shakllantirildi. Dastlabki davlarda boshqaruvning asosini inqilobiy qo'mitalar tashkil qildi. Ularga asosan islom dini vakillari – ulamolari saylandi. Buxoro shahri respublika markazi bo'lib unda respublikani boshqaruvchi barcha tashkilotlar tuplandi. Eski Buxorodagi birlashgan majlisda V.Quybeshov BXR hukumatining boshlig'i F. Xo'jayevga o'zining ishonch yorlig'ini tekshirdi. U ishonch yorlig'i topshirish paytida «RSFSRning asosiy talabi Buxoro davlati mustaqilligini hurmat qilish, barcha rus fuqarolari va tashkilotlarning ham Buxoro mustaqilligini xurmat qilishga undashdan iborat» ekanligini qayd etdi.

Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga intildilar. Buxoro hukumati asosan jadidlardan tashkil topgan bo'lib o'sha paytdagi eng ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Nozirlar Buxoro, Istambul, Moskva va boshqa

shaharlarda ta'lim olishgan edi. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik ishlarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

Lekin bundan keyingi Buxoroda kechgan tarixiy jarayonlar «Gap boshqayu, ish boshqa» ekanligini ko'rsatdi. Buxoro Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar V.Quybeshovning «Yo'l-yo'riqlari» va uning ochiqdan ochiq aralashuvi asosida qilinadigan bo'ldi. Yangi davlat tuzumining shakllanishi, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan boshqaruv tizimining tashkil qilishi ham asosan sovetlar andozasida amalga oshirildi.

1920 yil 2 oktyabrda BKP MQ tomonidan qurultoy chaqirish masalasi ko'rib chiqildi, bu masala 5 oktyabrda ham qilindi. Unda Umumbuxoro qurultoyida asosan bolsheviklar Rossiyasi manfaatlarini ko'zlaydigan vakillar saylandi. Markaziy komissiya tomonidan Umumbuxoro I qurultoyda vakillarni saylash bo'yicha ko'rsatma ishlab chiqildi. Ko'rsatma bo'yicha qurultoyda amir amaldorlari, yirik yer egalari, savdogarlar va ruslashtirish siyosatiga qarshi muammolarni ko'rsatmaslik ko'rib chiqilgan edi. Markaziy komissiya tomonidan Respublika bo'yicha 1950 ta vakil saylandi; bu vakillar quyidagi Respublika shaharlardan saylanib olindi. Buxorodan 180 ta, Chorjudan 215 ta, Kermindan 174 ta, Xatirchidan 141 ta, Ziyatdindan 163 ta, Qarshidan 120 ta, Shaxrisabzdan 142 ta, Gisardan 95 ta, Qorakuldan 67 ta, Kenimexadan 62 ta, G'ijdivondan 75 ta, Vobkentdan 62 ta, Kitobdan 69 ta, Chirchiqdan 47 ta, Bagautdindan 47 ta, Yakkabogdan 45 ta, Nurotadan 41 ta, Xirkushadan 34 ta, Firmasdan 34 ta, Azizoboddan 30 ta, Shafrinadan 30 ta vakillar.

1920 yil 6-8 oktyabrda Amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan butun Buxoro Xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi – BXSР tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Unda markaziy komissiya tomonidan saylangan 1950 ta vakillar ishtirok etdilar. Bu davlat tizimi jihatdan xalq demokrat respublikasi edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'nalari meros qolgan. amirlik Buxorosining demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chaqiruvchi oliy organi bo'lgan butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi Buxoro xalq nozirlar kengashi – dastlabki hukumat tarkibi uzil-kesil tasdiqlandi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha o'zaytirildi. Qurultoyda I.Ye.Lyubinov RSFSR hukumati Buxoro Respublikasining mustaqilligini tan olganligini aytishga shoshildi. Shu tariqa oradan bir oy o'tar o'tmas Buxoro Xalq Respublikasi – Buxoro Xalq Sovet Respublikasiga (BXSРga) aylandi. Buxoro Respublikasidagi ma'muriy hududiy bo'linish ham sharoitga moslashgan ravishda ham tez-tez o'zgarib turgan. 1923 yilda BXSРning ma'muriy bo'linishga ko'zatishlar kiritilib, Buxoro Respublikasi 8 ta viloyat, 28 ta tuman va sharqiy Buxoroga ajratilgan. 1924 yil 1 oktyabrda Buxoroda yangidan ma'muriy-hududiy bo'linish amalga oshirilib, viloyatlar o'rniga 5 ta okrug tuzildi. Okruglar 15 ta viloyat, 48 ta tuman, 195 ta keng va ko'plab qishloqlarga bo'lindi. Qishloqlardagi oqsaqollar o'rniga sovetlar tuzishga kirishildi.

Qizil askarlarning bosqinchiligi va Buxoro xalqining turmush tarziga yot bo'lgan bolshevistik usuldagi qayta qurishning zurlik bilan joriy etilishi aholining noroziligiga sabab bo'ldi. Buxoro jamiyatining tanazzulga olib keldi. Mamlakatni

duzax oloviga tashladi, iqtisodiyotiga va xalqning turmush darajasiga xalokatli ta'sir ko'rsatdi.

1920 yilning kuzida Buxoroda ahvol yanada murakkablashdi. Milliy ozodlik harakati tobora avj olib bordi. Shu munosabat bilan 1920 yil 4 oktyabrda eski Buxoroda favqulotda holat e'lon qilindi va zudlik bilan «Xalq milisiyasi» tuzila boshladi. Moskva esa Buxoroda «tartib o'rnatish» bahonasi bilan qo'shimcha qizil armiya qismlarini yubordi. Bu kuchlarning asosiy vazifasi nafaqat Buxoroda o'rnatilgan sovet tuzumini himoya qilish, shuningdek, bu yerdagi mavjud boyliklarni, ayniqsa Amir Olimxon xazinasini tortib olib, markazga jo'natishdan iborat edi.

Buxoro amirligining saroy xazinasini «inqilobgacha» II asrga yaqin davrda daxlsiz saqlanib, faqat to'ldirib, boyitib kelgan edi. Bu boyliklar har doim ruyxatga olib borilar va qattiq nazorat qilinar edi. 1914 yil arafasi Amir xonadoniga tegishli oltin, kumush pullar va boshqa qimmatbaho zeb-ziynatlar hisobi tushurilgan maxsus daftarlar tarkining o'zi 1,5 olchin (1 olchin 70 sm ga teng) qalinlikda bo'lgan.

Buxoro Amirligining son sanoqsiz boyliklari haqidagi xabar inqilobning ertasigayoq Moskvaga yetib bordi. Natijada, bu boyliklar RSFSR vakillari tomonidan zo'rlik bilan musodara qilindi. Har biri 10-13 vagondan ko'p bo'lmagan bir necha qizil harbiy eshelonlarda Moskvaga olib ketildi. Amir Olimxon avlodlari xazinasini zo'rlik bilan tortib olib, ularning haqiqiy egasi bo'lgan Buxoro haqidan so'ramasdan Moskvaga olib ketishi bolsheviklar hukumatining bu hududga qurolli xujumidan maqsadi asosan bosqinchilik va talonchilik ekanligidan dalolat edi.

1920 yil 3 noyabrda Turkkomissiya Buxoro Xalq Respublikasi «Harbiy siyosiy bitim» va «Buxorodagi sobiq rus aholisi posyolkalari haqida vaqtinchalik shartnoma» imzolandi. Bu xujjatlar 1921 yil 4 martda RSFSR bilan BXSR o'rtasida imzolangan. «Ittifoq shartnomasi» va «Iqtisodiy bitim» kabi davlatlararo xujjatlarga asos bo'lib xizmat qildi.

Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turushini qonuniy asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

Buxorodagi yangi tuzum va uning ijobiy chora-tadbirlarini aholi maqullab kutib oldi. Biroq, yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan ko'rilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mol-mulkning musodara qilinishi, saroy ayonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hisobga olinishi va otib tashlanishi amir xazinasini Moskvaga olib ketishini majburiy oziq-ovqat razvetkasi va uning qattiq qullik bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolarga nisbatan dushmanlik siyosati, Respublika xududida turgan qizil armiya ta'minotining aholi zimmasiga yuklatilishi, buning ustiga qizil aksarlarning bosqinchiligi va tashkilotchiligi faoliyati haqqoniy ravishda xalqning kuchli noziriligiga sabab bo'ldi. Respublikadagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Buxoro Amir Hokimiyati ag'darib tashlangan dastlabki haftalardayoq mamlakatning G'arbiy Markazi va Sharqiy kesimlarida qizil armiyaning

bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zo'lmiga qarshi boshlangan qurollik harakat avj olib ketdi. Yosh davlat yetakchisi Fayzullaxo'jayev murakkab va og'ir sharoitda ishlashga majbur bo'ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo'linish kuchaydi. Bir tarafdin Buxoro Kompartiyasi ichidagi sul va o'ng kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulotda organlari bo'lgan Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi, yosh «mustaqil» davlatning bosgan har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Shunday bo'lishga qaramasdan F.Xo'jayev, U.Po'latxo'jayev, Otaulla Xo'jayev, Fitrat, Muinjon Aminov, Muxtor Saidjonov, Sattor Xo'jayev, M.Mansurov, A.Muhitdinov va boshqalar hukumatda demokratik yo'l tutib, mu'tadil mavqyeda turdilar. Ular BXSRning amalda mustaqil bo'lishi e'tiqod erkinligi islohotlar o'tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

BKP ning II se'zd (1921 yil dekabr) «inqilobiy jarayonlarning yanada avj olinishida sezilarli bosqich bo'ldi. Unda qabul qilingan Buxoro kommunistlari dasturida Moskvaning mafkuraviy yo'l-yo'riqlariga muvofiq Buxoro Respublikasi uchun «taraqqiyotining kopitalistik bosqichini chetlab, xo'jalik yuritishining feodal patriarxal shakllaridan sosializmga» o'tishning «sakrahsimon» strategiyasi belgilab berildi.

1921 yil 18-23 sentyabrda bo'lgan Butun Buxoro Xalq vakillarining II qurultoyda demokratik ruhdagi BXSR konstitusiyasi qabul qilindi. Bu konstitusiya o'zining mazmuni jihatidan RSFSR konstitusiyaning andozasi asosida yaratilgan edi. Lekin shunday bo'lsada, unda ba'zi demokratik tamoyillar bor edi. Buxoro tarixidagi dastlabki konstitusiya fuqarolarning demokratik xulq va erkinliklarini qonun bilan mustahkamladi. Konstitusiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o'z ifodasini topdi. BXSR konstitusiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi. Milliy tengsizlikni yo'qotdi.

BXSR Konstitusiyasining birinchi bo'limi:

1) Amir hokimiyatini ag'dargan ing'ilibiy Buxoro Xalqi uning o'rniga yangi davlat boshqaruvini tartibga soladi. Qaysikim, Sovet Respublikasi deb nomlandi.

2) Buxoro amirligining tugatilishi va davlat boshqaruvining Buxoro xalqi qo'lga o'tishi bilan oldingi Buxoro hokimligi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi.

BXSR Konstitusiyasi ayollarning huquqiy erkaklar huquqi bilan tenglashtirildi. Xalqning saylanish huquqini bir qadar kengaytirildi, ammo yirik yer egalari, ruhoniylar hali ham saylash huquqidan maxrum qilingan edilar.

Butun Buxoro MIQ huzurida Anna Gelde Amonov boshchiligida Turkman bo'limi tuzildi. Keyinchalik shu asosda Turkman viloyati tashkil qilinib, unga milliy muxtoriyat huquqi berildi. Tojik va Turkman xalqlari uchun ularning ona tilida maktablar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar ochildi.

Konstitusiyaga ko'ra BXSRning oliy organi Butun Buxoro Xalq vakillari qurultoyi bo'lib, u har 2 ming saylovchiga va bir vakil saylanadigan 350 ta a'zodan iborat edi. Qurultoy har yil bir marta chaqirilishi qayd qilindi. Unda Respublika konstitusiyasini qabul qilish va o'zgartirishlar kiritish, hukumatning hisoboti va

davlat byudjetini tasdiqlash kabi muhim masalalar ko'rilar edi. Konstitusiyaga ko'ra, qurultoylar o'rtasida qonun chaqiruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ Butun Buxoro MIK hisoblanar edi. Qurultoyda Butun Buxoro MIK raisi qilib O'smonxo'ja Po'latxo'jayev saylandi (1922 yil avgustda bo'lgan III qurultoyda bu lavozimni Porso Xo'jayev egallaydi). Konstitusiyaga muvofiq xalq nozirlar shurosi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi sifatidagi o'z vazifasini saqlab qoldi. Hukumat 10 ta nozirlardan iborat bo'lishi ko'rsatib o'tildi.

BXSRning Bayrog'ida yarim oy va yulduz tasviri aks ettirilgan edi.

Buxoro Respublikasining gerbi 8 qirrali katta yulduz orasida qizil fon ichidagi yarim oy va yulduz tasviridan iborat bo'lib, 8 qirrali yulduz zarxal rang bilan bo'yalgan edi.

Buxoro Respublikasining milliy valyutasi dastlab metaldan ishlangan pul tanga bo'lib, u 1920 yil sentyabrdan boshlab muomalaga chaqirilgan. Oradan ko'p o'tmay qog'oz so'mlar qo'lda tayyorlangan 50, 100, 3000, 5000, 10.000 so'mliklar paydo bo'lgan. biroq Buxoroda tilla va qizil tangalar keyinchalik ham muomalada bo'lgan. Buxoroning qog'oz pullari Xorazm valyutasiga nisbatan ancha barqaror edi. Pulning to'lov qurbi (xarid qobiliyati) yuqori bo'lishiga hukumat boshlig'i F.Xo'jayev alohida e'tibor qaratgan. 1922 yilda pul almashtiriladi. Endi pullar qo'lda emas, balki matbaa usulida chiqarila boshlandi. Ularning eski pullarga nisbati 1:10.000 edi. Yangi pullar 1, 5, 10, 25, 100, 1000, 2500, 5000, 20.000 so'm qiymatida chiqarildi. 1922 yil oxirida bu pullar ham qadrsizlandi. Hukumat 100:1 nisbatida pul almashtirishni lozim topdi. 1923 yil mart oyida Buxoro pullari RSFSR emas, SSSR pullariga 1: 35 nisbatida almashtirildi.

Buxoro Respublikasida milliy qo'shin tashkil qilishga kirishildi. 1920 yil 5 sentyabrda otliqlar diviziyasi va piyodalar brigadasi tuzish haqida farmon qabul qilingan bo'lsa ham, bu jarayon murakkab kechdi. BXSR hukumati 30 dekabrda 2000 kishini Buxoro qizil armiyasi safiga chaqirish uchun buyruq chiqardi. 1921 yil fevral oyida harbiy nozir F.Xo'jayev bo'yruq'i bilan faqat Buxoro hududida yashovchi 20-26 yoshli yigitlardan 1,5 kishi Buxoro qizil milliy armiyasi tarkibiga chaqirildi. Biroq mahalliy aholining ko'pchiligi armiya va milisiya safiga kirishni xohlamadi. Natijada RSFSR va Turkiston ASSR bilan Turkfront ixtiyoridan qizil armiyaning ikkita polki botalyonlari va artilleriya botalyonlari olinib, Buxoro harbiy nozirligi ixtiyoriga berildi. Bundan tashqari, qizil armiyaning 40 ming kishilik muntazam qismlari Buxoro Respublikasi hududida doimiy saqlandi va ular milliy muxolifat kuchlari – istiqlolchilik harakatiga qarshi kurashdilar.

Buxoro Respublikasi qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga alohida e'tibor qaratgan. Buxoro mustaqilligini Rossiyadan keyin ikkinchi bo'lib 1920 yil 26 oktyabrda Avg'oniston e'tirof qiladi. 17 dekabrda BXSR hukumati boshlig'i va tashqi ishlar noziri Fayzulla Xo'jayev bilan Avg'oniston tashqi ishlar vaziri Mahmud Tarziy har ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatganligi to'g'risida yorliqni o'zaro almashtirishdi. Avg'oniston davlati Buxoroga Abdulxodixon boshchiligidagi yangi elchilarni yubordi. 1921 yil 11 yanvarda Buxoro Respublikasi o'z navbatida qabulga Abdurahim Yusufzoda rahbarligidagi elchilarni jo'natdi.

1922 yil Buxoroning Avg'onistondagi yangi elchisi Xoshim Shoiq tayinlandi. O'sha yilning oxirida u BXSР hukumati mamlakat hududidan qizil armiya chaqirib yuborilishiga rozi ekanligi haqidagi maxfiy bitimni Avg'oniston bilan imzolaydi. Bu bitim oshkor bo'lgach, xalqaro miqyosda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Rossiyaning tazyiqi bilan 1923 yil 18 iyunda qabuldagi Buxoro elchiligi tugatilib, endilikda Buxoroning Avg'onistondagi manfaatlarini SSSR vakili «himoya» qiladigan bo'ldi.

Fayzulla Xo'jayev Eron, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi Sharg' davlatlardan tashqari G'arb mamlakatlaridan Germaniya bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga katta kuch g'ayrat sarfladi. Buxoro bilan Germaniya o'rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, savdo-sotiq avj oldirilgan. Germaniyaga ko'plab talabalar o'qishga yuborilgan. F.Xo'jayev 1922 yil kuzida Germaniyada bo'lib, turli banklar va kompaniyalar bilan shartnomalar tuzgan. 1922 yil boshlarida Turkiyaga (Avg'oniston orqali) Butun Buxoro MIK raisi U.Po'latxo'jayev tashrif buyurib, Buxoro Respublikasining moddiy yordamini yangi jamiyat qurayotgan Mustafo Kamol Otaturk (1881-1938) hukumatga topshirilgan edi.

Buxoro Respublikasining F.Xo'jayev boshliq demokratik ruhdagi hukumati tomonidan mustaqil ravishda «o'zboshimchalik» bilan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar markazning shovunistik yo'l boshchilariga mutlaqo ma'qul kelmas edi. Ular uchun Buxoroda «labbay» deb quloq soladigan hukumat kerak edi. Buxoroda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazorat qilish va Respublikani jadal sur'atlar bilan «sosializm» yo'lga solish maqsadida RKP MQ o'zining emisarlarini Buxoroga tez-tez yuborib turdi.

1922 yil 14 martda RKP markaziy taftish komissiyasi a'zosi Ya.Peters keladi. Uning ketidan 20 aprelda RKP MQning S.Orjanikidze va Sh.Iliavadan iborat komissiyasi tashrif buyurdi. Markaz komissiyalari Buxoro Respublikasi bilan tanishish baxonasida hukumat rahbarlarini yaqindan o'rganish, ularning maqsadlarini aniqlash va hukumatdagi milliy demokratik ruhdagi rahbarlarini imkon darajasida ishdan chetlatishga harakat qildilar. Chunonchi, S.Orjanikidze Buxoro kompartiyasining mas'ul xodimlari kengashida so'zga chiqib, biz hukumatni qarindoshchilik alomatlaridan tozalashimiz kerak, nozirlar albatta Buxorolik bo'lishi shart emas. U rus yoki gruzin bo'lgani ma'qul deb markaziy hukumat maqsadini ochib bergan edi.

Markaz komissiyasining taftish materiallari asosida RKP MQ 1922 yil 18 mayda «Turkiston, Buxoro ishlari haqida» qaror qabul qildi. Bu qarorda barcha O'rta Osiyo Respublikalari kommunistlariga joylarda jadallik bilan sovet tuzumini mustahkamlash haqida ko'rsatma berilgan edi.

1923 yil 3 iyundan Buxoroga SSSR qurolli kuchlarning bosh qumondoni S.S.Komenov turk front inqilobiy harbiy kengashi raisi A.I.Kork RKP MQ O'rta Osiyo byurosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq-oydin aytib, sosialistik o'zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidlashdi. Oradan ko'p o'tmay 12 iyunda RKP MQ siyosiy byurosi maxsus qaror qabul qilinib, Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora-tadbirlarini belgilab berdi. Sovet hukumati o'z buyruqlarini tez va qarshiliksiz amalga oshirish

uchun RKP MQ kotibi Ya.E.Rudzudakni Buxoroga jo'natdi. 23 iyunda BKP MQ yopiq pleniumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat'iy talablarini qo'ydi. Fayzulla Xo'jayevning eng yaqin safdoshlari bo'lgan sobiq yosh buxorolik jadidlar Otaulla Xo'jayev (tashqi ishlar noziri), Fitrat (maorif noziri), Sattor Xo'jayev (moliya noziri), Muinjon Aminov (Buxoro EKOSO raisi) lavozimlaridan chetlashtirilib, Buxoro davlati xududidan chiqarib yuborildi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning kommunistcha sabog'ini olgan xodimlar bilan tuldirdi.

Buxoro hukumatida Turkistonga yuborilgan emissarlarning ta'siri tobora kuchayib bordi. Kommunistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan 14 avgustda bulgan Buxoro MIK favqulotda sessiyada Kostitutsiya matniga o'zgartirish kiritishga ham muvaffaq bo'ldilar. 1923 yil 11-17 oktyabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Konstitutsiya matniga o'zgartirish kiritish to'g'risida qarorni tasdiqladi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylovda ovoz berish huquqidan maxrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoy jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradigan «Sovet qurulishi» to'g'risida nomli maxsus qaror qabul qildi. Jamiyat tobora siyosiy lashib bordi. Buxoroda o'tkaziladigan demokratik islohotlarning taqdiri xavf ostida qoldi. Markazning talabi bilan mamlakatda sun'iy ravishda sosiolistik qayta qurilishlarning amalga oshirishga kirishildi. Respublikadagi bu keskin vaziyat qurolli muxolifat harakatining kuchayishida ham o'z ifodasini topdi.

1924 yil 18-20 sentyabrda bo'lib o'tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyi BXSР Buxoro Sovet Sosialistik Respublikasiga aylantirildi. BSSRning tuzilishi yuqoridan turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan xodisa edi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo'li inkor qilinib, sosialistik yo'nalishi tanlandi.

BXSРDA IQTISODIY ISLOHOTLAR

Bolsheviklarning Buxoro xalqiga nisbatan zo'ravonligi davlatning urush girdobiga tortilishi natijasida xalqning iqtisodiy ahvoli yomonlashdi. Bolsheviklar zulmidan qutilish uchun ko'plab buxoroliklar o'z vatanini tark etishga majbur bo'ldilar, minglab vatanparvarlar o'z Vatanining ozodligi uchun jonlarini fido qildilar, anchagina aholi ochlik va kasallikdan nobud bo'ldi. Natijada, BXSРning aholisi 1918 yilga nisbatan 1922 yilga kelib 26,1% ga kamaydi.

Xalq xo'jaligining ahvoli ham juda og'ir edi. Ekonzorlarning vayron bo'lishi, iqtisodiy agrar sohadagi ishlab chiqarishini 1922 yilda 1918 yilga nisbatan 40%ga pasaytirildi. Chorvachilik ham xatar muammolarga duch keldi. 1914 yilda Buxoro amirligidagi barcha chorva mollari soni 6.077.290 boshni tashkil etardi. 1922 yilga kelib butun respublika bo'yicha 2276,2 ming bosh chorva qolgan edi, xolos, bu 1914 yilgi darajaning 37,4% ga teng kelar edi. Ayniqsa, otlar soni 62%ga, qorako'l qo'ylar soni 71%ga kamaydi. Buxoro chorvachiligining bunchalik tang ahvolga kelishiga harbiy harakatlar, qizil armiya ehtiyojlari uchun ko'plab musodara qilish, iqtisodiy siquvlar natijasida ko'pchilik chorvadorlar o'z

chorvasini saqlash uchun ularni tog'larga, cho'llarga yoki qo'shni mamlakatga olib ketishlari sabab bo'lgan edi. Bularning hammasi Buxoro chorvachiligining va ularning boy an'alarini tanazzulga olib keldi. Chorvachilik Buxoro xalqi xo'jaligining eng asosiy tarmog'i hisoblanar edi. BXSРning 35% eksporti qorako'l teriva mo'ynalaridan iborat edi.

Chorvachilikni, ayniqsa qorako'lchilikni tiklash uchun (Markaz O'rta Osiyo paxtasi kabi, uning qorako'lga ham qiziqar edi) Rossiya va Buxoro hamkorlikda 2 mln. so'm asosiy mablag'ga ega bo'lgan «Eksport bo'yicha II shirkat» tashkil etildi. Bundan tashqari, davlat savdosi 400 ming so'mlik qo'shimcha tovar ajratdi. Bular BXSР da qorako'lchilikni tiklashda ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Chorvachilikni yuksaltirish maqsadida YuKP MQ 1924 yil 30 martda chorva mollari egalarini barcha soliq va yig'implardan ozod qilishga qaror qildi. Shu bilan birga qorako'l terilarining ichki yig'imi ham bekor qilindi. BKM MQ asosiy e'tiborini qishloq xo'jaligini shu bilan birga chorvachilikni ham tiklashda, savdoni rivojlantirishga qaratilgan edi. Buxoro qishloq xo'jaligi va chorvachiligi tiklanib borgan sari sovet Rossiyasining bir yerdan olib ketadigan qimmatbaho qishloq xo'jalik ham ashyosi miqdori ham ko'payib bordi. Chunonchi, 1924 yilda RSFSР ning markaziy mintaqalariga jo'natilgan paxta 1923 yilga nisbatan ikki yuaro var ortdi va paxta tolasining o'zi 885 ming pudga yetkazildi. Qorako'l teri tashib ketish 1921 yilga nisbatan 10 barobar ko'paydi va 1 mln. lonaga yetkazildi. 1923 -1924 yillarda Buxoro Respublikasiga keltirilgan tovar mahsulotlari 7,5 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, Markazga olib ketilgan tovar mahsulotlari 70,5 mln. so'mni tashkil etdi, ya'ni qariyb 10 barovar ortiq miqdorga boylik Buxorodan olib ketildi.

Sovet hokimiyati Buxoro Respublikasida o'z ta'sirini mustahkamlash maqsadida BXSР iqtisodiy barqarorlik strategiyasini ishlab chiqarishga alohida e'tibor berdi. Bu strategiyani amalga oshirish, bir tomondan milliy iqtisodiyotni va siyosiy barqarorlikni tiklashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, sovetlar Rossiyasi bilan BXSР o'rtasida imperiyacha iqtisodiy munosabatlar tizimini mustahkamlashga imkon berishi mumkin edi.

Sovet Rossiyasi faqat BXSР bilan iqtisodiy munosabatlar tizimini mustahkamlashga cheklanmay balki butun Markaziy Osiyoni iqtisodiy birlashib, O'rta Osiyo Respublikalarini barpo etilayotgan kommunistik imperiya doirasida integrasiyalash ko'zda tutilgan edi. Bu jarayonga rahbarlik qilish uchun RKP MQ ko'rsatmasi bilan 1922 yilda Moskvaning nazorati ostida bo'ladigan yagona iqtisodiy markaz O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi (Sredaz EKOSO) ni tashkil etishga qaror qilindi.

O'rta Osiyo Respublikalarini iqtisodiy jihatdan birlashtirish imperiya kuchlari bilan Buxoro va Xorazm respublikalari milliy rahbarlarining keskin kurashlari sharoitida o'tdi, ular obyektiv jihatdan olganda, iqtisodiy integrasiya tarafdori edilar, lekin shu bilan birga Moskva tomonidan Sovet Rossiyasi homiyligidagi, birlashtirish shaklining yashirin xavf-xatarini ham sezib turardilar. Haqiqatdan ham bu variant aslida BXSР va XXSR davlat mustaqilligidan maxrum etishga qaratilgan edi. Faqat bir kecha bor amalga oshirilgan siquvlardan,

partiyaviy kuch ishlatish, tazyiqlardan (u milliy suverinitetni hurmat qilish haqidagi balandparvoz so'zlar va faol moddiy moliyaviy yordam ko'rsatish bilan birga qo'shib olib borilgan edi) keyingina yagona iqtisodiy markaz O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi tashkil qilindi. Bu voqea 1923 yil 5 martda bo'lib o'tdi. Unda chaqirilgan Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarining I Iqtisodiy Konferensiyasi O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining (Sredaz EKOSO) tashkil etilganligi e'lon qilindi. 1923 yil 30 martda esa BXSR hukumati respublika Mehnat va Mudofaa kengashini - Buxoro Iqtisodiy Kengashiga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning vazifasiga Sredaz EKOSO qarorlarini boshqaruvchilari qurilish xo'jaligi ishchilar va iqtisodiy nozirlar faoliyati ostidagi roziligi bilan respublikaning hayotda yagona xo'jalik va moliyaviy rejalarini ko'rib chiqish va olib borish yuklatilgan edi.

F.Xo'jayev O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan birlashuvi to'g'risidagi fikrini boshida qo'llab-quvvatlaydi. Chunki u iqtisodiy – siyosatni ishlab chiqish, xatto mintaqqa xalq xo'jaligi istiqbollari to'g'risida qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha ishlar markaz qo'liga o'tayotganligini eng avvalo sezgan va bu siyosatning mash'i oqibatlarini chuqur tushungan arbob edi. O'zi kuchli iqtisodiyotchi bo'lgan. F.Xo'jayev Buxoro tomonidan Rossiya va Turkistonga yetkazib beriladigan mollarga aniq va tovar ekvivalenti belgilash zarurligi to'g'risida ayniqsa tashvishlanib gapirar edi. Buxoro xududida joylashgan Rossiya qo'shnolari Buxoro davlatining oziq-ovqati va yem-xashagi bilan ta'minlanar edi. Hukumat boshlig'i F.Xo'jayev Rossiya qo'shnolari sonini 15 ming kishigacha qisqartirish to'g'risidagi masalani Moskva oldiga bir necha marotaba keskin qilib qo'ydi.

Shu vaqtdan boshlab markazning O'rta Osiyoni «jilovlash» uchun tashkil qilgan turkkossiya, turkbyuro O'rta Osiyo byurosi bilan birgalikda Sredaz EKOSO ham uchta respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mafkuraviy jarayonlarni Moskva andozasi asosida yo'naltirishga kirishdi. Bu esa O'rta Osiyoni sovetlashtirish va «Sovet Sharqida» «Sosialistik xo'jalik yo'ritish» «Kommunistik mafkura» tayanch tuzilmalarini qaror toptirishdan iborat strategik manfaatlariga mos kelar edi.

Markaziy hukumat BXSR rahbariyatini ayniqsa, mahalliy kommunistlarni qishloq xo'jaligida keskin tub islohotlar o'tkazish yo'li bilan Buxoro dehqonlarini sovet hokimiyati tomoniga og'dirib olish yo'lidan borishga undadi. Agar islohotlar zarurati Buxoro respublikasining sosial-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqsa, mamlakat aholisini 9/10 qismi qishloq ahli edi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishni yosh buxoroliklar ham istar edilar. Lekin ular qishloqlardagi agrar va iqtisodiy munosabatlarni qayta qurmasdan milliy iqtisodiy bozorga moslashtirish va jamiyatni demokratik asosda yangilashni xohlar edilar.

Bularning bari mamlakatlarni rivojlantirish borasida nazariy-uslubiy yondashuvlar bir xil emasligini ko'rsatdi. Natijada, yangi agrar siyosatning dasturi qoidalarini ishlab chiqishda keskin qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Bu ayniqsa BKP MQ bilan demokratik kayfiyatdagi BXSRning bir guruh hukumat rahbarlari o'rtasidagi munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlandi.

«So'llar» yerni yoppasiga nasionalizasiya qilish va qishloqni socialistik asosda jadal qayta qurishni yoqlab chiqdilar. Yosh buxoroliklar muta'dil islohotlar o'tkazish yo'lini taklif qildilar. Ular odilona fikrlardiki, ya'ia nasionalizasiya qiliigan barcha yerlar, shu jumladan vaqa va boylarning yerlarini musodara qilish halokatli ijtimoiy portlashga Buxoro jamiyatni sinfiy jihatdan parchalanishga, oxir-oqibatda esa tanazzulga olib kelishi mumkin edi. Milliy demokratlar birinchi bosqichda faqat amir, uning oila a'zolari, amaldorlari yerlarini musodara qilish kerak deb hisoblardilar.

Siyosiy kurash voqyealari o'sha davrda yuzaga kelgan yer qonunchiligida ham aks etdi. 1920 yil 21 noyabrda inqilobiy qo'mita raisi A.Muhitdinov tomonidan imzolangan Buxoro Respublikasining yer to'g'risidagi qonuni amirga tegishli barcha mol-mulklar, yerlarni xalq mulki deb e'lon qilishni, ularni musodara qilib, yersiz va kam yerli dehqonlar o'rtasida qayta taqsimlashni nazarda tutgan edi. Bo'lib berilgan yerni sotish va olish, garovga berish, in'om etish va vasiyat qilib qoldirish ta'qiqlanadi. Ayni vaqtda dekretga muvofiq jin maydonlaridan olinadigan barcha soliqlar va ulponlar bekor qilindi.

Agrar islohotlar asta-sekin moddiy va psixologik sharoit hisobi olingan holda tayyorlanib olib borildi.

Biroq yer to'g'risidagi masalani hal etish strategiyasiga bu qaror muta'dil yondashish BKP MQ ning rodikal fikrlovchi rahbarlari tomonidan keskin tanqid qilinishiga sabab bo'ldi.

Antifeodal xarakterga ega bo'lgan yer masalasini hal etishdagi oltinchi qadam sovet hokimiyatini o'rnatishdan bir oy o'tgandan keyin qo'yilgan edi. 1921 yil yanvar oyida Buxoro va Chorju viloyatlaridagi amir va beklarning 10 ming tanop (qariyb 2,5 disyatina) yerlari musodara qilindi. 1921 yil 5 yanvarda Umumbuxoro revkomi BKP MQ roziligi bilan «yer haqida deklorasiya» qabul qilindi. «So'l» kommunistlar tazyiqi bilan Markaziy inqilobiy Qo'mita 1921 yil 2 fevralda yer haqida ikkinchi dekret qabul qilindi. Bu yangi dekret keng inqilobiy o'zgarishlarni tantanali ravishda e'lon qildi. Bu esa o'z navbatida barcha mol-mulkni, yerlarni musodara qilishni taqqozo qilar edi. Hamma yerlar, suvlar, o'rmonlar, Buxoroning hamma tabiiy boyligi umumxalq mulki deb e'lon qilindi. Amir, beklar va shuningdek vaqf yerlari nasionalizasiya qilindi. Bu yerlar tirik jonzoti bilan birga dehqonlarga berildi. Bu yerlarga ega bo'lgan kishi yerni sotishi yoki ijaraga berishi taqiqlangan edi. Dekretda amir rejimidagi to'lovlar bekor qilinishi aytib o'tilgan edi. 1921 yil o'rtalaridan boshlab Buxoro, Chorjuy va Kerkin viloyatlaridagi amir yordamchilarining yerlari musodara qilindi va qariyb 7000 tanopga yaqin yerlar kambag'al dehqonlar orasida taqsimlandi.

Lekin yosh buxoroliklar hukumatining demokratik yo'l tutish natijasida BXSR da mo'ljallangan islohotlar sekinlik va ehtiyotkorlik bilan o'tkazildi, belgilangan ishlarning ko'plari qog'ozda qolib ketdi. Bu islohotlarni mo'ljaldagicha amalga oshirish uchun «so'llarda» siyosiy kuch va imkoniyatlar yetishmadi. Bu esa Buxoroda sovet hokimiyati tuzilmalarining holi zaifligini bildirar edi.

Agrar siyosatning olib borilishi kambag'al dehqonlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi, ammo Buxoroda asosiy o'rin egallagan ruhoniylar tabaqasida norozilik keltirib chiqardi.

BKP ning II syezdi (1921 yil dekabr) «inqilobiy» jarayonlarning yanada avj olinishida sezilarli bosqich bo'ldi. Unda qabul qilingan Buxoro kommunistlari dasturida Moskvaning mafkuraviy yo'l-yo'riqlariga muvofiq Buxoro Respublikasi uchun «taraqqiyotning kapitalistik bosqichini chetlab, xo'jalik yuritishning feodal – patriarxal bosqichlaridan sosializmga» o'tishning sakrashsimon strategiyasi belgilab berildi. Ayni vaqtda taktik jihatdan socialistik Rossiyadan andoza olib yangi iqtisodiy – siyosat yo'li e'lon qilindi. Shunga muvofiq iqtisodiy – siyosat sohasida zavod va fabrikalarni nasionalizasiya qilish vazifasi birinchi galdagi vazifalar sifatida ilgari surilmadi. Aksincha, sanoat sohasida ham, savdo-sotiqdagi kabi xususiy xo'jalik tashabbusini rag'batlantirish taklif etildi.

Sovetlarning II Umumbuxoro qurultoyi (1921 yil sentyabr) yer masalasidagi islohotlarni hal etishda sezilarli qadam bo'ldi. Unda «xalq demokratik prinsiplariga» asoslanib agrar siyosatiga tuzatishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. Inqilobiy qo'mita raisi A.Muxitdinovning qurultoyda so'zlagan nutqi e'tiborga sazovordir. U quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Shariatga binoan, musulmonning hych qanday mulki uning roziligisiz tortib olinishi mumkin emas. Men yer egalarining qo'lida mavjud bo'lgan yerlarini avvalgi holida qoldirilishini yoqlab fikr bildiraman. Hukumatning yer masalasi bo'yicha taklifi qurultoy delegatlari tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. Bu taklif qishloqda asosiy siymo hisoblangan o'rtahol dehqon manfaatlariga, yerdan foydalanishning azaliy an'analariga mos kelardi».

1921 yil dekabrda qabul qilingan Konstitusiyaga binoan BXSR yerga bo'lgan xususiy mulkni tasarruf qilish va undan foydalanishda cheklanmagan huquqlarga ega bo'lishni tan oldi. Shunga qaramasdan, kommunistik rahbariyat agrar islohotlarni qat'iylashtirishni qattiq turib talab qildi.

Shu asosda Buxoro Respublikasidagi agrar islohotlar dastlabki kundanoq siyosiy tusga ega bo'lgan, Turkistondagi islohotlardan farqli uraloq konseptual yondashuv natijasida madaniyatliroq amalga oshirildi. 1922 yil avgustida yer masalasi sovetlarning Umumbuxoro III qurultoyida yana ko'rib chiqildi. Qurultoy yaroqsiz yerlar hisobiga yaqin ekiladigan maydonlarni ko'paytirish yuzasidan bir qator tadbirlar belgilandi. Amudaryodan kanal qazishga qaror qilindi. Dehqonchilikda serhosil navlarni, chorvachilikda sermahsul zotlarni joriy qilish, dehqonchilik usullarini takomillashtirish va yangi ish qurollarini joriy etish, dehqonlar uchun maxsus maktablar ochish va asalarichilikni rivojlantirish nazarda tutildi.

BKP MQning 1922 yil noyabr oyidagi III-syezdi Buxoro qishloqlarida «agrar inqilob» asta-sekin amalga oshirilayotganligi aytib o'tildi, ya'ni kambag'al dehqonlar haligacha va'da qilingan yerlarga ega emasligi, qishloqda avvalgidek «feodal ekspluatatorlar» hukmron ekanligi ko'rib chiqildi.

Buxoro Respublikasida amalga oshirilayotgan «agrar inqilob» sur'atlari va uning yo'nalishi moskvalik rahbarlarni qoniqtirmas edi. Chunki, Buxoro sovetlarining III-qurultoyida qabul qilingan amaliy harakatlar dasturida, haqiqatda

«ezuvchi qatlamlar» tilga olinmagandi. Ayniqsa, F.Xo'jayev boshliq Buxoro «inqilobiy demokratik» hukumatning real mustaqilligini qo'lga kiritishi Kremlni yanada ko'proq tashvishga solib qo'ydi va ularni keskin chora ko'rishga majbur qildi. Hatto buxorolik «so'l» kommunistlardan yangi hukumatni shakllantirish masalasi o'rta qo'yildi. Lekin pirovard natija BXSR ustidan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy nazoratni kuchaytirish yo'li bilan tanlandi, bu yo'l Buxoro Respublikasini sovet davlatiga jadal integrasiya qilishdan iborat edi.

Sovetlarning IV-syezdi (1923 yil oktyabr) BXSR ning «xalq demokratik bosqichidan» «sossialistik bosqichiga» o'tishni rasmiy ravishda e'lon qilish, yangi yer kodeksini tasdiqladi. Bunga ko'ra «barcha yerlar, ulardan kim foydalanishidan qat'iy nazar, ishchi-dehqon davlatining mulki» deb e'lon qilindi. Yerga kim ishlov bersa, unga egalik qilish huquqi o'shanga berildi. Bita xo'jalikka mo'ljallangan cheklangan yer normasi (7,5 desyatina) qilib belgilandi.

Bu davrda BXSRning umumiy maydoni 22 mln. desyatina yerdan iborat bo'lib, ulardan 2250 ming desyatini o'zlashtirilgan yerlar edi. Respublikadagi 425 ming xo'jalikning har biriga o'rta hisobga 4,8 tanop yer to'g'ri kelar edi. 1924 yilga kelib paxta yetishtiriladigan umumiy maydoni 4400 desyatina yetdi, bu esa 1920 yilga nisbatan 3 baravar ko'p edi.

Yangi yer kodeksi Buxoroda agrar masalani hal qilishda sinfiy kurashni chuqurlashishga «ekspluatatorlik» tamoyillarini cheklashga va badavlat qatlamlar iqtisodiy qudratini sindirishga qaratilgan edi. Qurultoyda vaqa to'g'risida siyosat birmuncha yumshatildi. Shuni alohida aytish joizki, vaqf masalasi Buxoroda muhim va keskin bo'lib, bu yerdagi vaqf yerlari, ya'ni machitlar, maktablar, madrasalar, diniy va madaniy oqartuv muassasalariga tegishli bo'lgan yerlar mutlaq mavqyega ega edi.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 1921 yil 1 avgustda faqat Buxoro shahrining o'zida 200 vaqf muassasalari ro'yxatga olindi, 208 ta machit va 215 ta madrasalarga bu muassasalar tegishli edi. 1923 yilda BXSRda 278,5 mingga qariyb desyatina vaqf yerlari mavjud edi. Bundan tashqari, diniy muassasalar ixtiyorida 2110 ta savdo do'koni, 134 ta mol-mulk, 210 ta uy-joy, 28 ta tegirmon, 50 ta bozor joylari bor edi. Vaqf yerlaridan olinadigan daromad 267,8 ming so'mni, xo'jalik tuzilmalaridan olinadigan daromad esa 118, 2 ming so'mni tashkil etardi. Bu daromad diniy, madaniy-ma'rifiy muassasalarning ehtiyojlariga, ularni rivojlantirishga, ruhoniylarni ta'minlashga sarflanardi.

«So'llar» butun vaqf yerlarini musodara qilish bilan bu masalani hal qilishga intilar edilar.

Shuning uchun ham respublika sovetlarini IV-qurultoyida vaqf masalasi asosiy masalalardan biri sifatida qo'yildi. Qurultoy ilgari musodara qilingan yerlarning bir qismini qaytarib berishni, vaqf yerlarini ijaraga olgan dehqonlar to'laydigan soliq miqdorini hosilning 40% ni o'rniga, hosilning 1/10 qismi to'lashi kerak edi.

Vaqf yerlaridan olinadigan daromad fag'at, yangi ko'rinishdagi maktablarni ta'mirlashda, madrasa, kutubxonalar, qiroatxonalar, maorif xodimlarini ta'minlashga qat'iy xarajat qilinishi kerak edi.

Boshqacha aytganda, sovetlarning dindorlar ta'sirini cheklashga va cherkovning iqtisodiy asoslarga putur yetkazishga qaratilgan yo'li saqlab qolindi. Bu esa «sosialistik» qurilish mantig'iga mos kellar edi. Keng xalq ommasining qarshilik ko'rsatishi tufayli, BXSRS da yangi yer kodeksi asosida rejadagi bu islohotlarni o'tkazishga muvofiq bo'linmadi. «Hozirgi vaqtdagi Buxoro sharoitida – deb e'tirof etgan edi BKP MQ ning partiya IV-syezddagi (1924 yil, yanvar) hisobida, bu tadbirni o'tkazish siyosiy jihatdan foydali emas».

Bahor faslining kirib kelishi munosabati bilan paxta yetishtirishni qulaylashtirishga qaratilgan chora ko'ri-la boshlandi. Chunonchi paxtakorlarga ishtiyoqli narxlarda don maxsulotlari va kerosin sotildi. Natijada paxta ekiladigan maydonlari qulaydi va 25 ming tanobga yetkaziladi. Bundan tashqari dehqonlarning o'zlari qariyib 40 ming tanop maydonga paxta ekdilar.

Moskva Buxoro Respublikasida paxta yetishtirishni rag'batlantirishi maqsadida RSFSR hukumati 1922 yil 19 iyunda BXSRS bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Buxoroga sovet puli bilan 50 mlrd. so'm miqdorida qarz berdi.

Navbatdagi qadam Rossiyaning Buxoro Respublikasi paxtachiligidagi o'z mavqeyini kuchaytirish maqsadida, 1923 yil Ruc-Buxoro davlat paxta shirkatining (Buxpaxta) tashkil etilishi bo'ldi. Buxpaxtaning asosiy vazifasi Buxoroda paxta yetishtirishni va paxta sanoatini tiklash, Buxoro paxtasini «xususiy» va yakka tartibdagi olib sotuvchilikdan himoya qilish edi.

Sovetlarning ustamonlik bilan amalga oshirilgan chora-tadbirlari natijasida 1923 yildayoq chigit ekiladigan umumiy maydoni 80 ming tanobga yetdi, undan 1,6 mln. put paxta hosili olindi. Foydalanadigan yerlarning umumiy maydoni ham izchillik bilan qayta tiklanib bordi. Agar 1915 yilda bunday maydon 800330 desyatinani tashkil etgan bo'lsa, 1924 yilga kelib, 704320 desyatina yerda dehqonchilik qilindi.

Qizil imperiya bosqinidan keyin ikki yil mobaynida Buxoroda yer solig'i (xiroj) va u bilan birga boshqa soliqlar ham xalqdan undirib olinmaydi. 1922 yilda davlatning umumiy daromadi 1 mln. so'mni tashkil qilar edi, o'sha davrda davlatning qo'shinlarga, kishilarga va davlat apparatlari uchun xarajatlar olingan hisobi 15 mln. so'mni tashkil qilar edi. Respublikaning qiyin iqtisodiy ahvolini inobatga olib, 1922 yil 1 yanvarda Umumbuxoro MIQ davlat foydasiga quyidagi ko'rinishda soliqlarni joriy etdi: 1) Ushr – dehqonlardan 1/10 ulushida olinadigan soliq, 2) Zakot – chorvadan har qirq boshdan bir bosh olinadigan soliq; 3) Hunarmandchilikdan - sarmoyaning 1/40 ulushini oladigan soliq; 4) Suvning har bir tanob sug'oriladigan yerdan bir tanga (10 tiyin) olinadigan soliq; 5) Kommuna lyoki shahar solig'i – mol-mulkdan 1/40 ulushi olinadigan soliq.

1922 yilda davlatning turli tuzumlaridan olingan daromad 1 mln. so'mni, 1923 3 mln. so'mni tashkil etdi, bu amirlik davrida olinadigan soliq miqdorining 10% ni tashkil qilar edi.

Shuni aytib o'tish zarurki BKP MQ ning IV – syezdi hisobotida «Soliq kompaniyasining noto'g'ri yo'naltirishda olib borilayotganligi va soliq apparati tomonidan suiste'mol qilish holatlari mavjudligi qayd qilindi. Bundan ayniqsa aholining kambag'al qatlamlari aziyat chekayotgan edi.

Shuning uchun, 1923 yil 12 dekabrda RKM MQ BXSR da sovetlarning mahalliy xalq orasida obro'sini oshirish maqsadida soliqlarni kamaytirishni talab qilidi. Bu talabga binoan BXSR hukumati dehqonlaridan olinadigan ushr solig'i miqdorini 2860 mingdan 1900 ming so'mga kamaytirildi.

Sovet hokimiyatining qurolli bosqini shunday ham kuchsiz bo'lgan sanoatni izdan chiqardi. 1921 yil 1 iyunda YuXSR da 4 ta yog' zavodi, 9 ta g'isht zavodi, 5 ta teri zavodi, 3 ta ichak, sopol, qizilmiya ildizi zavodlari, 4 ta un tegirmoni, 2 ta qog'oz fabrikasi, mexanika ustaxonasi, elektrostansiya va ohak korxonasi mavjud bo'lib, ularda 5 mingga yaqin ishchilar ishlardi.

1922 yil RKP MQ Siyosiy byurosining qaroriga binoan, RSFSR Oliy Xalq Xo'jalik Kengashi BXSR ga to'qimachilik, qog'oz va sovun fabrikalari uchun asbob-uskunalar yubordi. 1923 yilda Zaraysk to'quv yigiruv fabrikasi Buxoro Respublikasi ixtiyoriga o'tkazildi, bu fabrika «Buxoro davlati sanoat to'quv yigiruv manifakturasi» «Qizil Sharq birlashmasi» deb qayta nomlandi. Ayni vaqtda buxorolik yigit va qizlardan 66 nafari Venyukovsk to'quv va chitga gul bosish fibrikasida to'qish ishlarini o'rgana boshladi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sanoat ishlab chiqarishda bir-muncha jonlanish yuz bergan bo'lsada, biroq Buxoro xalq xo'jaligining bu tarmog'ida umumiy ahvol 1924 yilda murakkabligicha qolgan edi.

1921 yil iyun oyidan boshlab Buxoro va Moskva o'rtasida tovar ayriboshlash boshlandi. Ikki yil mobaynida Qarshi va Karmana shaharlaridan Moskvaga 45 vagon bug'doy yetkazildi. Uning o'rniga rus poytaxtidan manufakturalar olindi.

Tiklanayotgan Buxoro –Rossiya aloqalarining dastlabki bosqichida ma'lum darajada teng bo'lgan amaliy sheriklik vujudga keldi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu sheriklikka Sovet Rossiyasi tomonidan tobora yaqqolroq siyosiy tus berildi va imperiyaparastlik yo'nalishiga ega bo'lib bordi. Bu xoll BXSR hukumatining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Hukumat raisi F.Xo'jayev Rossiya rahbariyati oldida Buxoro yetkazib berilayotgan tovarlarga teng tovar ekvivalentlari belgilash zarurligi haqidagi talabini bir necha bor qo'ygan edi.

Yosh Buxoro Respublikasi milliy davlat qo'shilishiga kirishar ekan, hukumatning demokratik ruhdagi rahbarlar mustaqil tashqi va ichki siyosatni amalga oshirishga, mustaqil savdo aloqalari o'rnatishga intilardi. Bu borada, faqat an'anaviy sheriklar Afg'oniston, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Musulmon Sharqi va boshqalar bilan teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yishga ahamiyat berilmasdan, balki rivojlangan va yirik investisiya imkoniyatlariga, zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan G'arb davlatlari bilan ham hamkorlik qilishga e'tibor qaratildi. Moskvalik rahbarlar esa, O'rta Osiyo bozoriga inglizlarning kirib kelishidan va Buxoro Respublikasining «Islom Sharq» bilan yaqinlashishdan cho'chir edilar. RSFSR tashqi ishlar xalq komissari G.Chigerin Buxoroni Buyuk Britaniya «qo'llab-quvvatlashi» va «Buxoro panislomizmi «Rossiya uchun ham eng real xavf» bo'lib qolishi mumkinligini ta'kidlagan edi. Bolsheviklar rahbariyatining buboradagi yo'l-yo'riqlari RSFSR bilan BXSR o'rtasida 1921 yil 4 martda tuzilgan «Ittifoq shartnomasida» o'zining aniq ifodasini topgan edi. shartnomaga ko'ra Buxoro Respublikasi tashqi savdoni faqat Rossiya orqali amalga oshirishi,

Buxoroning davlat chegaralarini Rossiya qo'shinlari tomonidan quriqlanishi belgilab berildi.

1922 9 avgustda RSFSR va BXSr o'rtasida «Iqtisodiy shartnoma» imzolandi. Bu shartnomaga binoan, Buxoro tashqi iqtisodiy aloqalarini Rossiyaning roziligi bilan olib borilishi kerak edi. Bu shartnoma yuqorida aytib o'tilgan «ittifoq shartnomasini» mustahkamladi.

Shunday bo'lsada, Buxoro Respublikasi hukumati Rossiyaga ko'p yillik an'anaviy aloqa vositasi bo'lgan tovar ayriboshlashni taklif qildi. Erishilgan bitim natijasida Buxoro bilan Rossiya federasiyasi o'rtasidagi dastlabki iqtisodiy aloqalar ko'proq molga-mol ayriboshlash asosida amalga oshirildi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida madaniy hayot.

XXSR hukumati madaniy-ma'rifiy ishlarga ham keng e'tibor berishga harakat qildi. 1920 yil bahorida yangi hukumat tarkibida mulla Bekchon Rahmonov boshchiligidamaorif va madaniyat nozirligi tashkil etildi. Lekin yangi hukumat qo'lida hali yetarli mablag', maktablar uchun binolar, muallimlar, eng muhimi tajriba yetishmas edi. Respublikadagi yangi tipdagi maktablar 1920 yil bahorida tashkil qilana boshlandi. Dastlabki boshlang'ich umumta'lim maktablari Xiva, Yangi Urganch, Kat, Darg'on ota shaharlarida paydo bo'ldi. Bu maktablarda darslar o'zbek va turkman tillarida olib borildi. Muallimlar yetishmasligi sababli eski maktab xodimlaridan foydalanildi. 1921 yilda ana shu muallimlardan 16 nafari sovet maktablarida ishlashga o'tgan edilar.

Shu bilan birga maorif nozirligining maxsus topshirig'i bilan Xorazmdagi mavjud 1,5 mingga yaqin eski maktablar va 130 madrasalarning o'quv dasturiga qisman o'zgarishlar qilindi, diniy bilimlar bilan bir qatorda tarix, jug'rofiya, arifmetika, o'zbek tili va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitish haqida ko'rsatma berildi.

1923 yil yoziga kelib XXSR dagi yangi tipdagi boshlang'ich maktablar soni 29 taga yetdi. Shuningdek 9 ta maktab, internet va 3 ta ixtisoslashgan namuna maktablari faoliyat ko'rsatdi. Ularda jami 1600 nafardan ortiq o'quvchi-yoshlar bilim oldilar.

Respublika xalq maorifi katta yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish masalasiga ham alohida e'tibor berdi. Savodsizlikni tugatish maktablarga 17 yoshdan 35 yoshgacha jalb qilindi. Shahar va qishloqlarda savodsizlikni tugatish kurslari va maktablari ochildi. Ushbu maktabda 1921 yilning o'zida 410 kishi o'qish va yozishni o'rgandi. 1923 yilga kelib katta yoshdagilar uchun 20 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochilib, ularga 767 kishi jalb qilindi. Porsu, Xujayli, Qurg'irot va Alieli tumanlarida qozoq va turkman tillarida ham ana shunday maktablar tashkil qilindi. Umuman respublika bo'yicha 1920-1924 yillar davomida 1800 dan ortiq aholi savodsizligini tugatgan edi.

XXSR hukumati xalq maorifini qo'llab quvvatlash maqsadida imkon darajada mablag'ni yildan-yilga oshirib bordi. Agar 1922 yilda shu maqsad uchun ajratilgan mablag' 42,2 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1924 yilga kelib 253 ming so'mga (oltin hisobida) yetdi. Shuningdek, respublikada maorif uchun xayriya jamg'armalari to'plash ham yo'lga qo'yildi.

Lekin respublika maorif tizimida malakali kadrlar yetishmadi. Bu muammoni hal qilish uchun RSFSR va Turkiston ASSRda bo'lganidek XXSR da ham qisqa kurslar va maxsus o'quv yurtlari ko'plab tashkil etildi. 1920 yil Xivada tashkil qilingan muallimlar tayyorlash 3 oylik kursini 40 kishi tamomladi. 1921 yilda 100 kishi, 1922 yilda 92 kishi bitirib, maktablarga yo'llanma oldilar. Biroq qisqa kurslarni bitirib chiqqan bu muallimlar o'quvchilarni faqat o'qishga va yozishgagina o'rgata olrdilar xolos. Chuqur bilim berishga ularning malakasi yetishmasdi. Buning uchun esa oliy ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirish zarur edi.

1921 yil sentyabrda Xivada ochilgan Xalq universiteti respublika madaniy xayotida katta voqyea bo'ldi. Xalq xo'jaligining turli sohalarga kadrlar tayyorlash uchun tashkil etilgan bu universitetda o'qish 3 yilga muljallangan bo'lib, dastlabki yilda unga 83 nafar mahalliy yoshlar qabul qilindi. 1922 boshlab Xivada qisqa muddatli kurslar o'rniga 3 yillik muallimlik seminariyasi ochildi. 1923 yilga kelib bular pedagogika texnikumiga aylantirildi.

1923 yilda RSFSR dan Xorazmga mahalliy tilni biladigan 23 o'quvchi yuborildi. Ular Orenburg shahrida mahalliy o'quv yurtini tamomlagan mutaxassislar edi. Yana 16 nafar o'quvchi shartnoma asosida ishlash uchun Xorazmga keldi.

Shu bilan birga Xorazm Respublikasining bir qator o'quvchi – yoshlari O'rta Osiyo va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'qishga yuborildilar. Chunonchi, 1923 yilda Toshkent, Moskva, Qozon, Orenberg va boshqa shaharlariga Xorazmdan 70 nafar, 1924 yilda esa 150 dan ortiq yigit va qizlar turli ixtisosliklar bo'yicha o'qishga yuborilgan edi.

Yangi uslubdagi sovet maktablarini o'zining qadimiy o'qish va o'qitish an'analarga ega bo'lgan Xorazm xalqiga birdaniga joriy qilinishi xalq ayniqsa, ruhoniylar orasida noroziliklarga sabab bo'ldi. Masalan, 1920 yil 8-9 iyulda Xiva shahrida bo'lgan ko'p kishilik namoyishda, 1923 yilda yangi Urganchda Abduniyoz Oxun boshchiligida 300 ga yaqin kishi qatnashgan namoyishda yangi tipdagi sovet maktablari shariat qoidalariga to'g'ri kelmasligi aytilib bolalarni bu maktablarga bermaslikka chaqirdilar. Aks holda musulmonlar narigi dunyoda Olloh g'azabiga duchor bo'ladilar deb xitob qildilar.

1924 yil avgustda Amudaryo orqali kema markaziy shaharlarga o'qishga ketayotgan 22 nafar xorazmlik yigit va qizlar ma'rifat dushmanlari tomonidan xalok qilindilar.

20 yillarning boshlarida Xorazm Respublikasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Bu ishlar asosan sovetlar Rossiyasi tashabbusi va rus olimlari tomonidan amalga oshirilgandi. Chunki uzoqdan ko'zlab qilingan bu tadqiqotlardan Xorazm bilan bir qatorda va ko'proq Rossiya manfaatdor edi. 1923 yilda I.N.Shastal, G.N.Cherdansev, S.K.Malyukin kabi iqtisodchi olimlar ishtirok etgan maxsus ilmiy ekspedisiya Xorazm Respublikasining iqtisodiy ahvoli va uning rivojlanish imkoniyatlarini o'rgandi. Ekspedisiya tadqiqotlarning yakuniy xujjatlari O'rta Osiyoni milliy chegaralashda keng foydalanildi. Shu yillarda qo'yi Amudaryo etaklarida tekshirish ishlarini o'tkazgan B.M.Gergiyevskiy boshqa ekspedisiya Xorazmni geologik va gidrogeologik jihatdan o'rgandi.

1921-1924 yillarda mashxur olim, injener, iligator F.P.Margunenkov boshchiligidagi ekspedisiya Xorazmning sug'orish tarmoqlarini, yer, suv resurslarini o'rganish ishlarini olib bordi. Ekspedisiyada ishtirok etgan olimlar tomonidan to'plangan qimmatli materiallar va ilmiy xulosalar keyinchalik Janubiy Xorazm suv xo'jaligini ilmiy asosda tubdan qayta qurish uchun asos bo'ldi va Xorazmda paxtachilikni rivojlantirishda katta xizmat qildi.

Shuningdek Xorazm Respublikasida tarix ilmiga ham alohida e'tibor berildi. Xalq maorifi nozirligida ishlayotgan tarixchi olim Muhammad Yusuf Bayoniy (1870-1925) hukumat topshirig'iga binoan «Xorazm tarixi» asarini yozdi. Bayoniy o'zining 1920 yildagi bolsheviklar bosqinchidan oldin tayyorlagan «Shajarai Xorazmshoxi» asarini qayta ishlab, Xorazmning haqqoniy tarixini yaratdi. «Xorazm tarixi» asari 16 bobdan iborat bo'lib, bizgacha 8 bobi yetib kelgan, xolos. O'sha yilda yaratilgan «Xorazm musiqa tarixi» nomli tadqiqot ham muhim tarixiy asarlar sirasidan joy oldi. Bu asar 1925 yilda Moskvada chop etilgan edi. Respublikada madaniy Oqartuv muassasalarini tashkil etishga, ular asosida aholini «Yangicha madaniyat», «Yangicha ma'naviyat» va sosializm ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Xalq xukumati va jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan respublikaning shahar va qishloqlarida klublar, kutubxonalar, qizil choyxonalar tashkil etildi. Dastlabki klub va kutubxona Xiva shahrida 1920 yil yozida sobiq xon saroyi binosida tashkil qilindi. 1921 yil 11 aprelda Xivada xonning tosh xovli binosida xalq muzeyi ochildi. Muzeyga Xorazm tarixi, madaniyati va etnografiyasiga oid qimmatbaho ma'lumotlar qo'yildi. Shuningdek, klub va kutubxonalar Yangi Urganch, toshxovuz, Xo'jaeli, Qung'iroq va boshqa shaharlarda ham barpo etildi. 1923 yilga kelib Xorazm Respublikasida 8 ta klub va madaniyat uylari, 5 ommaviy kutubxonalar, 4 qizil choyxona va kinoteatrlar aholiga madaniy-ma'rifiy xizmatlar ko'rsatdi.

Xorazm Respublikasi madaniy hayotida Xudoybergan Devonovning (1870-1940) o'zni salmoqli bo'ldi. U birinchi o'zbek fotosur'atchisi va kinochilaridan bo'lib, butun umrini Xorazmning arxitektura yodgorliklarini xorazmliklarning turmush tarzini, diyor tabiatini, respublika hayotida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy voqyealarini fotosur'atga va kinotasvirga tushirishga bag'ishladi. X.Devonov Xorazm xalqi uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bir mingga yaqin fotosur'at, 10 ga yaqin kinolavxalarni madaniy meros sifatida qoldirdi.

XXSRda musiqa va teatr san'atini zamonaviylashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Hamza Hakimzoda Niyoziy (1921-1924 yillarda Xamza Xorazm Respublikasida yashagan edi)ning xizmatlari katta bo'ldi. Xivaga taniqli bastakorlar, xofizlar, raqqosalar, qiziqchi-masxarabozlar to'planib, ular ishtirokida badiiy tuguraklar, konsert gruppalari, maqomchilar ansambllari tashkil etildi. 1920 yil o'rtalarida Xivada dastlabki sahna teatriga asos solindi. 1922 yil Hamza Hakimzoda Niyoziy Xivada bir necha drama teatrini tashkil etdi. Teatrda Xamzaning «Tuhmatchilar jazosi», «Boy ila xizmatchi», «Farg'ona fojeasi» kabi «Inqilob» ni ulug'lovchi asarlari qo'yildi.

20 yillarning dastlabki oylarida Xorazm hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va amalga oshirilayotgan tub o'zgarishda adabiy jarayonga o'z

ta'sirini ko'rsatdi. Xorazm badiiy adabiyoti tashkil qilingan yosh Xorazm Xalq Respublikasini qo'llab-quvvatladi. Unga ozodlik, demokratik tuzum timsoli sifatida qaradi. Bayoniy, Safo Mug'aniy, Devoniy, Soib Nazariy va boshqalar o'zlarining «Yaxshi davron», «Xurriyat», «Inqilobga», «Bizlarga bayram» kabi va boshqa she'r va g'azallarida yangi xalq respublikasiga umid bilan qaradilar va uni olqishladilar.

XXSRda xotin-qizlar ozodligi, ularni yangi hayot qurishga jalb qilish borasida ham muhim ishlar qilindi. XXSRning birinchi konstitusiyasida fuqarolarning millati va jinsidan qat'iy nazar teng huquqqa ega ekanligi qayd etiladi. Xivada Markaziy hukumat tarkibida maxsus xotin-qizlar bo'limining tashkil etilganligi bu sohadagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Bu bo'limga Bibijon Idrisova boshchilik qildi. Bunday bo'limlar respublikaning boshqa viloyatlarida ham tashkil etildi. Xotin-qizlar bo'limi mahalliy ayollar o'rtasida tashviqot, targ'ibot ishlarini olib bordi. Ularni o'qishga va jamoat ishlariga jalb qildi. Xotin-qizlarga nisbatan boy feodallarcha munosabatlarga qarshi keskin kurash olib bordi. Hukumatning maxsus qonunlar bilan yosh qizlarni bevaqt erga beri shva qalin olish qat'iy taqiqlandi.

XXSR hukumati matbuot ishlarini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berdi. 1920 yil mart oyidan boshlab respublikada birinchi «Inqilob qo'yoshi» nomi bilan o'zbek va turkman tillarida gazeta nashr qilina boshlandi. 1921-1922 yillarda RSFSR Xorazmga ikki zamonaviy bosmaxona uskunolari va ularni ishga tushura oladigan bir guruh mutaxassislar yuborildi. Bu xorazmda mabtuotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1921-1924 yillarda yana «Xorazm xabarlari», «Qizil yoshlar ovozi», «Ishchilar tovushi» o'zbek va turkman tillarida, «So'nggi axborot», «Oq yo'l» gazetalari qozoq tilida, «Dong yulduzi» turkman tilida, «Najot» fors tilida nashr qilindi. Shuningdek, 1922 yildan boshlab «Qizil Xorazm», «Maorif» va Xajviy «Qopqon» jurnallarini chop etish boshlandi. O'sha davrda Xivada bosmaxona ishini tashkil qilishda Otajon Abdalovning alohida xizmati bor. U kishi Xivaning savodxon ilg'or demokratik g'oyalari bilan sug'orilgan ziyolilardan edi. Petro Aleksandrovska shahrida rus tuzem maktibini mavaffaqiyatli tamomlab, rus tilini puxta o'rgangan. Obdalov ham Xiva inqilobidan ancha ilgari monografiya (tosh bosma) ni tashkil etish hamda unda kitob bosishni yo'lga qo'yishda alohida jonbozlik ko'rsatdi. 1923-1924 yillarda Xiva bosmaxonasida dastlabki asarlar «Yugurma» to'plami va «Otalar nasixati» nomli xalq maqollari to'plam shaklida o'zbek tiliga bosilib chiqdi.

Xorazm Xalq Respublikasida ijtimoiy masalalarga, ayniqsa, xalq salomatligini yaxshilashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu borada Turkiston Respublikasi va RSFSR malakali vrachlar, feldsherlar, dori-darmonlar hamda kasalxona va ambulatoriyalar uchun zarur anjomlar bilan yordam berdi. 1923 yilda Xivada 100 o'rinli kasalxona qurib bitkazildi. Kasalxonada 3 nafar yuqori malakali vrachlar va bir necha feldsherlar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatdi. Kasalxona qoshida ochilgan poliklenikada har kuni 150 yaqin bemorlarga tibbiy yordam qilindi. Respublikaning boshqa shaharlarida ham bir qator feldsherlik davolash punktlari ishga tushurildi. Xorazmda bolalar orasida chechak kasali ko'payganligi sababli, unga qarshi kurashda yordam berish uchun 1923 yilda

Toshkentdan taniqli epidemiolog Minkeviy boshchiligida bir guruh tibbiyot hodimlar yuborildi.

Respublika hukumati xalq xo'jaligini rivojlantirishning 1923-1924 yilga muljallangan rejasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni yanada kengaytirish vazifasini belgiladi. Natijada, 1924 yilga kelib Xorazmda stasional kasalxona, tish davolash punktlari, bezgakka qarshi emlash stansiyasi, 4 dorixona hamda 16 ta ambulatoriya-feldsherlik punktlari ishga tushurildi va ularda 74 nafar medisina xodimlari faoliyat ko'rsatdi. Ular bir kunda 500 dan ortiq bemorlarga tibbiy yordam ko'rsata boshladi. Bu tadbirlar xalq salomatligini yaxshilash, tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish borasida qo'yilgan dastlabki qadam edi.

Biroq respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan bu tadbirlar mamlakatdagi siyosiy vaziyatni tubdan o'zgartira olmadi. Siyosiy ahvol murakkabligicha qolaverdi. O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida bo'lganidek, Xorazmda ham xalqning tinimsiz qarshiligi o'z davlatchiligini turmush-tarzi, dini, milliy qadriyatlarini o'zgarmasligini himoya qilish yo'lidagi keng miqyosli ozodlik harakatiga aylanib ketdi. Shu bilan birga asrlar davomida shakllangan bu davlatlarning mavjudligi bolsheviklarning O'rta Osiyo yuzasidan muljallagan maqsadlarini ro'yobga chiqishiga tusqinlik qilar eji. Lekin qizil armiya qismlarining qudratli kuchi ham bu xalqning ozodlik uchun kurashlarini tuxtata olmas edi. Buni yaxshi tushungan Rossiya Bolsheviklari rahbariyati bu davlatlarga butunlay chek qo'yish maqsadida O'rta Osiyoda milliy-xududiy chegaralash g'oyasini o'rtaqa tashladi va uni zudlik bilan amalga oshirishga kirishdi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida madaniy hayot.

BXSR da ham ma'orif va madaniyat sohasida ham keng islohatlar amalga oshirildi. Bu borada, Buxoro hukumati tarkibida tashkil qilingan ma'orif nozirligi va uning birinchi noziri Abdurauf Fitrat faollik ko'rsatdi.

1920 yil sentyabr voqyealaridan ko'p o'tmay Fitrat Buxoroga keldi. Ehtimol bunda Fayzulla Xo'jayevning xizmati bordir. Chunki ularning bir-birlariga xurmati va ixlosi juda baland bo'lgan. Fitrat Fayzulla Xo'jayevning did va siyosatini, siyosatchilik iqtisodiyotini yuksak qadrlar, u ham o'z navbatida adibning noyob iste'dodli baland tutar edi. Xulas Fitrat 1920 yilning oxirlarida Fayzulla Xo'jayev bosh Buxoro hukumatining a'zosi edi. Partiyaga esa 1919 yil Toshkentdaligida o'tgan. O'sha yili iyunda bo'lib o'tgan BKP I-syezdidagi MQ da a'zo bo'lgan, so'ngroq Buxoroda payti BKP MQ siyosiy byurosi a'zosi qilib saylandi. 1921 yildan xalq Maorifi noziri, yana bir yil o'tgach koriniya noziri, xalq xo'jaligi yig'ilishining raisi, jumxuriyat MIK o'rinbosari, xalq nozirlari sho'rosining muovini, hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, BXShJ Mehnat Kengashining Prezidium a'zosi vazifalarini olib bordi. Jumxuriyat ijtimoiy-madaniy hayotning hamma masalalarida faol ishtirok etdi. Fitrat va Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan zamonaviy kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Fitrat bosh xalq maorifi nozirligi 1920 yilning 30 oktyabrida Buxoro inqilobi tarixini yopish to'g'risida qaror qabul qiladi. 60 ortiq yosh buxoroliklar Germaniyaga o'qishga yuboriladi. 1922 yil 14 sentyabrda esa Jumxuriyat Markaziy Ijroya Qo'mitasi Buxoroda dorilfunun ochish haqidagi tarixiy qarorni e'lon qiladi, Buxoro ilmiy jamiyati tuziladi. Fan, madaniyat tarixiga oid nodir

qo'lyozmalar to'plana boshladi. Tadqiqot ishlari yo'l ochildi. Jamiyatning «Anjumani tarix» sho'basi qisqa muddat ichida «Buxoro arki tarixi» qo'lyozmasini tayyorladi. 1921 yil martdan Buxoro jumxuriyati turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi. Davlat teatri tuzildi (1921). Toshkentdan Mannon Uyg'un, Cho'lpon taklif qilindi. Vaqf ishlarini boshqarishga esa Munavvarqori Abdurashidxonov jalb etildi. Yosh jumxuriyat juda qisqa muddatda Turkiya, Eron, Afg'oniston bilan do'stlik, hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'ydi. Germaniya va Ozarbayzon o'z vakolatlarini ochdi. Bu ishlarning barchasi o'z navbatida Fitratning va uning safdoshi Fayzulla Xo'jayevning aqli va g'ayrati bilan boshlangan edi. Biroq jumxuriyatning erkinlik, mustaqillik yo'lidagi bu harakatlari markazning Turkistondagi noibi Turkkomissiyaga yoqmad. Buxoro jumxuriyatida hokimiyatga boylar, savdogarlar tortildi. Birorta ham dehqon yo'q, uning ustiga hammayoq qarindoshchilik degan ayb qo'yildi. Shu yil 23 iyunda RKA(b) MQ kotibi L.Ye.Rudziton ishtirokida BKAMQ ning Pleniumi o'tkazildi. Buxoro hukumatining 5 a'zos – Aminov, Otaxo'jayev, Sattorxo'jayev, Yoqubzodalar qatorida Fitrat ham partiyadan o'chirilib, ishdan olindi. 24 iyunda o'tgan Buxoro Jumxuriyati MIKning II sessiyasi esa Fitratni «Buxorodan chiqarmoqqa» qaror berdi. 1923-1924 yillarda Fitrat Moskvadagi sobiq Lazizov nomidagi jonli Sharq tillar (1921 yildan Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot) institutida ishladi, ilmiy ish bilan shug'ullandi. Sankt-Peterburg davlat universitetining Sharg' fakultetida Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qidi, professorlikka saylandi. Ayni paytda, «Abulfayzxon» (M-1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (T-1924), «Bedil» (M-1923, T-1924) ilmiy ommaviy ocherkli kabi darslik va qo'llanmalari bosildi.

Abdurauf Abdurahim o'g'lining adabiy taxallusi fitrat bo'lib, bu so'z «to'g'ma tabiat, tabiatning qayta yaratilishi» ma'nolarini anglatadi. Talabalik yillarida yozilgan Forsiy g'azallarida Mijmar (cho'g'dan xo'shbuy narsalar solib tutiladigan idish) taxallusini qo'llagani haqida Sadridin Ayniy o'zining «Buxoro inqilobi tarixi» kitobida ma'lumot beradi.

Fitratning otasi Abduraxim dindor, ilohiyot ilmidan chuqur xabardor bo'lib, savdogarlik bilan shug'ullangan. Fitratning onasi Mustafibibi (oilada uni Bibijon deb atashgan) noziktabiat, savodli ayol bo'lib, farzandlarining ta'lim-tarbiyasi bila nasosan shu kishi shug'ullangan. Onasining uzchil ta'sirida Abduraufda juda yoshligidanoq she'r zavqi uyg'ongan, badiyat dunyosida yo'l topgan.

Abdulqodir Muhitdinov (1892-1934) Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi, davlat arbobi.

Abdulqodir Muhitdinov 1892 Buxoro shahridagi yirik savdogar Muhitdin Mansurov oilasida tug'ilgan. Ayrim manbalarga qaraganda u Istanbul madrasasida o'qigan. Otasi – Muhitdin Mansurov Buxorodagi ilk jadid gozetasi – «Buxoroi sharif»ni moddiy jihatdan ta'riflab turgan jadid maktablariga xomiylik qilgan. Shuningdek, Muhitdin Mansurov 1917 yil Buxorodagi aprel voqyealaridan keyin yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy qo'mitasining raisi vazifasini qisqa muddat bajargan. Ma'rifatli otaning farzandi bo'lgan Abdulqodir Muhitdinov jadidlar

harakatida faol ishtirok etadi. 1910 yilda Orenburgdagi «Bont» gazetasida uning dastlabki maqolasi chop etiladi.

1918-1920 yillarda Abdulqodir Muhitdinov Buxoro jadidlarining faol a'zosi sifatida Samarqand, Toshkent va Moskva muxojirlikda yashashga majbur bo'ladi. U Turkiston Musulmonlar byurosining a'zosi (1919-1920) edi. Buxoroda amirlik qizil askarlar kuchi bilan ag'darilgach Abduqodir Muhitdinov Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi raisi (1920 yil sentyabrdan 1921 yil sentyabr) BXSRdehqonchilik noziri (1920 yil sentyabrdan) kabi mas'ul lavozimlarda ishladi. Abduqodir Muhitdinov BXSRning xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqa o'rnatish tarafdori Buxoro Respublikasi hududidan bosqinchi qizil askar qismlarini olib qochib ketishni va Buxoroda xalq milisiyasi singari milliy armiya tuzishni qat'iy talab qilgan rahbar edi.

Shuning uchun ham Markazning Turkistondagi tayanchi bo'lgan Turkkomissiya tomonidan Abduqodir Muhitdinov va uning tarafdorlari «o'ng og'machilik»da ayblandi va lavozimidan bo'shatildi. Lekin, shunga qaramasdan u 1921-1924 yillarda BXSR savdo va sanoat noziri, mehnat kengashi raisi, BXSR Nozirlar kengashi raisining ikkinchi muovini lavozimlarida ishladi va Buxoro Respublikasining mustaqilligi, e'tiqod erkinligi, demokratik islohotlarni yoqlab chiqdi. Abduqodir Muhitdinov bilan Fayzulla Xo'jayev o'rtasida ayrim masalalarda kelishmovchiliklar bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shunday bo'lsada, ular Buxoroda demokratik tuzumni qaror tortirish uchun birgalikda faoliyat ko'rsatishdi.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (1878-1968) Buxorodagi jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, taniqli davlat va jamoat arbobi.

Usmonxo'ja 1878 yil Buxoro shahrida tug'ilgan. Otasi Qori Po'latxo'ja buxorolik savdogar bo'lgan. U dastlabki taxsilni Buxorodagi madrasada oldi va ilk jadid maktablaridan birini ochdi. 1908 yil do'sti Hamdxo'ja Mehriy bilan Turkiyada-Istanbulda taxsil oladi. 1913 yil Usmonxo'ja Buxoroga qaytadi va yana jadid maktabi ochadi. U 1910 yil tuzilgan «Tarbiyai atfol» maxfiy tashkilotning faol a'zolaridan biri.

Usmonxo'ja va uning ukasi Otaxo'ja (Otaulla Xo'jayev 1894-1938) yosh buxoroliklar partiyasining yirik namoyondalaridan edi. Kolesovning Buxoroga bosqinidan so'ng (1918 yil mart) Usmon Xo'ja Sovet Turkistonga muxojirlikka ketishga majbur bo'ladi. 1918 yil aprelda u Toshkentda yosh buxoroliklarni so'l SSRlar guruhini tuzadi. 1920 yil fevralda Usmonxo'ja inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi byurosining a'zosi bo'lib saylanadi.

Usmonxo'ja BXSR tuzilgach, moliya noziri (1920), davlat nazorati noziri (1921). BXSR MIK ning birinchi raisi (1921 yil avgust, dekabr) kabi lavozimlarda ishladi. U Buxoro Xalq Respublikasidan bosqinchi qizil askar qo'shinlarini olib ketishini, Buxoroning haqiqiy mustaqilligi uchun kurashdi. 1921 yil dekabrda Usmonxo'ja Sharqiy Buxoroda (Dushanbe atrofida) istiqlolchilar safiga o'tadi va 1922 yil Afg'onistonga o'tib, Buxoro Respublikasining mustaqil milliy armiyasi uchun zamonaviy qirollar sotib olishga harakat qiladi.

BXSR hukumati inqilobiy qo'mitaning 1920 yil 20 oktyabrdagi qarorida respublika hududidagi barcha eski maktablar va madrasalarni isloh qilish va

ulardan dunyoviy bilimlarni kengroq o'qitilishi joriy qilish ko'zda tutildi. Shu bilan bir qatorda yangi tipdagi maktablar tashkil qilish, aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari ham boshlab yuborildi. 1923 yilga kelib, Buxoro Respublikasidagi yangi tipdagi maktablar soni 40 ta bo'lgan bo'lsa, 1929 yilda 69 ta umumta'lim, 4 ta mustaqil, 3 hunar maktablari, 13 ta internat faoliyat ko'rsatdi. Ularda jami 5604 o'quvchi ta'lim oldi. Biroq bu raqam maktab yoshidagi bolalarning faqat 3,1% ini tashkil qilar edi, xolos. Buxoroda xotin-qizlar ta'limida ham kata e'tibor berildi. Ular uchun maxsus maktablar tashkil etildi. 1923-1924 o'quv yilida respublikada ana shunday maktablardan 5 tasi mavjud bo'lib, ularda 306 xotin-qiz o'qigan edi. Umumiy ta'lim maktablarini darsliklar va boshqa adabiyotlar bilan ta'minlash va hukumat tomonidan xalq maorifi saylashga ajratilayotgan mablag' xajmi ham ortib bordi. Masalan 1922-1923 o'quv yilida davlat byudjetining 5,6% miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, bu raqam 1923-1924 o'quv yiliga kelib 21%ni tashkil etdi.

Buxoro Respublikasida maorif va madaniyatni rivojlantirishda Abdurauf Fitratning xizmatlari katta bo'ldi. Uning tashabbusi bilan 1922 yil 14 sentyabrda BXSR MIK Buxoro dorilfununini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Shuningdek bu davrda Buxoroda 2 ta o'qituvchilar instituti ham faoliyat ko'rsatgan edi.

Buxoro hukumati milliy yoshlarni ilg'or xorijiy davlatlarda o'qib zamonaviy bilimlar olishga katta e'tibor berdi. 1921 yil A.Burxonov va Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan 50 nafar yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborildi. Buxoro hukumati ularning har biri uchun 9-10 yilga yetadigan mablag'ni Germaniya bankiga o'tkazdi. RSFSR hukumati esa buxorolik yoshlarni xorijda o'qishlariga qarshilik ko'rsatishga harakat qildi. Xatto B.Qo'ybeshev, Fayzulla Xo'jayev va Muinjon Aminovdan Germaniyada ta'lim olayotgan buxorolik yoshlarni chaqirib olishni talab qildi. Uning talabi qondirilmadi, lekin milliy chegaralanish amalga oshirilishi natijasida Buxoro Xalq Respublikasi tugatilganidan so'ng Moskva Buxoro hukumatining Germaniyada o'qiyotgan talabalar uchun yuborilgan mablag'larini qaytarib oldi. U yerda ta'lim olgan buxorolik yoshlarni keyingi taqdiri esa – fojeali yakunlanadi.

Buxorodagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish va ularni muxofaza qilish maqsadida 1920 yil oxirida xalq maorifi nozirligi xuzurida tarixiy yodgorliklarni muxofaza qilish uchun maxsus sho'ba tashkil etildi. Ushbu sho'ba ichida ayniqsa. A.Yusufzoda fidoiylik bilan faoliyat ko'rsatdi. Uning tashabbusi bilan 1924 yil 1 avgustda Moskvada Buxorodagi mavjud tarix va madaniyat obidalarini ta'mirlash bo'yicha shartnoma tuzildi. Shuningdek Buxoro hukumati mamlakatda madaniyatiy oqartiv muassasalari tashkil qilish va ular faoliyatini yaxshilashga ham e'tibor qaratdi. 1924 yilga kelib Buxoroda 14 kutubxona, drama teatri, muzey va klublar alohida xizmat ko'rsatdi. Yangi gazeta, jurnallar va boshqa adabiyotlar chop etish ham yo'lga qo'yildi.

Aholi salomatligini muhofaza qilishga doir keskin muammolarni hal etishda muayyan qadamlar qo'yildi. Masalan, 1922 -1923 yillarda BXSR bezgak kasalini tarqalishiga qarshi dori-darmonlar harid qilishga, kasalxonalar va

profilaktika muassasalarini qurilishiga bir mln. oltin so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Xalq maorifi masalasi garchi uzil-kesil hal yetilmagan bo'lsada (xalq etilishi mumkin ham emas edi) ancha oldinga siljidi. Sovet hukumati xalq maorifiga anchagina mablag' sarfladi. Bu sohada olib borilayotgan yo'l shundan iborat bo'ldiki, butun mamlakatda yangi sovet maktablarini barpo etish va bolalarni eski usul maktablariga borib o'qish zaruratidan xolos qilmoq uchun mumkin qadar ko'proq bolalarni yangi maktablarga tortish kerak edi. Bu sohada juda ko'p hollarda ish shu darajaga borib yetdiki, hukumat o'qib turgan bolalarning ota-onalari uchun bir qancha imtiyozlar berishga majbur bo'ldi. Masalan, 1920 yilning ma'lum davri davomida sovet maktablarida bolalarni uzluksiz o'qit turgan ota-onalar har xil imtiyozlar olib turdilar.

Pedagogik kadrlar tayyorlash masalalari ham Maorif Xalq Nozirligining ishida katta o'rin oldi, chunki pedagogik va madaniy kadrlar bo'lmasa, maktablarni ko'paytirish va kengaytirish ham 95-96% savodsiz aholini loaqal asta-sekin bo'lsa ham o'qitish vazifalarini mutlaqo amalga oshirib bo'lmas edi.

Hukumat tomonidan tashkil etilgan maktab va urslarda sovet va xo'jalik apparatlarining hodimlari tayyorlandi. Buxoroning turli joylaridan ko'pgina kishilar o'qishga yuborildi. 1923 yilning boshida maorif nozirlarining 69 ta maktabi va kurslarida o'qib turgan o'qituvchilar soni 4000 ga yaqinlashib qoldi. Shularda 120 kishi studentlar edi. Respublikada 19 ta madaniy oqartiv muassasalari, shu jumladan 17 ta kutubxona va qiroatxona, bir mizzey, 2 ta drama truppasi, bir teatr va 4 kinoteatr ishlab turdi. 1924 yil 2 yanvarda eski Buxoroda 60 kishilik klub ochildi.

Buxoro va Chorjo'yjagi muallimlar tayyorlash institutlarida o'qiyotganlarning yarmisi tojiklar va turkmanlar edi. Mahalliy millatlardan muallim kadrlar tayyorlamoq uchun pedagogika kurslarida o'qitilayotgan studentlar soni 400 kishiga yetkazildi hamda Eski Buxoro va Dushanbeda tojik muallimlar tayyorlamoq uchun har biri 150 kishilik qo'ishimcha kurslar ochildi. 1923 yilda pedagogika kurslarini 70 nafar o'quvchi bitirib chiqdi, shulardan o'zbeklar 43 kishi, tojiklar 15 kishi, turkmanlar 7 kishi va totarlar 5 kishi edi.

Moskvada Sharq mehnatkashlari kommunistik institutida 1923 yilda Buxoro kommunistlaridan 30 kishi, Toshkentdagi O'rta Osiyo universitetida 80 kishi, va O'rta Osiyo Kommunistik universitetida (SAKU)ning ishchilari fakultetida 30 kishi o'qidi.

1923 yil 27 martda SSSR Xalq kommissarlari sovetining qarori bilan Moskvada Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bolalari uchun Buxoro bilim yurti ochildi, bu yerda 220 nafar yigit va qizlar o'qib turdi.

1923 yilda respublikada 240 o'rinli 5 ta Xalq kasalxonasi, 2 ambulatoriya va uning xuzurida 15 o'rinli tug'ruqxona, 6 ta vrachlik punktlari, 8 ta feltsherlik punkti Buxoro shahrida kurash markaziy stansiyasi ishlab turdi. 1924 yil 1 yanvarda esa doktor L.M.Isayev tashabbusi bilan tashkil etgan tropik institut ishga tushdi. F. Xo'jayev va A.Fitrat tashabbusi bilan RSFSR maorif xalq komissari A.V.Aunagorskiyga quyidagi ma'noda xat yo'llashdi:

-Buxoro Xalq Sovet Respublikasining maorif xalq nozirligi RSFSRdagi turli maktablarda maxsus fanlar bo'yicha ilm olish uchun turli yoshdagi 11 bolani Moskvaga yuborayotir.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining xalq nozirligi sho'rosi bulajak shogirdlarning shaxsiy ro'yxatini yuborib, bu ishda yordam berishingizni: bolalarni o'z xohishiga binoan Moskva o'quv yurtlariga joylashtirib qo'yishingizni, ularni uy-joy bilan, o'quv-qurollari va kiyim-kechaklari bilan ta'minlashingizni va ularga oziq-ovqat berib turishingizni surab sizga murojaat qilaman.

Qilinadigan harakatlarni Buxoro Respublikasi o'z zimmasiga oladi.

Iltimosimiz to'g'risidagi qarorimizni Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Xalq Nozirlari sho'rosiga va maorif nozirligiga ma'lum qilib qo'yishingizni o'tinaman.

1922 yil Turksiton ASSR Buxoro va Xorazm xalq respublikalaridan Turkiyaga Xolid Said Xo'jayev, Eson Musayev, Miyon Buzruk Solixov, Mulla Bekjon Rahmonov, Germaniyaga Abduvahob Murodiy, Saidali Xo'ja Usmoniy, Shamsulbanod Ashirov qizi Sattor Jabbor, Ahmadjon Ibrohimov, Mayram Sultonmurodova kabi bir qancha o'zbek yigit va qizlari xorijdagi ilm – fan yutuqlarini egallash uchun o'qishga yuborildilar. Ular Turkiyaning Istanbul, Izmir, Anqara, Germaniyaning Berlin, Xaydelberg, Drezden, Shtutgart kabi shaharlaridagi turli universitet va oliy texnika o'quv yurtlariga muhandislik, kimyo, medisina, ziroat, falsafa va pedagogika sohalari bo'yicha o'qishga joylashadilar. Bu yoshlarni Germaniyaga va Turkiyaga o'qishga yuborish va ularni moddiy jihatdan ta'minlash va ma'naviy qo'llab-quvvatlashda Turkiston ASSR rahbarlaridan Turor Risqulov, A.Rahimboyev, S.Qosimxo'jayev Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining raisi Fayzulla Xo'jayev, maorif nozirlari Abdulvohid Burxonov va Abdurauf Fitrat katta rol uynadilar.

1922 yil oxirlarida Fayzulla Xo'jayev 1923 yil kuz oylarida Turor Risqulov 1926-1928 yillarda O'zbekiston SSR rahbarlaridan Abdulla Rahimboyev, maorif va matbuot rahbarlaridan Majid Qodiriy, Holmuxammad Oxundiy va boshqalar Germaniyada bo'lib qaytdilar. Ular Germaniyada bo'lgan vaqtlarda O'zbekistondan kelib ta'lim olayotgan talabalarning iqtisodiy va madaniy hayotlari, o'qish sharoitlari va ahvollari, ehtiyojlari bilan yaqindash tanishdilar. Berlindagi qator o'quv yurtlari klub, kutubxona va ilmiy muassasalarida bo'lardilar. Jumladan, 1923 yil sentyabr oyida Germaniyaga bir oy bo'lib qaytgan Turor Rizqulov bu xaqda shunday deb yozadi: «Germaniyada Turkiston o'quvchilari 11, Buxoro o'quvchilari 47 kishidir. Turkistonliklarning 7 tasi o'zbek, 4 tasi qozoqdir. Turkiston o'quvchilari o'z vazifalarini yaxshi tushunadilar. Keyin yurtlariga qaytib o'z xalqi va hukumatiga foyda keltirishi harakati bor: 4 o'zbek texnicheskiy akademiya (bu maktab Germaniyada atoqli bo'lib, 4 yil nazariya va 1 yil amaliy ish qilinadi), 2 qirg'iz qishloq xo'jaligi akademiyasida (2 yil o'qish 1 yil amaliy mashg'ulot), 2 o'zbek (biri qiz) gimnaziya (1 yil o'qish 2 yil tajriba) va bir o'zbek dorilfununda (Tib sho'basida, 5 yil o'qish va bir yil tajriba oladilar. Buxoro o'quvchilari! Berlin dorilfununida buxoroliklardan 7 kishi bo'lib, har qaysisi turli fakultetlarga bo'lingan: tib, falsafa, siyosiy iqtisod oliy texnikasi

maktabining binokorlik sho'basida... Buxoroliklardan o'zbeklar 35, totar 8 (bularning 4 tasi qiz), turkmanlar 5, yaxudiylar 7 kishi... Nemis tilini tezroq o'rganish uchun butun o'quvchilar oilalarga joylashganlar. Xorijda ta'lim olayotgan talabalarga moddiy jihatdan yordam berish maqsadda bir qator tadbirlar uyushtirildi. Jumladan, 1921 yil boshlarida Toshkentda Sayidali Xo'ja Usmonxo'jayev raisligida tashkil bo'lgan «Numon» uyushmasi ham bu ishda ularga yaqindan yordam ko'rsatdi. Mazkur uyushma o'sha yillarda Turkistondagi turli adabiy kechalar, teatr va sport o'yinlaridan tushgan pullardan muayyan qismlarini Turkiya va Germaniyada o'qiyotgan talabalarimizga kechiktirmay yuborib turdilar. Bundan tashqari bu davrda ilg'or o'zbek ziyolilardan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov, Salimxon Tillaxonov, Abdulxamid Sulaymon (Cho'lpon) va boshqalar ham shaxsiy jamg'armalaridan xorijda o'qiyotgan o'zbek yoshlariga yuborib turdilar. Turkistonda xorijga tobora ko'proq yoshlarni o'qishga yuborish yurtimizning kelgusi istiqboli uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini targ'ib va tashviq qilib bordilar.

Manbalarda turkistonlik va buxorolik talabalar haqida bir qator muhim ma'lumotlar uchraydi: Jumladan «Buxoro axbori» gazetasining 1923 yil 17 mart sonida bosilgan «Germaniyada Buxoro talabasi» maqolasida berilgan ma'lumotga ko'ra 1922-1923 yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Berlinga talabalar olib borish ularni u yerdagi turli oliy o'rta maxsus o'quv yurtlariga joylashtirish mashxur totar ziyolisi Olimjon Idrisov Buxoro XSR markaziy ijroqum a'zosi Burxonov va RSFSR vakolatxonasining sobiq xodimi Keminisskiylardan iborat komissiyaga topshirilgan. Buxoro talabalari Germaniyaga borib yetganda dastlab til o'rgana boshlaganlar. Ular orasida tezda nemis tilini yaxshi o'zlashtirib imtixon topshiruvchilar ham bo'lgan. Arxiv xujjatlarining dalolat berishicha 1923 yil 19 fevralda bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasining MIQ va xalq nozirlari Kengashining birlashgan majlisda «Germaniyadagi maorif vakolati» ning tarixiy xati o'qib beriladi. Xattadigi tijorat va maorif xujjatiga «Mardi Shayon» ya'ni o'z tashakkurlarini ma'lum etganlar. Tijorat va maorif xay'ati yordamida Germaniyadagi Turkistonlik va Buxorolik talablalar yaxshi o'qishlari bilan birga madaniy ma'rifiy ishlarda ham faol qatnashganlar. 1923 yilda ular Berlinda o'zlarining ilmiy ma'rifiy jurnallari «Numon»ning birinchi sonini chiqardilar.

20- yillarning boshlarida Germaniyaga o'qishga borgan mazkur talabalarining hammasi ham u yerda o'z vatanlarining umid va ishonchlarini oqlashga, Ovrupada dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar va nemis yoshlari bilan aralashib, nemislarning tili,urf-odati vatarixi, madaniyati, fan-texnika va ma'orif sohasida erishgan yutuqlarini chuqur o'rganish bilan birga o'z milliy madaniyati va sa'nati, adabiyotini ham tarqatishga harakat qildilar. Ular nemislar o'rtasida turli sharq kechalari o'tkazib, milliy konsert va qo'shiqlarimizni ham tarh'ib va tashviq qilib bordilar. Talabalarimiz Berlindagi «Ozod Sharq» nashriyotida Abdurauf Fitratning «Hind istilochilari»(1923) drammasibilan Sadridin Ayniy «Qiz bola yoki Xolida» (1924) o'quv kitoblarini, shuningdek o'zlarini «Ko'mak» (1923) nomli birinchi ilmiy, adabiy va ijtimoiy ruhdagi jurnalini ham nashr qildilar. Uning sahifalarida bu yerda o'qiyotgan

talabalarimizdan S.Usmonning «Osiyoning oq o'g'li», Ahmad Shukriyning «Turk adabiyotida idealizm va realizm», «Cho'lpon-Cho'lpondir» kabi maqolalari bosldi.

Buxoro ilmiy jamiyati BXSReda tashkil etilgan jamiyat (1921 yil) o'lkadagi qadimiy obidalarni muxofaza qilish, xalq amaliy san'atini rivojlantirish, fan tarixiga oid qo'lyozmalarni yig'ish, arxeologik ashyolar va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab tadqiq etish kabi ishlar bilan shug'ullangan. Olim, yozuvchi va ma'rifatparvarlardan Abdurauf Fitrat, Otajon Toirov Sulaymoniy, Abdulvohid Burxonov (Munzim), Sadridin Ayniy, Salimbek Salimiy, Sharifjon Mahdum (Sadr Ziyo), Ahmadxon Xaidiy, Musajon Saidjonov, Yo'ldoshqori Po'latov, Siddiqjon (Xashmat) (1885-1910 yillarda Buxoro amiri bo'lgan Amir Abdulahadning ukasi) jamiyat a'zolari bo'lishgan. Buxoro ilmiy jamiyati ekspedisiyalar tashkil etishgan. Buxorodagi 3 shaxsiy kutubxonada saqlangan sharqshunoslik, tarix, adabiyotga oid qo'lyozma kitoblarni to'plagan. Birgina Sharifjon Mahdum kutubxonasidan 300 jildga yaqin fors-tojik va turkiy tillardagi noyob qo'lyozma asarlar ro'yxatga olingan. Jamiyat to'plagan qo'lyozma asarlar orasida tarixchi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» (Buxoro tarixi), Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoyi» (nodir voqyealar) asarlari bor. Jamiyatning «Anjumani tarix» bo'limi «Buxoro arki tarixining qo'lyozmasi» kitobini tayyorlagan. BIJ to'plagan materiallar O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Abdurauf Fitrat 1922 yilda taxsil ko'rish uchun Moskvaga jo'naydi. U Moskvada ham o'qiydi, ham ishlaydi. «Qiyomat» (1923), «Bedil» (1923), «Abdulfayzxon» (1924) singari asarlari Moskvadagi Sharq markaziy nashriyotida nashr etildi. «Bedil» nomli falsafiy ocherkida Bedil ijodiga yangicha talqin berilgan. Ular shoir ijodining xalqchilligi, uning dunyoqarashidagi insonparvarlik, mazmun bizning zamonamiz bilan yaqinlashtiradigan qarashlar chuqur tahlil etib berilgan.

«Chin sevish» drammasi Hindistonga bag'ishlab yozilgan. Lekin asardagi voqyealar, bevosita, Buxoro va umuman Turkistonga tegishlidir. «Abdulfayzxon» drammasi esa «Shoh asari» deb tan olingandir. Asarda XVIII asrda hukmronlik qilgan Abdulfayzxon davlatining ashtarxoniylardan qulashi va Buxoro amirligining vujudga kelishi tarixini aks ettiruvchi murakkab mavzudagi asardir.

Fitrat Istanbuldalik chog'ida «Buxoro ta'limi maorif jamiyati» nomi bilan rasmiy va ochiq jamiyat tuzgan bo'lib, bu jamiyat o'zining nomiga muvofiq Buxoro va Turkiston maorifining olg'a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshirgan. U Buxoroda maorif nozirligi ishlariga jalb etilgan ekan, yoshlarni xorijda (Istanbul, Berlin, Moskva) o'qishi uchun sharoit xozirlaydi. Moskvadagi kommunistik universitetiga Buxorodan yiliga 20 talaba yuborish haqida kelishib olindi. Nashrlik va matbaa ishlarini kengaytirib ko'plab darslik hamda qo'llanmalar nashr qilinishiga erishdi.

Shaxsan Fitratning aralashuvi bilan «Buxoro axbori»ga muxarrirlik qilish uchun taniqli shoir Cho'lpon chaqirtirib olingan. Shoirning Buxoro inqilobi bir yilligiga bag'ishlangan mashxur «Xalq» she'ri «Buxoro axbori»ning 7 sentyabr sonida e'lon qilindi.

Buxoro teatri. Sadridin Ayniy nomidagi davlat musiqali drama va komediya teatri – to'ng'ich o'zbek professional teatrlaridan. 1921 yil Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan xavaskorlar guruhi asosida tashkil qilinib, 1922 yil «Tuxmatchilar jazosi» (Xamza) spektakli bilan ochilgan. Ikkinchi spektakli «Turkiston tabibi» (Mannon Uyg'ur 1923). Tashkilotchisi va badiiy rahbari – Mannon Uyg'ur, X.Latipov, L.Nazrullayev, N.Rahmonov, L.Latipov, S.Tabibullayev, N.G'aniyev va boshqalarning ijodkorligi bilan teatr o'zining taraqqiyot darajasiga ko'tarildi. 1924 yilda teatrning bir qismi guruh aktyorlari Moskvadagi o'zbek drammasiga o'qishga yuborildi.

«Buxoro axbori» BXSР hukumati gazetasi 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil iyulgacha o'zbek tilida chiqqan. Adadi 3000. Gazeta Buxoro jadidlarining minbari bo'lib, milliy mustaqillikka erishish, mamlakatda burjua demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishni targ'i qilgan. «Buxoro axbori»da Buxoroda vijdon erkinligini ta'minlash, milliy hukumat va milliy qurolli kuchlarga tayanish, rus qizil qo'shinlarini Buxoro xududidan olib chiqib ketish va boshqa siyosiy ham da iqtisodiy masalalar ko'tarilgan. Gazeta 1923 yil iyulda Sho'ro hokimiyati tomonidan ta'qiqlangan. Gazetaga Fitrat, Cho'lpon, Said Ahroriy, Ziyosmoniy, Qori Yo'ldosh va boshqalar muxarrirlik qilgan. 1923 yil sentyabrdan «Ozod Buxoro» nomi bilan chiqa boshlagan (yana qisqacha «Buxoronoma»). Sayid Ahroriy (Muhammad Said Ahrorov) yosh buxoroliklarning aktiv ishtirokchisi. 1920 yilda revolyusiya g'alaba qilganidan keyin Buxoro Kommunistik partiyasi sifatiga kirdi, Buxoro XSР Davlat nashriyotining birinchi direktorii bo'lib ishladi. Shuningdek «Buxoro axbori» gazetasining muxarriri BXSР hukumatining Ozorboyjondagi doimiy vakili bo'lib turdi, keyin Xalq Nozirlari Sho'rosi apparatida ishladi. 1917-1924 yillar oralig'ida taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davrda dramaturgiya umuman o'zbek adabiyotining yetakchi janri bo'lib qoldi va uning eng sara namunalari maydonga keldi. Fitrat, Cho'lpon, Namza, G'ulom Jafariy, Xurshid, A.Badriy, Xoji Mo'in, A.Avloniy, G'ozir Yunus kabi dramaturglarning badiiy mumtoz, g'oyaviy o'tkir, janr e'tiboriga ko'ra g'oyat muvaffaqiyatli sahna asarlari shu darsda yaratildi va sahnalashtirildi. Bu dars o'ta qizg'in teatrchilik tajribalari bilan ham harakterlanadigan haqiqiy yuksalish yillari bo'lib, o'zbek tayetri tarixiga kirishga haqli. Abdurauf Fitrat hyech qachon, shu jumladan, Buxoro Xalq Respublikasi maorif noziri bo'lib ishlagan davrida ham o'zi dramaturglikka, asari esa zamonaviylikka da'vo qilmagan.

Fitrat musiqamiz tarixini yaratish «Shoshmaqom»ni to'plash va notaga tushirish ishlarini O'zbekistonda birinchilardan bo'lib boshladi. U yangi sharq musiqa maktabini tashkil etishga tashabbus ko'rsatdi. Buxoro hukumatining farmoni bilan 1921 yilning 10 avgustida Fitrat Sharq musiqa maktabini birinchi boshlig'i (direktori) qilib tayinlandi. Sharq musiqa maktabiga adib o'z xovlisini xadya etgan (Buxoroning Dzerjinskiy ko'chasidagi 8 xovli, shu kunlarda shahar kommunal xo'jaligi yotoqxonasi). Maskur musiqa maktabiga domla Xalim Ibodov ilmiy bo'lim mudiri, «Shoshmaqom» bilimdonlaridan Shoxnazar Shaxobov, Boboqul Fayzullayev o'qituvchi bo'lib keladilar. 101 yoshli Jaloliddin ota Kamolxonovning aytishlaricha Fitrat Buxoroning barcha nohiyalaridan iste'dodli yoshlarni atrofiga to'plagan. Uspenskiyga o'z yonidan haq tulab «Shoshmaqomni»

notaga tushurishdek xayrli ishni bajaradi. Biz shu kungacha buxorolik mashxurxofiz va bastakorlar Levigo Xafiz, Gofriil Potonlarning na hayotini, na ijodini bilamiz. Bu zotlar «Bozori shob»da har kuni xonish qilishgan. Fitrat afandi ular bilan bevosita aloqada bo'lgan.